shuki, ichki kapital qo‘yilmalar xorijiy investitsiyalar va mahalliy korxonalarning yuqori raqobatbardoshlikka ega bo‘lgan Transmilliy Milliy Korporatsiyalar tomonidan siqib chiqarilishi hisoblanadi.

Xorijiy portfel investitsiyalar milliy bozor likvidligini oshiradi, qabul qiluvchi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga esa bevosita ijobjiy ta’sirini ko‘rsatadi. Moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash, moliyaviy vositachilikni kengaytirish, riskni kapital hajmlarining va yangi kompaniyalar sonining ortishiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy portfel investitsiyalarning qabul qiluvchi iqtisodiyotga salbiy ta’sirini quyidagicha aytish mumkin:

1. Erishilayotgan yutuqlardan moliyalashtirish xarajatlari baland bo‘lishi mumkin. Agarda aktsiyadorlik kapitali investitsiyalar tavakkalchiligini (riski) taqsimlanishining bir qismini o‘z ichiga olsa, obligatsiyalarga sarflangan investitsiyalarda risk bo‘lmaydi.

2. Asosiy salbiy tomonlari bu portfel kapital oqimlari yuqori bo‘lgan risk ta’sirida barqaror tendensiyaga ega bo‘lishi mumkin.

Portfelli investitsiyalar mamlakat iqtisodiyoti holatiga aktivlar o‘sishi hisobiga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa moddiy boyliklar iste’moli ortishiga olib keladi va kapital egalarining ularni boshqa qimmatli qog‘ozlarga yoki aktivlarga investitsiyalashga qaror qilgunlarigacha davom etadi.

1- Investitsiyalar tavsiflari¹²


INVESTITSIYANING TURLARI

| | | | |
|-----------------------------------|-----------------------|----------------|---------------|
| Investitsiya obyekti bo‘yicha | Mulk shaklida | moliyaviy | spekulyativ |
| Asosiy investitsiya maqsadlari | To‘g‘ridan to‘g‘ri | portfelli | Bevosita |
| Egalik huquqi bo‘yicha | xususiy | davlat | xorijiy |
| Investitsiya muddati bo‘yicha | Qisqa muddatli | O‘rta muddatli | Uzoq muddatli |

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Iqtisodiy adabiyotlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning tor va keng ma’nodagi ta’riflari keltirilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyaning tor ma’nodagi ta’rifi bu yo‘nalishning bazaviy metodologiyasi kapital harakatini erkinlashtirish: mustahkam iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatish va korxona ustidan doimiy nazorat huquqini qo‘lga kiritish maqsadida kapital va resurslarning transchegaraviy harakati qamrab olinadi. Bunday yondashuv asosida investor sifatida mazkur mamlakatning norezidentlari va xorijlik rezidentlar maydonga chiqishlari mumkin. Har ikkala toifalar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hosil bo‘lishining quyidagicha yo‘nalishlari ko‘rsatiladi: 100 foizlik xorijiy mulkchilikka asoslangan korxona, shu’ba kompaniyasi yoki bo‘linmasini tashkil etish yoki kengaytirish, mavjud korxonani to‘liq mulkchilikka sotib olish, yangi yoki harakatdagi korxonada ishtiroy etish, 5 yil yoki undan ko‘p muddatlarga qarz berish.(1.1.1-rasm.)



¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

investitsiyalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va professional bilimlarni olish uchun katta mehnat talab etmaydi. (2-rasm.)

Kapital olib chiqishning tadbirkorlik shakli ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqadorligi tufayli ko‘pincha “ikkinchi iqtisodiyot” deb ataladi.¹⁴

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, kapitalni chetga chiqarishni asoslab beruvchi ilmiy nazariyalar ishlab chiqila boshlangan. Ushbu yo‘nalishlarni quyidagicha yoritish mumkin.

Portfel investitsiyalar -

Uzoq muddatli daromad olish huquqini ta’minlovchi, ammo investitsiyalash ob’ekti ustidan nazorat qilish huquqini bermaydigan ishlab chiqarishga qisqa va o’rta muddatli kapital

Asosiy xususiyati

Pirovard maqsadi divident yoki qat’iy foiz stavka shaklidagi daromad olishga qaratilgan

tadbirkorlik kapitalining ustuvor shakli

Asosiy-xorijiy korxona mulkida qatnashish huquqini beruvchi aktsiyalarni sotib olish orqali xorijiy investitsiya kiritish: xorijiy korxona bilan kredit munosabatlarini ifodalovchi obligatsiyalar va veksellar sotib olish orqali xorijiy investitsiya kiritish.

Amalga oshirish shakllari

- a) xorijiy investorning investitsiya kiritilayotgan ob’ekt ustidan to’liq egalik qilishi;
- b) xorijiy investor tomonidan investitsiya kiritilayotgan ob’ekt ustav kapitalida 10% dan kam bo’limgan qismi ustidan nazorat o’rnatish;
- v) xorijiy investorning investitsiya kiritil gan ob’ektni boshqarishda samarali qatnashishi.

Kapitalni chetga chiqarishning zamonaviy va ommaviy sabablarini asoslash. Ushbu turdagи tahlillar makroiqtisodiy qonuniyatlar asosida amalga oshirilishi mumkin;

¹⁴ А.В.Ваҳобов “Халқаро инвестиция” Тошкент – 2003 й. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети.

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Jahon kapital oqimlarini o‘zaro bog‘liqliklarini umumlashtirish. Ushbu yo‘nalish jahon bozori globallashuv sharoitidagi kapital oqimlarni rivojlantirish qonunlariga asoslanadi.

Kapitalni dastlab chetga chiqarishda korporatsion raqobat yaxshiligini isbotlashga qaratilgan nazariyalarni ko‘rib chiqsak. Ushbu retsept mamlakatda yaqqol ko‘rinishi mumkin. Ushbu turdagи tadqiqotlar mantiqan monopolistik raqobatga ega bozorga va bozor qoidalariiga asoslanadi. Tovar kimda raqib mahsulotiga nisbatan biror afzallikka ega bo‘lsa, ushbu g‘olib sanaladi.

2-jadval

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalar o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlar¹⁶

| Belgilar | To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar | Portfel investitsiyalar |
|----------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Olib chiqishning asosiy maqsadi | Xorijiy firmani nazorat qilish | Yuqori foyda olish |
| Maqsadga ko‘ra erishish yo‘llari | Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va yuritish | Xorijiy qimmatli qog‘ozlarni sotib olish |
| Maqsadga erishish usullari | -xorijiy firmaga to‘liq egalik qilish; -aksiyalar nazorat paketini sotib olish(XVF ustaviga ko‘ra kompaniya aksiyadorlik kapitalining 25 foizidan kam bo‘lmasligi kerak) | Xorijiy firma aksiyadorlik kapitalining kamida 25 foizini sotib olish(AQSh, Yaponiya va Germaniyada -10%) |
| Daromad shakllari | Tadbirkorlik foydasi, devidentlar | Devidentlar, foizlar |

Mazkur yo‘nalishdagi nazariyalar ichidan quyidagilarni alohida ajratish mumkin: mahsulotning hayotiylik sikli va nazariyasi, misol uchun M.Portering raqobatbardoshlik nazariyasi, J.Danningning eklektik paradigmasi.

Raqobatbardoshlik nazariyasi M.Portet tomonidan (1990 yillarda) ishlab chiqilgan bo‘lib, raqobatbardoshlik nazariyasi jahonning 8 mamlakatidagi 100 dan oshiq tarmoqlarni tahlil qilish asosida yaratgan. Ushbu tahlillar asosida trans milliy korporatsiyalarning jahon bozoridagi yutuqlarini ta’minlovchi omillarni quyidagi guruhlarga ajratiladi. Ushbu omillar sintezini “Raqobat afzalliklari olmosi” deb ataydi

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

M.Porter. Ular kapitalni chetga chiqarishning muvaffaqiyatini kafolatlashni nazarda tutadi.(3-jadval)

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va huquqiy islohotlar qulay investitsiya muhitini yaratishda asosiy omil bo'lib kelmoqda:

3-jadval

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyaning asosiy nazariy kontseptsiyalari¹⁷ (Makroiqtisodiy yondashuv)

"Investitsiya muhiti" terminiga izoh beradigan bo'lsak, bu- mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuidir.

"Investitsiya muhiti" quyidagi omillar orqali belgilanadi: tabiiy shart-sharoitlar, qazilma boyliklar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig'imi hamda tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, urbanizatsiya darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlar belgilanganligi va boshqalar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari orasida quydagilarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin: investitsiya jalb qilish uchun xalqaro me'yorlar va konvensiyalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish, respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish, ishlab chiqarish bilan bog'liq investitsiyalarni kiritishga ko'maklashish, mamlakat kredit qobiliyatini qo'llab-quvvatlash, mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarni kiritishga yordam berish.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo'lган davlat tomonidan rag'batlantiriluvchi yo'nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya

¹⁷ А.В.Ваҳобов "Халқаро инвестиция" Тошкент – 2003 й. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети. 39-б.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

muhitini yaratish va ular kiritgan mablag‘larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun makammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.¹⁸

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrdagi “Investitsiya faoliyati to’g’risida”gi qonuni, 2-modda
2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрь “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида” ЎРҚ-598-сон Конуни.
3. <http://parliament.gov.uz/> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018йил 28декабрь.
4. А.В.Ваҳобов “Халқаро инвестиция” Тошкент – 2003 й. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети. 39-б.
5. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo’nalishlari. – Т.: O’zbekiston, 1993 yil, 16-17 betlar.
6. И.А.Каримов Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислоҳотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир. Ўзбекистон нашриёти, 2015 й., 66.
7. Лоренс Дж.Гитман, Майкл Д.Джонк. Основы инвестирования.- М.:Дело, 2007, с-10.
8. Макконнел К.Р. ва Брю. С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2т.: Пер.с англ. 13-го изд.: Учеб.- Т. 1-М.: ИНФРА-М, 2001.-[974] с
9. Михайлова. Е.В. Финансовые рынки и их формирование. Под. Ред. Л.Н.Красавиной. - М. 2007, с-357.
10. Розенберг Д.М. Инвестиции.- М.:ИНФРА, 2007, с-173.
11. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж., Инвестиции: Пер.с англ. – М.: Инфра-М, 2010. - 1028 с.
12. Фозибеков Д.Ғ., Қоралиев Т.М. Инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш.-Т.: ТМИ, 1997, 72-б.

¹⁸ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрь “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида” ЎРҚ-598-сон Конуни

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

13. Hojiquulova F., Eshquvvatov O. UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA DAROMADLARIDAN MAHALLIY BUDJETLARGA AJRATMALAR HISobi // "Science Shine" International scientific journal. – 2023. – T. 7. – №. 1.

14. qizi Hojiquulova F. D., Eshquvvatov O. A. MAMLAKAT IQTISODIYOTINI YUKSALTIRISHDA SUN'iy INTELLEKTNING ROLI // GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 23. – C. 19-23.

15. Feruza X., Eshquvvatov O. A. SUNIY INTELLEKTNING MEHNAT BOZORIGA TASIRI // "XXI ASRDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2023. – T. 1. – №. 8. – C. 36-39.

16. Hojiquulova F. MAHALLIY BYUDJETLARDAROMADARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI // Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 13.

17. Hojiquulova F. MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALARING RIVOJLANISHI BANKLARNING TRANSFORMATSION SALOHIYATIGA TA'SIRI // Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – C. 317-318.

18. Hojiquulova F. et al. IMPROVING THE TAX SYSTEM IN OUR COUNTRY TRAINING ISSUES // Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 378-382.

19. Hojiquulova F. MAMLAKATIMIZDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTRISH MASALALARI // Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. C7. – C. 378-382.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

**SUYUQ SOVUN TARKIBIDAGI MIS IONLARINI ORGANIK
REAGENTLAR YORDAMIDA SIFAT VA MIQDORIY ANIQLASH**
**Qahhorov A.R., Xolmirzayev D.T., Xolliyev A.X., Shomirzayeva Z.X.,
Qurbanova Sh.B., Zikirov S.A., Eshkarayev S.CH.**

Termiz davlat universiteti, Termiz sh. Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy
e-mail: aqahhorov76@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada suyuq Sovun tarkibidagi mis (II) ionini analitik usullar bilan aniqlash bayon etilgan. Xususan, mis ionini mureksid organik reagenti bilan miqdoriy aniqlanganda suyuq Sovun tarkibida 0,002 gramm mis (II) ioni borligi aniqlandi. Miqdoriy tahlilni tasdiqlash uchun olingan mis IQ-spektroskopiya usulida tahlil qilindi va tasdiqlandi.

Kalit so'zlar: suyuq Sovun, mis, organik reagent, gel, IQ-spektroskopiya, fotometriya, mureksid, xloroform, natriy gidroksid,

Kirish. Suyuq Sovuni o'smirlar va boshqalarning terisida paydo bo'ladigan o'jar, bezovta qiluvchi sivilcalar uchun samarali vositadir. Ammo bu samarali Sovunning ko'plab yangi afzalliliklari bor. Dettol Sovuni terini chuqur tozalaydi va terida infektsiya va yallig'lanishni keltirib chiqaradigan bakteriyalar va mikroblarga qarshi kurashadi. Bu aknedan xalos bo'lishga va uning ko'rinishini asta-sekin kamaytirishga yordam beradi. Samarali formulasi tufayli Dettol Sovuni terini salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan teri infektsiyalaridan himoya qiladi. Bundan tashqari, terida qon aylanishini kuchaytiradi, terini yumshoq va yangi qiladi. Dettol Sovuni nafaqat yuz va tanani tozalash, balki har qanday teri infektsiyasini davolash yoki hatto teridagi pigment dog'larini olib tashlash uchun ham ishlatalishi mumkin. Agar siz teringizni tozalab, toza va yorqin teriga ega bo'lishni istasangiz, Dettol Acne Soap siz uchun mukammal mahsulotdir[1].

Suyuq Sovun tarkibida aggressiv sirt faol moddalar, xushbo'y moddalar sintetik bo'yoqlar, mineral moylar, silikonlardan tashkil topgan. Suyuq Sovun tarkibida suv, ammoniy lauril sulfat, olivamidoprodil betain, glitserin, natriy lauroil sarkosinat, kapril glyukozid, kokamidopropil betain, lauril glikozid, romashka gullari eksrakti,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

glikolitserafid, pantenol, natriy xlorid, natriy benzoat, kaliy sorbat va boshqa moddalardan tashkil topgan [2].

Misning tuzlaridan quyidagi sohalarda keng ishlatiladi: qotishmalar olishda, pigmentlar va sun‘iy ipak olishda, o‘simgilik zararkunandalariga qarshi, mikroo‘g‘it sifatida va tibbiyotda keng ishtiladi.[3]

Usul va kerakli reaktivlar. Ushbu maqolada analistik usullardan quyidagilardan foydalanilgan fotometriya, eksrektsiya, IQ-spektroskopiya, ajratish va boshqa usullardan foydalanilgan.

1. Natriy gidroksidning 0.1 M li eritmasi
2. Mureksidning 0.1 M li (erituvchi spirit)
3. Mis (II)-sulfat eritmasi
4. Distillangan suv
5. L-naftolaminning xloroformdagi eritmasi
6. Sulfosalitsil kislotasi 0.1 M li eritmasi

Tajribaviy qism: Dastlab ishni suyuqsovunni 50 ml distillangan suvda suyultirib oldik va 15 minut davomida shu holatda olib quydik. Keyin tarkibida mis borligini aniqlash uchun sifat reaksiyalarni olib bordik. Birinchi bo‘lib eritma muhitini ko‘rib oldik. Eritma muhiti neytral ekan, ya’ni pH=7 oralig‘ida ekan. Keyin unga ishqoriy muhitda sulfosalitsil kislotasini ta’sir ettirdik, eritma rangi och yashil rangga o‘zgardi va eritmada mis ioni borligini aniqladik. Yana boshqa bir probirkaga tayyor eritmadan ozroq olib unga ishqoriy muhitda mukirsid organik reagenti ta’sir ettiranimizda eritma rangi dastlab rangsiz, keyin bo‘lsa pushti rangga o‘tdi. Keyin unga organik cho‘ktiruvchi tushurdik va biz bunda p-naftolaminning xloroformdagi eritmasidan foydalandik. Eritmani 30 daqiqa davomida aralashtirib turdik. Uning ustiga organik fazada hosil qiluvchi modda ta’sir ettirdik va biz ikki xil faza hosil qildik. Keyinchalik bo‘lsa bu eritmani 30 daqiqa aralashtirgich yordamida aralashtirdik. Vaqt o‘tib bo‘lgach eritmani tindirib quydik va uni ajratish voronkasidan ajratib olib organik fazani olib quritish pechida quritdik. Organik fazaga o‘tgan mis ionini o‘lchadik va eritmada 0,002 gramm o‘tgani ko‘rdik.

Tajriba natijalari tahlili.


Eritmadan ozroq olib unga ishqoriy muhitda mukirsid organik reagenti ta’sir ettiranimizda eritma rangi dastlab rangsiz, keyin bo‘lsa pushti rangga o‘tdi. Keyin unga organik cho‘ktiruvchi tushurdik va biz bunda p-naftolaminning xloroformdagi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3


eritmasidan foydalandik. Eritmani 30 daqiqa davomida aralashtirib turdik. Uning ustiga organik faza hosil qiluvchi modda ta'sir ettirdik. Organik faza hosil qilish uchun izo-propilamindan foydalandik va biz ikki xil faza hosil qildik. Keyinchalik bo'lsa bu eritmani 30 daqiqa aralashtirgich yordamida aralashtirdik. Eritmada ko'pikga o'xshash po'fak hosil bo'ldi. Po'faklar yo'qolgunga qadar eritmani tindirdi. Vaqt o'tib bo'lgach eritmani tindirib quydik va uni ajratish voronkasidan ajratib olib organik fazani olib quritish pechida quritdik. Organik fazaga o'tgan mis ionini o'lchadik va eritmada 0,002 gramm o'tgani ko'rdik.

Suyuqsovun eritmasidan ishor ta'sir ettiranimizda eritma rangi ko'kardi. Xuddi shu eritmadan ishqoriy muhitda sulfosalitsil kislotasi 0.1 M li eritmasidan 1 ml olib eritmaga qo'shdik, so'ng och yashil rangli eritma hosil bo'ldi.

Segnet tuzi (kaliy natriy tartrat) $\text{KNaC}_4\text{H}_4\text{O}_6$ mis (II) ioni eritmasiga ishqoriy muhitda ta'sir ettirilsa, to'q ko'k rangli ichki kompleks birikma <<Feling suyuqligi>> hosil bo'ladi[4]:



<<Feling suyuqligi>> aldegid guruhi bo'lgan organik moddalarni oksidlaydi, natijada sariq rangli CuOH cho'kma hosil bo'lib, qizdirilganda qizil rangli Cu_2O ga aylanadi:



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

| | | |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mis | Ditzon 8,8-Dixinolildisulfid Kaliy ksantat Kuproin Kupferon Merkaptosirka kislota Merkaptobenztiazol Neokuproin α -Nitrozo- β -naftol 8-Oksixinolin Salitsilaldoksim Salitsil kislota Tenoiltrifitoratseton Tiromochevina Tiosemikarbazid Xinaldin kislota | Fotometrik -// Ekstraksion-fotometrik Tortma Fotometrik Tortma, titrimetrik Ekstraksion-fotometrik Fotometrik Tortma, titrimetrik, fotometrik Tortma Fotometrik Ekstraksion-fotometrik -// -// Tortma |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|




1-rasm. Mis (II) ionini ochish uchun qo'llaniladigan organik reagentlar



2-rasm. Mureksid bilan mis (II) ionlarining turli konsentratsiyalardagi reaksiyalari

1-jadval: Murakkab aralashmalar tarkibidagi mis (II) ionlarini aniqlashda qo'llaniladigan organik reagentlar

| Organik reagent | Empirik formulasi |
|-----------------|-------------------|
| Ditizon | |
| Kupferon | |

| | |
|----------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
| a-nitrozo-b-naftol |  |
| Tenoiltrifroratseton |  |
| Kaliy natriy tartrat |  |

Xulosalar. Suyuqsovunni terida uzoq vaqt qoldirmaslik kerak va uni qo'llashdan keyin iliq suv bilan yaxshilab yuvib tashlang. Boshqa tomondan, allergiya va terining tirnash xususiyati oldini olish uchun tananing nozik joylarida, masalan, ko'zlar, og'iz va burunlarda sovunni ishlatsidan qochishingiz kerak. Nihoyat, agar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlar paydo bo'lsa yoki uni uzoq vaqt ishlatsangiz, shifokor bilan maslahatlashingiz kerak.

Suyuqsovuni bilan bo'lgan tajribam juda muvaffaqiyatli bo'ldi, chunki bu menga o'smirlik davrida ko'pchilik azob chekadigan bu umumiy muammoni engishga yordam berdi. Mening tajribam dermatologning maslahatiga amal qilishdan boshlandi, chunki u meni Dettol dorivor sovuniga bog'ladi, bu ajoyib natijalar berdi. Men terimning qolgan qismini tozalash uchun Dettol sovunidan ham foydalandim va natijalar haqiqatan ham sezilarli edi. Yuzimdag'i sivilcalar soni sekin-asta kamayib bordi, xijolatlik darajasi ham kamaydi. Ushbu sovunning foydasi nafaqat akne davolashda, balki terini tozalash va teri infektsiyalaridan himoya qilish uchun ham ishlaydi. Bu, shuningdek, doimiy yangilik hissi beradi, bu menga ayniqsa yodqi. Umuman olganda, men barchaga bu muammoni teri uchun samarali va xavfsiz tarzda davolash uchun Dettol akne sovunini sinab ko'rishni maslahat beraman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Internet ma'lumotlari. <https://uz.sadaalomma.com>.
2. Internet ma'lumotlari.
<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&>
3. Internet ma'lumotlari. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mis>
3. X.X.Turayev, N.T.Turabov, B.X.Alimnazarov –“Analitik kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari”. Toshkent-2019.
4. O.Fayzullayev – Analitik kimyo Toshkent-2006.
5. V.P.Vasilyev – Analitik kimyo Toshkent-1999.

БОКС МУРАББИЙИННИНГ ИХТИСОСЛАШГАН ТАЁРГАРЛИГИ ВА ФАОЛИЯТИ

Термез иқтисодиёт ва сервис университети
“Табиий фанлар” кафедраси катта ўқитувчisi
М.Қ. Усмонов

Термиз ш. Фаровон массив, 4B-уй, е-mail: esadir_74@rambler.ru

Анотация

Ушбу мақолада бокс спрот тури мутахассисларининг ихтинослашганлиги таёргарлигини индивидуал фаолияти "яssi қўлқоплар"да индивидуал машқ қилишнинг хусусиятларини ўрганиш ва уларнинг малакали боксчиларни тайёрлашдаги аҳамиятини баҳолаш бўйича илмий изланишлар натижалари келтирилган. Индивидуал машғулотининг замонавий усулларини ишлаб чиқишининг асосий йўналишини аниқланди ва уни биргина тамойили бўйича индивидуал "яssi қўлқоплар"да дарс таснифи ишлаб чиқилди.

Калит сўзлари: мутахассислар, ихтинослашганлиги, таёргарлиги, "яssi қўлқоплар"да индивидуал машғулот олиб бориш, малакали боксчиларни, Техник-тактик, такомиллаштиришини, спорчилар малакаси.

Мавзусининг долзарблиги Дунёда "Яси қўлқоплар" индивидуал дарс жараёнида малакали боксчиларнинг маҳсус чидамлилик қобилиятини ошириши ҳамда уларнинг ирода мустаҳкамлиги бокс мутахассисларининг асосий дикқат марказида туради. Техник-тактик такомиллаштиришини якка тартибда амалга ошириш зарурияти яккақураш спорти турларида таёргарлик тизимининг хусисияти хисобланади. Бунда тренерга, унинг қўнималари ва малакаларига жуда катта талаблар кўйиладиган, улар ўргатиш жараёнида тренернинг шуғунлланувчилар билан мувофиқ равишда ўзаро алоқасига таъминлаш лозим

Яккақураш спорт турларида индивидуал дарсни қўлаш эгалланаётган мураккаб координацияли усулларнинг мазкур спор турларига хос бўлган катта миқторди ва харакатлар тезкорлиги ҳамда аниқлиги хусусиятлари, шунингдек турли рақиблар билан яккана якка олишиш шароитларига уларни кўчириш қийинчиликлари билан тушунирилади

Ёш спорчиларни тайёрлашда, деярли биринчи разрядга эришилганда мураккаблаштирилган билимларни жуфтлик машқлари шароитида эгаллаш етарлича самарали бўлмайди . Шунинг учун спорчилар малакаси қанча юқори бўлса, улар индивидуал техник тактик такомиллаштириш тренер томонидан моделлаштирилади ва шуғулланувчи ўқувчи билан бевосита алоқада бўлиш вазиятларини қўллаган ҳолда амалга оширилади.

Тадқиқотнинг мақсади: “Яssi қўлқоплар”да индивидуал дарслар жараёнида боксчининг ишchanлик қобилиятини ошириш усувларини аниқлаш ва илмий асослашдан иборат.

Тадқиқотнинг вазифаси: “Яssi қўлқоплар”да боксчилар билан ўтказиладиган индивидуал дарсларини такомиллаштириш (ихтисослаштирилган тайёргарликнинг устувор йўналиши бўйича, педагогик йўналиши бўйича, техник-тактик такомиллаштириш методлари бўйича) моделини ишлаб чиқиш.

Индивидуал ишда тренер рақиб билан энг қулай масофада туриб ўзаро алоқани ташкил қилиш имкониятига эга бўлади . Шундай қилиб, индивидуал ишда тренер бир вақтининг ўзида ҳам ўқитувчи, ҳам шуғулланувчилари техник тактик жиҳатлари такомиллаштириш мақсадида ўз ҳаракатлари билан турли хил вазиятларни яратувчи рақиб сифтида қатнашади.

Тренер бундай ишда фақатгина шуғулланувчи ҳаракатлари, уларнинг фазали ва якуний ҳолатларини мунтазам назорат қилинибгина қолмай, балки зарур ҳолларда машқ бошланиши ва якунини осонлаштириш ёки кийинлаштириш, масофани, ҳаракатлар кенглиги ва тезлигини ўзгартериш имкониятига эга бўлади.

Индивидуал дарс маълум бир маънода аниқ ифодаланган ижодий меҳнат шакли сифатида намоён бўлади. Бунда тренер билан шуғулланувчининг ҳаракат хусусиятига кўра спорчиларни ўргатиш такомиллаштириш тарбиялашнинг турли хил педагогик вазифаларини кўпинча комплекс ҳолда ҳал қилишга эришилади.

Техник-тактик такомиллаштириш вазифаларини амалга оширишда индивидуал дарсда қўлланиладиган воситалар ва услубларининг индивидуал ишда қўлланиладиган воситалар ва услубларнинг амал қилиши кўпгина услубий таркибларга боғлиқ Улар орасида тренер ҳаракатлари техникаси, унинг аниқ реакция қилиши, оптимал масофа ва қўллар ҳамда гавда ҳолатига яъни спорчи таёргарлиги даражасини тавсифловчи ҳамма элементларга риоя қилиши мухим

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ўрин эгаллайди. Яккаураш спорти турларида муффақиятли ўргатиш кўп жиҳатдан тренернинг педагогик маҳоратига боғлиқ, у эса билимлар, кўнималар ва маҳсус малакаларда ҳосил бўлди. Булар ёрдамида мураббий, шуғулланувчига таъсир кўрсатаётіб, техника ва тактикасининг берилиши. мустаҳкамланиши ҳамда такомиллаштирилишини таъминлайди бунда шуғулланувчининг фаол ҳаракат қилишга эришади мухум сифатларини тарбиялайди ва унинг функционал тайёргарлигини таъминлайди.

Яккаурашчиларни индивидуал ўргатишда тренер томонидан қўлланиладиган мухсус кўнималарга қўйидагилар киради: турли хилдаги рақиблар учун усуллар ва ҳаракатларни номийиш қилиш; тайёрлов. хужум ва ҳимоя ҳаракатлари ҳамда уларнинг бирикмаларини бажариш; айрим ҳаракатларни ҳамда уларга бирикмаларини маълум бир ёки мумкин бўлган кетмакетликда шуғулланувчи томонидан ҳам қилиниши учун турли хил вазиятларни яратиш

Тренернинг шуғулланувчи билан ўзаро алоқаларига асосланган кўпгина ҳолатлар техникани ривожлантириши вазифаларини ҳал этишдаги каби ҳаракатларни қўллаш шароитларини яратишда ҳам жуфтлик машқларида қийинлашган. Чунки рақиб машқлар бўйича кўпроқ қаршилик кўрсатишга ўргатилган. Унга шунингдек олишувда ўз ҳаракатлари билан яккаураш тавсифларини оптималлаштириш учун маълум бир билимлар ва маҳсус хизмат кўрсатиш тажрибаси зарур.

Тренер ўзининг тайёрлов ва ҳимоя ҳаракатлари билан ўрта ва узоқ масофаларни алмаштирган ҳолда. Бошланғич ва якуний ҳолатларни ўзгартириб турли вазиятларни юзага келтиради.

Боксчиларни тренировка қилдириш амалиётда уларни идивидуал ўргатиш ва ясси қўлқопда ёки қўлқопларда тренер билан ишлаш жараёнида такомиллаштириш қабул қилинган. Бу шунга боғлиқ. гурух бўлиб ўргатилишда техникани эгаллашт учун қулай шароитларнинг яратилиши. ҳамма шуғулланувчиларнинг тренер томонидан бир хил кузатилишида камчиликларнинг юзага келишига сабаб бўлади.

Асосийси эса шундаки гурух бўлиб ўргатишда тренер усулни бажариш техникасини эгаллаш жараёнини етарлича бошкара олмайди.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Тренер боксчи билан бевосита ишлашида усулларнинг бажарилиш сифатини тез боҳолашга асосланиб муайян кўнималарни эгалашдаги камчиликлар туғрисида энг аниқ кўрсатмаларни бера олитши мумкин. Агар тренер боксчини бевосита қўлкоплардан ўргатса янада самаралироқ бўлади. Лекин бу катта спортда ўз фаолиятини яқинда тамомлаган нисбатан ёш тренер учун рухсат этиладиган услубиятири. Кўпгина ҳоларда бокисда индивидуал ўргатиш шуғулланувчилар ҳаракатлари шиддатини бошкарадиган бир қатор шартларга риоя қилишни талаб этади: ясси қўлқопни қўллаш тренер ёши ва унинг ҳаракатчанлигини ҳисобга олиш.

Боксчи тинхникасини ва тактикасини муваффақиятли такомиллаштириш бутунлай унинг руҳий сифатлари ва маҳсус сезгилари масофани ҳис қилиши вақт рингда ўзини тутиш, гавда ҳолати ва ҳаракат эркинлигини ҳис қилишининг, зарбан ҳис қилиш, вақт. Фикирлаш, риакция тезлигининг ҳис қилишнинг ривожланганлик даражасига боғлиқ. Бу сифатлар маҳсус педагогик таъсир кўрсатиш йўли орқали тренировка жараёнида шакиланади.

Хулоса

Мураббий ясси қўлқоп билан машқ қўлаётib боксчини зарба ёки бир қанча зарбалар бериш учун буйруқ бўлиб хизмат қиласидиган маълум бир ҳолатларга маълум бир ҳолатларга қўяди ясси қўлқоп билан рақиб зарбаларига ўхшаш ишора қилиб уларга спортчи ҳимоялар (ёки ҳимоядан кейин қарши зарбалар) билан жавоб қайтариши лозим. Боксчи аввал ясси қўлқопга бир неча зарбалар бериб сўнгра тренер буйруғи бўйича масофани кескин ўзгартирган ҳолда ҳимояга ўтиб ва шундан кейин яна зарбалар бериб бажариладиган машқлар энг самарали ҳисобланади. Тренер спортчиларда реакция тезлигини ривожоантираётib уларда буйруқларни (кўрсатиб беришлар зарбалар очилишлар ва х.к) ажратишга бўлган кўрсатмаларни ҳосил қиласди: машқларни бажариш давомида тўсатдан ўзгарадиган шароитларни яратади (боксчилар максимал тез ҳаракат қилиб уларга бир зумда жавоб қайтаришлари лозим); нотўғри координация ёки рақиб мавқеидан қўрқиши зарба ўтказиб юборищдан ҳадиксираш. ортиқча ҳаяжонланиш орқали юзага келган ҳаракатлардаги зўриқиши ва сиқилишни енгиб ўтишга ёрдам беради; ўз сезигирлигини (вақт ва рақибгача бўлган масрфага қараб) назорат қилишни ўргатади; спорчиларда реакция қилиши мувофиқлиги тўғрисидаги аниқ тасаввурларни ҳосил қиласди.

Адабиётлар

1. Абдиев А.Н. Яккакураш спорт турларида ихтисослашувчи талабаларда мураббийнинг касбий кўникмаларини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. Автореф. дисс. д-ра пед.наук. -Т.2004. -56с.
2. Турдиев Ф.К. Бокс тренерининг индивидуал дарс олиб бориш жараёнидаги маҳсус малакаларини шакллантириш: Дис. ...канд.пед.наук - Т., 2002. – 132
3. Халмухамедов Р.Д., Шин В.Н.. Каипов Б.У.. Икрамов А.Х. «Построение предсоревновательного этапа подготовки боксеров-юниоров к ответственным соревнованиям». Ташкент, 2006, -49 с.
4. Шин В.Н. Технология планирования подготовки боксеров. Учебное пособие. Ташкент – 2008-95-100 с.
5. Шулика, Ю.А. Бокс. Теория и методика: учебник для общеобразовательных учреждений высшего профессионального образования / Ю.А. Шулика, А.А. Лавров, С.М. Ахметов, В.А. Таймазов. – М.: Советский спорт, 2009. – 767 с.
6. Усмонов, М. К. (2021). Роль индивидуальных занятий на лапах в общий системе подготовки боксёров. Fan-Sportga, (5), 18-21
7. Mansur, U. (2022). Distribution of Training Loads in The Annual Cycle of Training of Highly Qualified Boxers. ASEAN Journal of Physical Education and Sport Science, 1(1), 43-50.
8. Усмонов, М. (2022). ТИПОВЫЕ МЕТОДЫ ДОЗИРОВАНИЯ НАГРУЗОК И ОТДЫХА В РАБОТЕ БОКСЁРОВ НА «ЛАПАХ». Архив научных исследований, 5(5).

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

BAXSHINING BADIHAGO`YLIK MAHORATI

Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o`qtuvchisi

Annotatsiya:

Bu maqola orqali xalq og`zaki ijodining yirik janri bo`lgan dostonlarimizning hozirgi kungacha sayqallanib yetib kelishida Sherobod dostonchilik matabining benazir xizmatini ommaga yetkazish va shu bilan birqalikda bu maktabdan yetishib chiqqan baxshilarimizning mashaqqati benihoya ekanligini ko`rsatishdir.

Kalit so‘zlar:

doston, baxshixhilik, Sherobod dostonchilik maktabi, badihago`y

Badihago`ylik - og`zaki ijod asarlarining shakliy ko`rinishi bilan bog`liq hodisa. Asrlar davomida bizgacha yetib kelgan doston, ertak, qo`shiq, maqol va boshqa asarlar og`zaki tarizda yetkazilgan, og`zaki tarzda avloddan avlodga o`tgan va xalq madaniyatining og`zaki merosiga aylandi. Ko`p yillardan buyon og`zaki ijod na`munalarini o`rganish bo`yicha olib borilgan kuzatuvlar og`zakilikning ijobiy va salbiy jihatlari borligini tasdiqlamoqdadir.

Bizningcha, **og`zakilik** xalq ijodining omma orasiga tarqalishida va keng tus olishida ijobiy ahamiyatga egadir. Chunki, asarlarning bu shaklda ijro etilishi ijrochi zimmasiga ortiqcha mas`uliyat yuklamaydi. Ammo masalaning ikkinchi tomonini ham qayd etmoq lozim, xususan, ayrim ijod namunalari aynan og`zaki tarzda ijro etilganligi uchun ijrochining vafoti bilan asarning hayoti ham to`xtaydi, unutiladi. Ayrim ijod namunalarining shogirdlar tomonidan o`zlashtirilmaganligi yoki olimlar tomonidan yozib olinmaganligi oqibatida vaqt o`tish bilan unitiladi, asar yo`qolib ketadi. Badihago`ylik xalq og`zaki ijodidagi bevosita og`zakilik xususiyatidan kelib chiqadigan belgi.

Badihago`ylik yozma ijodda yo`q, chunki yozma jarayon individual ijod bilan bog`langan. Badihago`ylik esa tinglovchi auditoriyasi bilan bog`langan holda namoyon bo`ladigan xususiyat. Xalq og`zaki ijodidagi askiya janrini badihago`yliksiz tasavvur qilish mumkin emas.

Shuningdek, doston, ertak va boshqa folklor namunalarining ijrosi jarayonida ijrochi asar matniga yo`l-yo`lakay o`zgarish kiritishi, ba`zan yangi lavhalarni o`ylab topishi, ayrimlaridan voz kechishi ham mumkin.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Folklor ekspeditsiyalari jarayonida ba`zi badihago`y shoir-qo`shiqchilar ekspeditsiyaning har bir a`zosiga atab alohida-alohida to`rtliklar to`qiganiga guvoh bo`lganmiz. Aytish mumkinki, doston, ertak, umuman, folklor namunalarining yangi nusxalarini yaratishda ham badihago`ylikning ahamiyati sezilarli.

“Baxshi” so`zining “O`zbek tilining izohli lug`ati”da to`rt xil ma`nosi izoh olgan:

- 1 – donishmand,
- 2 – dostonlarni kuylovchi,
- 3 – dam solib davolovchi tabib,
- 4 – Buxoro xonligida qurilish mablag`ini nazorat qiluvchi.

Yuqoridagi to`rt ma`nodan uchtasi bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli. Chunki xalq orasida baxshi bo`lish uchun inson donishmand, aqli bo`lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta`kidlanadi. Ikkinchidan, "baxshi" xalq dostonlarining ijrochisi. Uchinchidan, ibtidoda baxshi va shomon yagona tizimda qaralgan va so`zning mo`jizaviy magik fazilatidan foydalaniib kishilarni turli xastaliklardan forig` qiluvchi shaxs hisoblangan. O`zbek folklorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning ma`lumot berishicha, baxshi mo`g`ulcha va buryatcha "baxsha", "bag`sha" so`zlaridan olingan bo`lib, "ustod", "ma`rifatchi" ma`nolarida qo`llangan. Baxshi keng ma`noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o`tkazuvchi san`atkor. Doston ijrochilarini Surxon daryo va Qashqadaryoning ayrim hududlarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o`zbeklari orasida soqi, ba`zi joylarda sozanda, Farg`ona vodiysida sannovchi, ba`zi joylarda jirov, jirchi, oqin, oxun deb ham atashagan.

Yetuk baxshilar, badihago`y, epik an`ana doirasida o`zlarining yangi-yangi variantlarini, hatto yangi dostonlarni yarata bilgan ijodkorlarga nisbatan shoir nisbati ham qo`shib aytilgan. Masalan, Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po`lkan shoir, Abdulla shoir kabi. Baxshilar o`z dostonlarini do`mbira, ayrimlari qo`biz yoki dutor jo`rligida, ichki ovozda ijro qilishgan”¹⁹.

Xo`shboq baxshi Mardonau洛ov Surxon vohasining beba ho boyligi bo`lgan doston, terma, ertak va maqollarimizning sayqallanib yashab kelishida benazir xizmat qilmoqda. Bu insonning xalq oldidagi bu beminnat xizmati e`tiborsiz qoldirilmadi.

¹⁹ T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo`rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov .O`ZBEK FOLKLORI (Darslik) Toshkent – 2020. 42-43-betlar.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prizideti I. A. Karimov tomonidan 2013-yil "O`zbekiston xalq baxshisi" unvoni taqdim etildi. Bu ham yurtimizda hech bir qilingan mehnat e`tiborsiz qolmasligidan darakdir.

Baxshi o`z iste`dodi, mahorati sababli o`nlab kitoblar muallifiga aylandi. Uning "O`zbek xalq maqollari" kitobidan o`rin olgan, Xo`shboq baxshi tomonidan yaratilgan ikki maqolida ham ma`no kuchlidir. Ulardan biri: "Och elga, oqsoqol bo`lma", - deb aytilgan. Bunda baxshi umri davomida ko`rgan kechirganlaridan kelib chiqib, xalq hayotiga to`g`ri tushadigan hikmatni dunyoga keltirgan. Chindan ham bundagi badiiy ma`noni teran anglasak, aqlimiz shoshadi. "Och el"- bu majoziy ma`noda ya`ni "ko`zi och insonlar, nafsiga qul insonlar" nazarda tutilgan. Chunki, bundylarning ko`zini (nafsi) tuproq to`ydiradi, boshqa narsa bilan to`ydirib bo`lmaydi. Ular bo`lgan sari yana, yana, yana,- deydigan insonlar hilidandir.

"Oqsoqol"-bu maslahatchi, nasihat qiluvchi ma`nosidadir. Ya`ni, nafsi buzuq insonga qancha nasihat, maslahat qilma foydasi yo`q.

Keyingi ibratli maqoli:

Bulbul ko`rsang, bog`ga bor,
Tojik ko`rsang, tog`ga bor.²⁰

Bu yerda ham baxshining kuchli badiiy mahorati aks etgan desak mubolag`a bo`lmaydi. Chunki, insonni yashaydigan joyi, oilasi, qarindoshlariga qarab kimligini bilish mumkin. Tojiklarning qanday mehnatkash, tinib-tinchimas, ushlaganini uzadigan xalqligini bilish uchun yashaydigan joyiga borish kerak ekanligi aks ettirilgan. Ya`ni, kimni qanday insonligini bilish uchun uyiga borib ko`rish kerakligi nazarda tutilgan.

Xo`shboq baxshi o`zining badihago`ylik mahoratini dostonlarida, termalarida, she`rlarida aks etira olgan serqirra ijodkordir. Bahshi ijodidan o`rin olgan an`anaviy termalardan biri "Qolmadi" termasiga nazar solsak uning ham baxshi mahoratidan benihoya suv ichganini ko`rishimiz mumkin:

Nil daryodan qasir qilgan,
Muso bilan urush qilgan,

²⁰ Mardonau洛ov. X. "O`zbek xalq maqollari" (sharhlari)."Noshirlik yog`dusi". Toshkent. 2019. 24-25-betlar.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Shu daryoga g`arq bo`p o`lgan,
Layin Fira`vin qolmadi.

Bunda inson yomonlik bilan hech narsaga erishmasligi, umri behuda ketishi ko`rsatilgan. Buning uchun tarixiy nomlardan Nil, Muso, Fira`vin kabi insonga ta`siri kuchli ismlardan foydalanilgan.

Maxluqotning tilin bilgan,
Yerning ostin ustin olgan,
Dev, parining dodin bergen,
Taxti Sulaymon qolmadi.

Bu bayt orqali insonning qanchalik mukammal, qo`rqmas, boy bo`lishiga qaramay abadiy yashamasligini, dunyoning foniyligini talqin qilgan. Bunda ham Sulaymon tarixiy shaxs nomidan foydalanib, ruhimizga ta`sir etgan.

Din islomga kofir bo`lgan,
Ibrohimni o`tga solgan,
Yer yuzidan jannat qilgan,
Kofir Nomurd qolmadi.

Bu baytda ham abadiy narsa yo`qligi, barcha narsalar va insonlar bir kun kelib bu dunyoni tark etishi badiiy ifodalar bilan ongimizga singdirilgan. Shoir Payg`ambar Ibrohim, kofir Namurd misolida jonlantirgan.

Yerga tushib mirza bo`ldi,
Bir go`zalni zino qildi,
Al oqibat choxda qoldi,
Xorut-morut ham qolmadi.

Yuqoridaq baytda Alloh harom qilgan ishlarni, biz ham haromligini his qilgan holda qo`l urmasligimiz aytilgan. Zino - bu ollohnning qahrini keltiradigan gunohdir. Bundan yosh avlodni ogoh qilishimiz, bunday gunohga hech qachon, o`tkinchi hoyi-havasni deb , qilmasligini uqtirgan.

To`rt ming yillab umr ko`rgan,
Ollohim boylik bergen,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Kambag`alning haqqin bergen,
Luqmoni hakim qolmadi.

Uzoq umr ko`rgan, tiganmas boylik yig`gan Luqmon ham bu dunyoda boqiy yashamadi. Unga ham dunyo vafo qilmadi. Lekin, o`zidan yaxshi nom qoldirib ketdi. Yaxshilik hech qachon unitilmasligini ko`ramiz.

Siz bandalar ibrat oling,
Kimga qolar ketsa moling,
Go`rga kirsang nadir xoling,
Eslamaydi qizing, uling
Kelganlar bari qolmaydi.²¹

Bu satrlar orqali yuqorida qncha buyuk shaxslar, sahobalar, payg`ambarlar ham abadiy yashamadi. Shundan xulosa chiqarib, biz bandalar yolg`onchi dunyoning nafsidan voz kechib, Alloh uchun yaxshklik yo`lida yashashimiz kerakligi, bir kun hammamiz ketishimiz oolib berilgandir.

Baxshi o`zinning salmoqli ijodida mumtoz adabiyot namunalarini ham benihoya noziklik bilan yarata oldi. Uning "Ko`ngling o`zga bo`lmasin" nomli kitobiga kiritilgan tuyuqlari ham beixtiyor kitobxonni o`ziga tortadi. Tuyuqlardan biri:

Boqqa kirib so`rmasdan omongul,
Bog`bon bo`lsa bog`chasida omongul,
Bu falakning jabri olib ketdilar
Jigarbandim nomi edi Omongul.²²

Bu to`rtlikda "Omongul" so`zi orqali tuyuq hosil qilingan. Endi bu so`zlarning ma`nosini tahlil orqali ko`rsatib o`tamiz.

1-satrda "Boqqa kirib so`rmasdan omongul," -bunda, omongul - bu so`ramasdan gulni olmang, uzmang ma`nosida kelgan. Baxshi baxshilarga xos bo`lgan talaffuz bilan yozgan.

²¹ Mardonauqulov X. Ko`ngling o`zga bo`lmasin. "Nasaf" nashriyoti. Qarshi 2009. 14-15-betlar.

²² Mardonauqulov X. Ko`ngling o`zga bo`lmasin. "Nasaf" nashriyoti. Qarshi 2009. 57-58-betlar.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

2-satrda "Bog`bon bo`lsa bog`chasida omongul,"-bunda esa, omongul- bu omonlik, tiriklik ya`ni bog`boni bor bog` doim barqurib, gullab turishini nazarda tutgan. Gulning tirikligini omonligini ko`rsatib bergen.

3 va 4-satrlarda:

"Bu falakning jabri olib ketdilar
Jigarbandim nomi edi Omongul."

Bunda Omongul ism ma`nosida bizga tushuntiriladi. Dunyo sitamlari sababli olamni tark etgan singlisi nomi ya`ni, ismi ekanligi ko`rinadi. Buni bilish uchun baxshining hayot yo`li bilan tanish bo`lish kerak. Bu yuqoridagi tuyuqdan ham baxshi salohiyati nechog`lik keng qamrovli ekanligini anglashimiz mumkin. Tuyuqni bunday o`zining yuqori cho`qqisiga chiqarib yozish hozirgi vaqtida kamdan kam shoirlarimiz ijodida uchraydi. Demak, Xo`shboq baxshi tug`ma talant, badihago`y dostonchi ekanligini hech, shubhasiz, baralla aytsak bo`ladi.

Umumo`zbek dostonchiligida xalqning ezgu-orzularini ifodalovchi afsonaviy qahramonlar: Go`ro`g`li, uning o`g`illari va keyingi surriyodlari, Alpomishning avlodlari, Rustamxon, Kuntug`mish, Shirin bilan Shakar kabi personajlarning qiziq sarguzashtlari va aqlbovar qilmas qahramonliklari beqiyos ko`tarinki ruhda tasvirlanadi. Shuning bilan bir qatorda ko`plab mashhur tarixiy shaxslar va real odamlar to`g`risida ham dostonlar bitilgan. Sohibqiron Amir Temur, To`xtamishxon, Boyazid, Maxtumquli, Shayboniyxon, Ollonazar- Olchinbek kabilar haqidagi dostonlar shular jumlasidandir.

"Ollonazar-Olchinbek" dostoninig qahramoni Ollonazar-Olchinbek baxshi bo`lgan. Aslida u- hayotda mavjud inson bo`lib, Sherna baxshining amakisi. Bu zotning ajdod-avlodlarida sozanda, juzboshi va baxshilar ko`p. Bu kishining so`zga chechanligi, doston aytishda mohirligi, soz chalishda o`tkirligi Olchinbek haqida rivoyatlar, termalar to`qilishiga asos bo`lgan. U kishi ayni navqiron-yigirma bir yoshida olamdan o`tgan. Shundan keyin rivoyat, termalar baxshilar tomonidan yiriklashtirilib, yaxlitlanib doston shaklini olgan. Bu doston avvallari har xil diniy irim-sirimlar sababli to`liq aytilmagan. Doston, asosan, Mardonaqul baxshi Avliyoqul o`g`li davriga kelib to`liq aytila boshlagan. Chunki, Mardonaqul baxshi har xil irim-sirimlarga ko`p ishonavermas ekan.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Xo`shboq baxshi Mardonaqulov do`mbirani xilma-xil nag`malarda "sayrata olish"da, dostonlar, termalar rivoyatlar, xalq qo`schiqlarini ko`p bilishda va mahorat bilan ijro etishda, badihago`ylik (tayyorgarliksiz, istagan mavzuda terma to`qish) da bugungi barhayot baxshilarning eng iqtidorli, talantlilardan biri. Shu bois uning nodir qobiliyatini, ijodkorligini hamma baxshilar Xo`shboq baxshi ellikka yaqin dostonni biladi va mahorat bilan kuylay oladi "Soqibulbul", "Suv parisi", "Zarnigor", "Sanam Gavhar" kabi "Go`ro`g`li" turkumiga kiruvchi o`nga yaqin an`anaviy doston faqat uning xotirasi, repertuari orqali bizgacha yetib kelgan, alohida ilmiy-badiiy qimmatga ega. Shuning o`zi ham Xo`shboq baxshining tug`ma is`tedod sohibi ekanligini va mahoratli dostonchi ijodkorligini ma`lum qiladi. Baxshi mahorati shundaki, u istalgan vaqt qofiyaga solib, hazl-mutoyibaga boy va xohlasa ko`ngilni jumbushga keltiruvchi dardli termalarni do`mbira jorligida kuylay oladi.

Xo`shboq baxshi bilan bo`lgan bir suhbatimizda: " Men badihago`y baxshi deganda, eng avvalo, dostonlarni yod bilgan va o`z talqini, chechanligi bilan avlodlar ko`ngliga jo qilgan san`atkorni tushunaman. Ular o`zining so`zamolligi, quyma va o`ynoqi satrlari bilan tinglovchini o`ziga jalb etadi. Badihago`ylik Allah tomonidan insonga in`om etiladi. Uni rivojlantirib yuzaga chiqarish har kimning qo`lidadir. Shu o`rinda, shuni aytish kerakki, mening ham uch o`g`lim bor. Lekin, faqat, to`ng`ich o`g`lim Saidmurod baxshi bo`ldi. Unga Allah tomonidan shu iste`dod in`om etildi. Kenja o`g`lim Otabekning bu san`atga qiziqishi yo`q edi. Qarangki, Allah Taoloning amri bilan o`g`li yetti yoshli Shahzodbek baxshichilik san`atiga mehr qo`ymoqda", - deydi. Bu fikrlardan kelib chiqib insonga baxshichilik Allah tomonidan taqdir qilinadi desak mubolag`a bo`lmaydi.

Baxshining mahoratini uning ijod mahsuli bo`lgan bir termasi orqali ham ko`rishimiz mumkin. "Otajonim istaram" termasini o`qir ekansiz, undagi sog`inch, dard, Otaga hurmat, cheksiz ehtirom va shuningdek, Otadan yetim qolgan farzandlar va beva ayol ruhiyatini mahorat bilan ko`ngillarga yetkazgan:

Erta turib ko`zim ochsam diyorga
 Bog`i qolgan bog`bonimni istaram,
 Hech qachon ketmaysiz mening yodimdan
 Guli qolgan bulbulimni istaram.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Bu to`rtlikda falsafiylik ufurib turadi. Otani bog`bon, bulbul- deya atashida ham majoziy ma`no kuchlidir. Farzandlar- bog`ga, Ona esa Gulga o`xshatilgan. Bulbul-deyishining sababi, Otaning baxshi-shoir bo`lib o`tganiga ishoratdir. Bog`bon-deyilishida esa farzandlarni voyaga yetkazuvchi insonga ishora qilingan.

Har yerlarda qoldi yurgan izingiz,
Esimdan chiqmaydi aytgan so`zingiz,
O`rtanadi gulbahorday qizingiz,
Karvon qoldi sarbonimni istaram.

Yoshligimdan a`za tushdi boshimga
Parvo qilmay ketdingiz ko`z yoshimga,
Hech bo`lmasa, bir ko`rining tushimda
Salobatl pahlavonim istaram.

Bu satrlar orqali shoir ichki kechinmalarini ochiq qalamga olgan. Yigirma uch yoshida otadan judo bo`lgan qahramon, ichki sezimlari orqali hali ham o`zining yosh ekanligini, sog`inch tig`i dilni tirlashi, hech bo`lmasa, tushida ko`rgisi kelishini kitobxoniga ta`sirli yetkazgan. Bu yerda ham otani- carbon, pahlavon deb atashida majoziylik kuchli. Negaki, ota-yo`lboshchi va himoyachidir.

Kecha-kunduz suyanch edi boringiz,
Bugun yigit bo`ldi ulug` noringiz,
Xali ham yig`lar bolalaringiz
Boshga soyabon posbonim istaram.

Quyosh kabi bevaqt borib botdingiz,
O`g`il-qizni kimga tashlab ketdingiz,
Kecha-kunduz onamni yig`latdingiz,
Soya solgan soyabonim istaram.

Bu satrlar shoirning ota vafotidan so`nggina o`zini tutib yigit, ya`ni oila boshlig`i bo`lganini (chunki ikki akasi: Qosim va Mamarasul urush davrida 1939-1940-yillarda vafot etgan), lekin, ota dog`i hamon oilani dardmad qilganini qalamga olindi. Otani-posbon, quyosh, soyabon deya bejizga atamaydi. Quyosh insonga zizo, nur taratadi, ota

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

esa oilaga mehr va huzurdir. G`amni aritguvchi, yo`lini to`suvchi posbon, soyabon otadir farzandlari uchun.

Men yig`layman har kuni dilim abgor
 Dunyoda otasi o`limgan kim bor,
 Nasixat qiluvchi ustozlaring bor,
 So`zi qolgan suxandonim istaram.²³

Bu to`rtlikda lirik qahramon ichki tug`yonlarini baralla yoyadi. Chunki, Otasi bor insonlar Otaga ya`ni Ustozga egadirlar. Ular hayot yo`lida qoqilmaydi. Ustoz o`z suxandonligi, nasihatlari bilan yo`limizni sham kabi yoritib turadi. Otani-Ustoz, suxandon deya ulug`laydi.

Biz yuqorida Xo`shboq baxshi ijodining bir zarrasi bilangina tanishdik. Shuning o`zi ham baxshi kamolotini, zehnini va falsafiy dunyoqarashini ochib bera oldi. Baxshining umr yo`li o`zi aytgandek: " Tofon va bo`ronlarga to`la bo`ldi", lekin o`zini yo`qotib qo`ymadi, yashashda davom edi. Ijodini yanada gullatdi.

Mehnat natijalari uchun mas’uliyatli bo‘lish, mehnat ahliga hurmatda bo‘lish - bu davr taqozosi. Mehnatsevar, ishchan insonlar odatda o‘ta mas’uliyatli, intizomli, mehnatning qadriga yetadigan, muloyim, kishilar bilan munosabatlarda madaniyatli, ochiq chehrali bo‘lishlari bilan birga, ular o‘zlarini jamoat joylarida qanday tutishlarini yaxshi biladilar. Odatda, ishchan va ishbilarmon kishilar kamtar, o‘z qadr-qimmatlarini, hurmatini biladigan hamda atrof muhitga mehribonlik ko‘zlar bilan qaraydilar.

Ishlarni tashkil qilish ishtirokchisi tarbiyalanayotgan shaxsnинг muhim sifati: maqsadga intiluvchanligi, mas’uliyatni his qilishi, boshlangan ishni yakuniga yetkazish, intizomga rioya qilishi, bajaruvchanligi. Ishlarni tashkil etishda qatnashish - jamoani birlashtirishning qudratli vositasi ekanligi. Ko‘philik uchun o‘zi tanlagan iqtisodchi kasbi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zining sifatlarini tekshirish, shuningdek, tashkilotchilik imkoniyatlarini bilish, unga amal qilishni rivojlantirishdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Alliyor o‘g’li X. R. GLOBALLASHUV SHAROITIDA HUDUDNING EKSPORT SALOHIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO’NALISHLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 799-803.
2. Alliyor o‘g’li X. R. HUDUDNING EKSPORT SALOHIYATINI STATISTIK TADQIQ QILISH VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) //O’ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 20. – C. 753-755.
3. Bozorov R. K., Esankulov A. E. Practice of analysis of financial stability indicators of major commercial banks in Uzbekistan //International Journal of Advanced Science and Technology. – 2019. – T. 28. – №. 20. – C. 873-880.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

4. G'aybullayevich X. A. Iqtisodiy tarmoqlar rivojlanishida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ahamiyati: Crossref //IQRO. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 68-71.
5. G'aybullayevich X. A. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni tartibga solishning strategik yo 'nalishlari //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 545-548.
6. G'aybullayevich X. A. Bozor munosabatlarining rivojlanish sharoitida hududiy ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni boshqarish //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 294-298.
7. Ismatov S. A., Ortikov S. M. THE POPULATION BANDHINI TAMINES, TURMUS OF REGINE OSHIRILDI HUMILIATION TAGIROVA AND USING UZBEKISTANA CHARACTERISTIC.(FOREIGN EXPERIENCE IN PROVIDING EMPLOYMENT, IMPROVING WELL-BEING AND ITS SPECIFICS FOR UZBEKISTAN) //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – C. 521-526.
8. Khatamov O. K., Ortikov S. M. USE FROM THE INTERNATIONAL EXPERIENCES IN EMPLOYMENT THE POPULATION IN UZBEKISTAN //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – C. 364-371.
9. Khidirberdievich A. E., Mamadillayevich Z. S. Issues of Regulation of Blockchains in the Digital Economy and World Experience in Reducing, Preventing the " Hidden Economy" //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – T. 8. – №. 7. – C. 591-597.
10. Mukhammadiyevich O. S. EXPERIENCES IN THE STUDY AND ANALYSIS OF POPULATION EMPLOYMENT IN FOREIGN COUNTRIES //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2023. – T. 10. – №. 12.
11. Muhammadiyevich O. S. MAIN PROBLEMS OF POPULATION EMPLOYMENT AND WAYS TO SOLVE THEM //American Journal of Science on Integration and Human Development. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 10-13.
12. Ortikov S. M. EXPERIENCE IN STATISTICAL STUDY AND ANALYSIS OF EMPLOYMENT IN FOREIGN COUNTRIES //Thematics Journal of Business Management. – 2021. – T. 10. – №. 7.
13. Sobitova R. S. LOCALIZATION OF PRODUCTION AS A TOOL OF MODERNIZATION //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 10. – C. 407-411.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

14. Sobitova R. S. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF LOCALIZATION OF INDUSTRIAL PRODUCTION //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 10. – C. 401-406.
15. Solijonovna S. R. N. et al. О ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SANOAT SIYOSATI: ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH IMPORTNI KAMAYTIRISH OMILI SIFATIDA //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 276-281.
16. Solijonovna S. R. Export-oriented localization as a key factor in import substitution //World Bulletin of Social Sciences. – 2021. – T. 5. – C. 36-39.
17. Solijonovna S. R. Import Replacement-As an Assistant Mechanism for Diversification of Production and Approval of Foreign Trade. – 2023.
18. Собитова Р. С. ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШ–САНОАТ СИЁСАТИНИНГ НЕГИЗИДИР //МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ. – 2020. – С. 571-574.
19. Собитова Р. С., Ёрматов Ш. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида саноатни диверсификациялаш //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2012. – №. 11. – С. 30-36.
20. Хатамов О., Ортиков Ш. Аҳоли бандлигини таъминлаш моделлари ва ундан Ўзбекистон шароитида фойдаланиш имкониятлари //Экономика и инновационные технологии. – 2019. – №. 4. – С. 48-59.
21. Xatamov O. Q., Ortiqov S. M. Models of employment of the population and opportunities for its use in the conditions of Uzbekistan //Economics and Innovative Technologies. – 2019. – T. 2019. – №. 4. – C. 8.
22. Xudoyberdievich X. E. QISHLOQ XO’JALIGIDAGI ASOSIY VOSITALARNI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING IQTISODIY JARAYONLARI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 1093-1096.
23. Xudoyberdievich X. E. QISHLOQ XO’JALIGIDA IQTISODIY KONTSENTRATSİYANING ROLI //IJODKOR O’QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 29. – C. 466-470.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

24. Xudoyberdiyevich X. E. Qishloq xo'jaligida investitsiya va uning samaradorligini oshirish //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 622-627.
25. Xurramov E. TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2021. – Т. 2. – №. 5.
26. Khurrama E. X. ЭФФЕКТИВНОЕ УВЕЛИЧЕНИЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА НА ЗЕМЛЯХ ЛЕСНОГО ФОНДА //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 7. – С. 5-9.
27. Khurramov E. X. ROLE OF INNOVATION IN INCREASING EFFICIENCY OF PRODUCTION OF AGRICULTURAL PRODUCTS IN FORESTRY //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 10. – С. 518-521.
28. Хўжагелдиев Ч., Хайтмуродов А. Ер унумдорлигини оширишни рафбатлантириш бўйича жаҳон тажрибаси ва ундан ўзбекистонда фойдаланиш имкониятлари //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2012. – №. 7. – С. 45-49.
29. Ziyodullayev S. M. TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING RENTABELLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS". – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 91-100.
30. Ziyodullaev S. M. DESCRIPTIVE INDICATORS OF THE LEVEL OF INCOME OF BANKS' ASSETS // "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2023. – С. 229-233.
31. Ziyodullaev S. M. COMMERCIAL BANKING INVESTMENT ATTRACTIVE LEGISLATION NORMATIVE-LEGAL BASIS //INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 10-17.
32. Зиёдуллаев С. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ АКТИВЛАРИ РЕНТАБЕЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a17 //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – Т. 23. – №. 5. – С. 107-111.

ABU RAYHON BERUNIYNING ILMIY QARASHLARI.

Aminov Rahmatjon Iskandar o'g'li

Berdaq nomidagi QMU magistranti.

Annotatsiya: “Abu Rayhon Beruniyning ilmiy qarashlari” maqolasida o‘rta asrlarning atoqli olimining dunyoqarashi taqriz va tahlilidir. Abu Rayhon Beruniy astronomiya, matematika, falsafa, tarix va boshqa fanlar sohasida faoliyat yuritgan mashhur olim edi. Maqolada uning tarixni fan sifatida o‘rganishga bo‘lgan yondoshuvi, uslubining asosiy tamoyillari, tarixshunoslik rivojiga qo‘sghan hissasi yoritilgan. Muallif Beruniy ijodini tahlil qilib, uning o‘tmishdagi tadqiqotlarni chuqur bilishini ko‘rsatib, yondashuvining asosliligi va ilmiy jiddiyligini ta’kidlaydi. Maqolaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, Abu Rayhon Beruniyning tarix faniga oid ilmiy qarashlari o‘tmishni o‘rganishga ilmiy yondashuvni rivojlantirishga katta hissa qo‘sghan. Uning manbalarni tanqidiy tahlil qilishga, turli nuqtai nazarlarni qiyosiy o‘rganishga va xolislikka intilishga asoslangan uslubi keyingi ko‘plab tarixchi va olimlarga o‘rnak bo‘ldi. Maqolada Beruniyning asosiy asarlari va g‘oyalari ko‘rib chiqilib, ularning zamonaviy sharoitda dolzarbligi va ahamiyati ta’kidlangan. Demak, unda olimning nafaqat tarjimai holi, erishgan yutuqlari, balki ilmiy tafakkur rivojiga ta’siri va tarixiy tahlil usullari ham qamrab olingan.

Kalit so‘zlar: Abu Rayxon Beruniy, Xorazm, Hindiston, (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, tarix, geografiya, falsafa, O‘rta Osiyo, an’ana va urf-odatlар).

Abu Rayhon Beruniy XI asrda yashab o‘tgan O‘rta Osiyoning atoqli olim va mutafakkiri. U turli xalqlar va madaniyatlarni, jumladan, O‘rta Osiyo xalqlari tarixini o‘rgangan, uning asarlari bu xalqlarning an’ana va urf-odatlari haqida qimmatli ma’lumot manbai hisoblanadi. Beruniy o‘zining “Hind xalqlari kitobi” asarida turli hind qabilalari haqida ta’rif berib, bu xalqlarning madaniyati, dini, urf-odatlari, turmush tarzi haqida ma’lumotlar beradi. Afg‘oniston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari tarixini ham o‘rgandi, bu esa ushbu mintaqaga tarixining keng ko‘lamini yaratish imkonini berdi. Uning nasl-nasabida «berun» so‘zi “tashqi shahar”, “Beruniy” esa “tashqi shaharda yashovchi kishi” ma’nosini bildiradi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Beruniyning ilm-fanga qiziqishi yoshligidanoq kuchli bo‘lgan. Mashhur olim Abu Nasr ibn Iroq Mansur qo‘lida ta’lim oladi. Ibn Iroq falakiyot va riyoziyotga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag‘ishlaydi. Beruniy ham ustozining ismini hamma vaqt zo‘r hurmat bilan tilga oladi[1].

Beruniy nafaqat Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi va etnografiyasi, balki ularning ilmiy yutuqlari, jumladan madaniy yutuqlari bilan ham qiziqdi. U birinchilardan bo‘lib islom ilmi va falsafasini faol o‘rganib, bu sohalar rivojiga hissa qo‘shgan.

Beruniy “Al-osor al-boqiya an al-qurun al-holiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda tamomlagan. Beruniy uni yozishga juda katta tayyorgarlik ko‘rdi. Qunt va matonat bilan turli xalqlar tarixi, madaniyati va tillarini o‘rgandi. Ilm-fanga oid asarlar juda kam nusxada va qo‘lyozma shaklida ayrim shaxslar qo‘lida saqlangan bir davrda yosh olim fanning turli sohalarini bu qadar egallab olishi, uning nihoyatda iste’dodli ekanini ko‘rsatadi[1].

Beruniyning G‘aznadagi davri uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo‘ldi. G‘urbatda hayot kechirgan olim o‘zining barcha vaqtini ilmiy-tadqiqot ishlariga sarf etdi. Beruniyning “Xorazmning mashhur kishilari” asari ham shu davrda yaratilgan.

Beruniyning mashhur “Hindiston” asari — “Tahqiq mo lil-Hind min ma’qula maqbula filaql av marzula” (“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi”) 1030 yilda yozilgan. Bu asar G‘arb va Sharq olimlari tomonidan yuksak baholangan. Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlarida Beruniy shohga hamroh bo‘lgan. Garchi olimning Hindistonda qachon va qanday yashagani aniq bo‘lmaseda, Xorazmdan olib ketilgandan keyin bir oz vaqt Hindistonning shimolidagi Nandna qal’asida yashagani ma’lum. Hindistonda sanskrit tilini puxta o‘rganish uning hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o‘sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishiga hamda bu mamlakat haqida o‘lmas asar yaratishga imkon berdi. “Hindiston” hajmi jihatidan juda katta asar. Unda hind adabiyoti, falsafasi, aniq fanlar, geografiya, elshunoslik, qonun va urf-odatlar, falsafa, din, tarixiy-diniy rivoyatlar, hind yozuvining turlari haqida ma’lumotlar bor. Hoz. zamon Hindiston olimlari Beruniyning bu asarini hind madaniyati tarixini yoritish nuqtai nazaridan juda yuqori baholaydilar va muhim manbalardan biri deb hisoblaydilar. Ularning

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ta'kidlashicha, Beruniy o'z asarida bizgacha yetib kelmagan sanskritda yozilgan ko'pgina manbalardan foydalangan[2].

Beruniy astronomiyaga oid "Al-Qonun al-Mas'udiy" ("Mas'ud qonuni") asarini sulton Mas'udga bag'ishladi. Kitobning qachon yozib tugatilgani aniq emas. Bu asar Beruniyning falakiyotga doir eng muhim asaridir. O'rta asr olimlari bu asarni juda yuksak baholaganlar[4].

Beruniy fanning hamma sohalarida samarali ijod qilgan edi. Uning ilmiy merosi juda keng va rang-barang. Beruniyning ilmiy ish sohasidagi zo'r qobiliyati uning ko'pchilik zamondoshlari va keyingi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. 1035—36 yillarda Beruniy o'z ilmiy ishlarining ro'yxatini tuzadi. Bunda shu vaqtgacha yozgan kitob va risolalari 113 taga yetgani ko'rsatilgan. Keyingi yozgan asarlarini ham qo'shsak, u qoldirgan ilmiy meros 152 kitob va risoladan iborat. Uning asarlarini mavzu jihatdan turli tuman. Ko'pchilik asarlar o'z zamonasida o'ziga xos bir ensiklopediya hisoblangan. Asarlarining 70 tasi falakiyot, 20 tasi riyoziyot, 12 tasi geografiya va geodeziya, 3 tasi ma'danshunoslik, 4 tasi xaritografiya, 3 tasi iqlimshunoslik, biri fizika, biri dorishunoslik, 15 tasi tarix va elshunoslik, 4 tasi falsafa, 18 tasi adabiyot va Beruniy fanlarga oiddir. Beruniy turli tillardan bir qancha ilmiy va adabiy asarlarni tarjima ham qilgan. Afsuski, hozircha olimning faqat 28 asaragina ma'lum. Qolganlari bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilganicha yo'q. Beruniy ijodini o'rganish, uning asarlarini nashr etish, boshqa tillarga tarjima qilish ishlari o'tgan asr oxirlaridan boshlandi. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Geodeziya", "Mineralogiya", "Mas'ud qonuni", "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar" va Beruniy asarlarining matni nashr etildi, turli tillarga tarjima qilindi. Tanlangan asarlar rus va o'zbek tillarida chop etildi[5:79].

"Al Qonun al Mas'udiy" asarida yassi va sferik trigonometriyani bayon qilgan. Geografiya, geodeziya va geologiya fanlari sohasida ham Beruniyning qushgan hissasi beqiyos. Tasviriy geografiya sohasida Beruniy geografik adabiyotda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni umumlashtirib o'ziga zamondosh bo'lgan sayyoh va savdogarlar to'plagan ma'lumotlar bilan uni yanada boyitadi. Olim qoldirgan geografik ma'lumotlarning ko'pchiligi u yoki bu geografik masalalarni yoritishda Sharq adabiyotida birinchi manba hisoblanadi[8:266].

Beruniyning o'sha vaqtida uncha ma'lum bo'lmagan shimoliy o'lkalar, Boltiq va Oq dengiz haqidagi ma'lumotlari, Sibirning "bizda yoz bo'lganda, u yerda qish

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

bo‘ladigan” joylari haqida xabarlari ayniqsa qiziqarli. Beruniy Xitoy va Tibetga tutash o‘lkalarni ham o‘zidan oldingi olimlarga nisbatan to‘la va aniq tasvirlagan. Ptolemeyga qarama-qarshi Atlantika va Hind okeanlarining janubiy tomoni bir-biriga tutashganligini isbotlab bergen. U Osiyo va Afrika qit’alari orasida bir vaqtlar bo‘g‘oz bo‘lgan va Yer sharining janubiy tomoni quruqlik bo‘lgan deb taxmin qiladi. U goldirgan noyob ma’lumotlar sharq geografik adabiyotida muhim rol o‘ynagan[3].

Tarixda Amerika qit’asini 1492 yili oktyabr oyida dengiz sayyohi Xristofor Kolumb kashf etganligi qayd qilingan. Ammo bu borada Beruniyning ilmiy farazi mavjudligi ham ma’lum. Olim o‘zining “Hindiston” asarida yer yuzasining tuzilishi, dengiz va quruqlik to‘g‘risida gapirib, “...Yerning choragi ma’muradir. Ma’murani g‘arb va sharq tomondan Muhit okeani (Atlantika va Tinch okean) o‘rab turibdi. Bu Muhit okeani, yerning obod qismini dengizlarning narigi tomonida bo‘lishi mumkin bo‘lgan quruqdik yoki odam yashaydigan orollardan ikkala yoqdan (g‘arbdan va sharqdan) ajratib turadi...” deb yozgan. Shunday fikrni “Al-qonun al-Mas’udiy” asarida ham uqtiradi. Demak, g‘arbiy yarim sharda yaxlit bir quruqlikning, keyinchalik Amerika deb nomlangan qit’aning mavjudligini Beruniy yevropalik olimlardan 450 yilgacha oldin taxmin qilib, o‘z asarlarida bir necha bor yozgan. Beruniyning g‘arbiy yarim sharda katta quruqlik borligi to‘g‘risidagi fikri 15—16-asrlarda o‘z tasdigini topdi.

Hindistonning sobiq bosh vaziri Javaharla’l Neru “Hindistonning kashf etilishi” asarida èzadiki: “Beruniy yunon falsafasini o‘rganib, hind falsafasini mutolaa qilish uchun sanskrit tilini o‘rgana boshladi. Beruniy hind va yunon falsafasini bir-biriga solishtirib. bularda mavjud bo‘lgan umumiylilikni ko‘rib, hayratda qoldi. Beruniyning kitobi daliliy materiallarni qamrab olish bilan birga, u urush, talon-toroj, ommaviy qirg‘inlar bo‘lishiga qaramay, fan ahllari o‘z ishlarini davom ettirganliklarini ko‘rsatib beradi. Ikki orani nafrat va xudbinlik kayfiyatları buzib turgan paytlarda ham Beruniy begona odam bo‘la turib, bu o‘lka kishilari ahvolini tushuntirishga harakat qiladi”[7:246-247].

Rus sharqshunosi akademik I.Yu.Krachkovskiy ulug‘ olimning “Hindiston» asarini mutolaa qilar ekan, uning yunon tilini bilganligi shubhasizligini, keyingi yillardagi tekshirishlar buni ijobiy hal qilishga asoslar bergenligini ko‘rsatib o‘tgan edi. I.Yu.Krachkovskiy M. Meyerxofga tayanib, uni Beruniy “sanskrit, grek, ibroni, surèniy tillarda o‘kib, o‘ziga kerakli narsalarni arab harfi bilan èza olganini qayd qilgan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

edi. “Hindiston”da keltirilgan iqtiboslar bu fikrning to‘g‘riligini ko‘rsatadi, chunki Gomerning “Iliada”sining to‘la tarjimasi u mahallarda arab tilida mavjud bo‘lmagan[6:406].

Uning Amudaryo vodiysining geologik o‘tmishi va Orol dengizining paydo bo‘lishi haqidagi xulosalari o‘sha zamonning eng muvaffaqiyatli geologik tahlillaridan biri hisoblanadi. Olim “Dengizlar quruqlikka, qurukliklar esa dengizga aylanadi” degan nazariyaga suyanadi.

Beruniy Markaziy Osiyo va umuman Yaqin Sharqda birinchi ilmiy globuslardan birini bunyod etgan edi. Bu globusda aholi yashaydigan joylar aniq ko‘rsatilgan va buning yordamida ularning geografik koordinatalarini aniqlash mumkin bo‘lgan.

Beruniy ijtimoiy nazariyalar sohasida ham samarali ijod etdi, bu sohalar rivojiga hissa qo‘shti. Uning kupgina asarlari o‘z mohiyati bilan tabiiy fanlarning sohalari bo‘yicha ham, shuningdek o‘sha zamonlarda yashab o‘tgan xalqlarning ijtimoiy, xo‘jalik va siyosiy hayoti sohasida ham butun bir ensiklopediya bulib xizmat qilgan. Beruniy o‘zining “Kitob fi axborot ilmubayyizot valqaromita” (“Oq kiyimliklar va qarmatiylar xabarları haqida kitob”) asarini O‘rta Osiyoda o‘sha davrda eng ilg‘or ijtimoiy harakatlardan biri bo‘lgan qarmatiylarga bag‘ishlagan. Keyinroq “Yodgorliklar”, “Hindiston” kitoblarini yozgan.

“Yodgorliklar” (“Alosor alboqiya”) podshohlar va mashhur shaxslarning tarixini yorituvchi va o‘sha davrning madaniyatini aks ettiruvchi tarixiy etnografik asardir. Asarning qimmati shundaki, u islomgacha bo‘lgan (Xorazmda) butun bir davrni ochish imkoniyatini tug‘dirdi. Bu kitobda yunonlar, rimlik, eroniy, sug‘diy, xorazmlik, harroniy (yulduzga sig‘inuvchilar), qibtiy, xristian, yahudiylar, islomgacha bo‘lgan arablarning yil hisoblari, turli bayram va mashhur kunlari mufassal tasvirlangan, unda ko‘p xalqlarning ma’naviy hayoti va tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar bor[5:79-80].

Uning maxsus tabiatshunoslik masalalariga bag‘ishlangan kitoblari ham ijtimoiy fanlarning ko‘pgina sohalarini o‘ziga qamrab oladi. Bu xususda uning “Geodeziya”, “Mineralogiya” va Beruniy asarlarida tarix, adabiyot, tilshunoslik kabi sohalarga oid qimmatli ma’lumotlar jamlangan. Masalan, “Mineralogiya»da har bir qimmatbaho tosh yoki metallni tavsiflash jarayonida arab mumtoz shoirlarining o‘sha tosh yoki metall haqida yozgan she’rlaridan namunalar keltirilgan. Olim tarixni bayon qilishda diniy, irqiy farqlardan qat‘i nazar, xolisona turish kerak, deb talab qiladi. Qiyosiy tahlil qilish metodidan keng foydalangan. Masalan, u hind ilmi va falsafasi, hindlarning diniy

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

e'tiqodlari va urf-odatlari haqidagi ma'lumotlarni yunon falsafasi va mifologiyasi bilan solishtiradi.

Bilish nazariyasi xususida ham o'ziga xos fiqolarini bor. Uning fikricha, bilishning asosi, bizning dunyo haqidagi bilimlarimiz manbai bo'lmish sezgi a'zolari orqali olingan bilimlardir. Umuman, ilmiy bilimlar haqida gapirar ekan, bu—aql idrok tufayli erishilgan yutuqdir, deydi. Olim bu sohada tajribaning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. U birinchilardan bo'lib, Aristotelning fan sohasidagi xizmatiga yuksak baho berish bilan birga tanqidiy fiqolar ham bildirgan. Beruniy Aristotelning "tabiiy joy", "dunyoning yagonaligi", "ogirlik va yengillik" kabi tushunchalarini tanqid qiladi. Aristotelning "og'ir" va "yengil" degan tushunchasidan farqli ravishda Beruniy Ibn Sinoga yozgan "E'tirozlar"ida hamma narsalarning yer markazi tomon tortilishi haqidagi fikrni olg'a suradi. Bu, tortilish kuchi haqidagi nazariyani ishlab chiqish yo'lida qo'yilgan muhim qadam edi.

Beruniy ijtimoiy hodisalarini tushuntirishda geografik muhit, kishilarining moddiy ehtiyoji kabi omillar ahamiyatini hisobga oldi. Uning fikricha, tilning kelib chiqishiga odamlarning bir-biri bilan muomala qilishdagi ehtiyojlari, turlin fanlarning paydo bo'lishiga esa ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari sabab bo'lgan. Beruniy hokimiyatni nasldan naslga o'tib turish qonun qoidasini umuman tan olsa ham, u yoki bu davlat arbobining hokimiyatni boshqarishga yaroqliligi uning davlatga rahbarlik qilishdagi qobiliyatiga bog'liq, deydi. Beruniy ilm fanning buyuk homisi va muxlisi edi. Mamlakatning obodonchiligi ilm fanning gullashiga bog'liq, odamning baxti esa uning bilim va ma'rifikatida, deb yozadi. U ma'rifikat dushmanlariga, yomon urf-odatlarga, adolatsizlikka qarshi edi.

O'rta asrlarning buyuk olimi Abu Rayhon Beruniy nafaqat ilm-fanning turli sohalaridagi kashfiyotlari, balki ilmiy qiziqishlarining asosini tashkil etgan ta'limoti bilan ham mashhur bo'lgan. Turli xil bilim sohalarida keng ma'lumot olgan Beruniy ko'plab tillarni biladigan poliglot olimga aylandi, bu unga turli madaniy sohalardagi turli xil bilim manbalaridan foydalanish imkoniyatini berdi. Uning ilmiy qiziqishlari ko'p qirrali yedi: astronomiya, matematika, fizika, kimyo, geografiya, falsafa va boshqalar. Beruniy turli madaniyat va dinlarni o'rganishga alohida e'tibor berib, ko'plab asarlarini bag'ishlagan. Uning keng ilmiy qiziqishlari va keng dunyoqarashi uni o'z davrining yeng ko'zga ko'ringan olimlaridan biriga aylantirdi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Abu Rayxon Beruniy Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ulkan iz qoldirgan buyuk olim, faylasuf va tarixchi olimdir. Uning asarlari O'rta Osiyo mintaqasi xalqlari madaniyati, tarixi, geografiyasi va ilm-fanining turli jahbalarini o'rganishga bag'ishlangan.

Beruniyning xalqlarning urf-odatlari, tili va diniga mansub keng qamrovli tadqiqotlar olib borishi unga Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatiga oid qimmatli asarlar yaratish imkonini berdi. U mifologiya, astronomiya, matematika, tibbiyot va shu hududdagi qadimgi xalqlarning boshqa bilim sohalarini o'rgangan.

Bundan tashqari, Beruniy turli xalqlar madaniyati va dinlarini qiyosiy tahlil qilgan birinchi olimlardan biri bo'lib, Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini zamonaviy tadqiq qilish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning ijodi turli mavzularni qamrab olgan bo'lsa-da, uning ijodida bu mintaqqa xalqlari tarixi alohida muhim o'rinni tutadi.

Beruniy o'z asarlarida O'rta Osyoning turli madaniyatlari, xalqlari va davlatlarini tadqiq qiladi. U mavjud tarixiy manbalarga tayangan holda bu hududning o'tmishini sinchiklab o'rganadi. Beruniy O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, urf-odatlari, diniy ma'lumotlari bilan chuqur qiziqadi va bu bilimlarni o'z asarlarida yetkazishga harakat qiladi.

Beruniy Markaziy Osiyodagi turli sivilizatsiyalarning tarixiy rivojlanishi va o'zaro ta'siriga alohida e'tibor beradi. U hudud turli imperiya va davlatlar tarkibida bo'lgan davrlarni, masalan, Makedoniyalik Iskandar imperiyasi va Turk xoqonligi davrlarini ko'rib chiqadi. Beruniy ularning mahalliy aholi va madaniyatga ta'sirini tahlil qiladi.

Beruniy shu bilan birga O'rta Osiyodagi ismolitiylar, sunniylik, shialik va boshqa musulmon oqimlariga ham e'tibor qaratadi. U ularning tarixi va e'tiqodlarini, shuningdek, boshqa dinlar va falsafalar bilan o'zaro munosabatlarini o'rganadi.

Abu Rayhon Beruniy O'rta asrlarning atoqli olimi va faylasufi bo'lib, uning fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi ulkan bo'lgan. U matematika, astronomiya, fizika, astrologiya, algebra, geografiya, tarix va filologiyani faol o'rgangan. Beruniy birinchi bo'lib geografiya va yetnografiya sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan va uning asarlari Yevropa ilm-faniga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, u ilmiy asarlarni yunon va Sanskrit tillaridan Arab tiliga tarjima qilish orqali madaniy rivojlanishga hissa qo'shdi, bu yesa turli madaniyatlar o'rtasida bilim va g'oyalarni

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

tarqatishga hissa qo'shdi. Shunday qilib, Abu Rayhon Beruniyning ijodi o'z davrining ilmiy va madaniy yo'nalişlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

Shunday qilib, Abu Rayxon Beruniy ijodi bizga Markaziy Osiyo xalqlari tarixining noyob manzarasini ochadi. Bu bizga ushbu mintaqaning jahon tarixidagi ahamiyatini tushunish va qadrlash imkonini beradi, shuningdek, dunyoning ushbu qismining madaniyati va urf-odatlari haqidagi tushunchamizni boyitadi. Uning asarlari bilan biz o'tmishdagi voqealarни chuqurroq anglab, tahlil qilishimiz mumkin, bu esa, o'z navbatida, Markaziy Osiyo xalqlarining buguni va kelajagini yaxshiroq tushunish va shakllantirishga yordam beradi.

Demak, Abu Rayxon Beruniy ijodi O'rta Osiyo xalqlari, ularning bu mintaqada madaniyat va ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi haqida qimmatli ma'lumot manbai hisoblanadi. Uning asarlari hamon tadqiqotchilarning o'rganish ob'ekti, ulug'verligi va zakovati yodgorligi hisoblanadi.

Umuman olganda, Abu Rayhon Beruniy ijodi O'rta Osiyo xalqlari va ularning tarixi haqida muhim ma'lumot manbai bo'lib, uning asarlari mintaqaning zamonaviy tadqiqotchilari uchun qimmatli manba bo'lib qolmoqda.

Abu Rayhon Beruniy ijodining merosi va ta'siri zamonaviylikka sezilarli ta'sir ko'rsatdi. U o'z asarlarida astronomiya, matematika, geografiya, filologiya va falsafa kabi ko'plab bilim sohalariga to'xtalib o'tgan. Uning matematika va astronomiyadagi faoliyati ushbu fanlarning rivojlanishi uchun asos bo'lgan. Beruniy bugungi kunda katta ahamiyatga ega bo'lgan Islom madaniyati va mafkurasini o'rganishga ham ulkan hissa qo'shgan. Uning turli fanlarni o'rganishdagi usullari va yondashuvlari dolzarb bo'lib qolmoqda va butun dunyo olimlarini ilhomlantiradi. Uning asarlarining dolzarbliyi zamonaviy ilm-fan va ijod uchun chuqur va har tomonlama bilimlarning muhimligini ta'kidlaydi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

FOYDALANILGAN ADOBIYOTLAR:

1. Eloktron resurs: <http://forum.oyina.uz/kiril/generation/44>
2. Eloktron resurs: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/4-sentyabr-buyuk-qomusiy-olim-abu-rayhon-beruniy-tavalludiga-1040-yil-toladi.html>
3. Eloktron resurs: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/beruniy-uz/>
4. Eloktron resurs: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/abu-rayhon-beruniy-973-1048/>
5. Бешимов М. Ўрта аср шарқининг дахоси. TAFAKKUR VA TALQIN Magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalar to'plami. Buxora 2019. – B. 79-80.
6. Бўриев О, Искандаров Ш, Хўжарёв А. Абу Райҳон Берунийнинг "Хиндистон" асари ноёб этнографик манба сифатида. Republican Scientific and Practical Conference. – B.399-411.
7. Неру Дж. Открытие Индии. – М., 1955. – С.650.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-том. Тошкент 2001. – Б.266

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY MATBUOTNING SHAKLLANISH TARIXI

*Guliston davlat universiteti
Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix yo'nalishi talabasi
Durdimurodova Dilnoza Umidjonovna*

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonda 1991-yilda mustaqillikka erishganidan keyin milliy matbuotning shakllanish tarixini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mamlakat media tizimini o'zgartirishning asosiy bosqichlari, mustaqil nashrlarni yaratish, ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonun hujjatlarini qabul qilish, xususiy tele- va radio kompaniyalarning paydo bo'lishi ko'rib chiqiladi. So'z erkinligi va fikrlarning plyuralizmini ta'minlash sohasidagi tendensiyalar va muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy matbuot, O'zbekiston, mustaqil ommaviy axborot vositalari, so'z erkinligi.

KIRISH

Sovet Ittifoqi qulaganidan va 1991-yilda mustaqillikka erishganidan so'ng, O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimlarni tizimli ravishda o'zgartirish yo'lliga o'tdi. Islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri ommaviy axborot vositalari sohasini liberalallashtirish va demokratlashtirish bo'lib, fikrlar plyuralizmi va so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan [1].

Mustaqillikning dastlabki yillarda mamlakatda ko'plab nodavlat bosma ommaviy axborot vositalari paydo bo'ldi. Biroq, keyinchalik media tizimini demokratlashtirish jarayoni sekinlashdi. Mustaqil jurnalistlar iqtisodiy bosimdan tortib jinoiy javobgarlikka qadar bir qator muammolarga duch kelishdi. Ushbu tadqiqotning dolzarbliji mustaqil davlat rivojlanishining turli bosqichlarida O'zbekiston milliy matbuotining shakllanish jarayonini kompleks tahlil qilish zarurati bilan bog'liq.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHЛИLI

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Ushbu tadqiqot O'zbekistonning yetakchi matbuot davriy nashrlarining kontent tahlili, shuningdek, media hamjamiyat vakillari bilan ekspert suhbatlariga asoslanadi [2].

Bir qator mualliflar O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani tahlil qilganlar [3]. Boshqa tadqiqotchilar milliy media faoliyatining alohida jihatlariga e'tibor qaratdilar: iqtisodiy omillar [4], siyosiy ta'sir [5], yangi media va boshqalar.

Biroq, mustaqillikka erishgandan beri milliy matbuot rivojlanishining barcha bosqichlarini qamrab olgan keng qamrovli tadqiqotlar hali o'tkazilmagan. Ushbu maqola shu kabi bo'shliqni to'ldirish uchun mo'ljallangan.

NATIJALAR

O'zbekiston milliy matbuotining shakllanish jarayoni tahlili bir necha asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatishga imkon berdi:

1. 1991-1995-yillar nodavlat media sektorining shakllanishi. Birinchi mustaqil nashrlar paydo bo'ladi: "Hurriyat", "Erk" gazetalari, "Oila va jamiyat" va boshqa jurnallari. Ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonunlar qabul qilinadi [7].

2. 1996-2000-yillar-ommaviy axborot vositalari ustidan davlat nazoratini kuchaytirish. Bir qator muxolifat nashrlarining yopilishi, jurnalistlarni jinoiy javobgarlikka tortish. Nodavlat ommaviy axborot vositalari sonining kamayishi [8].

3. 2001-2016-yillar media bozorini markazlashtirish va monopollashtirish. Yetakchi ommaviy axborot vositalarini birlashtirgan "O'zbekiston Milliy axborot agentligi" xoldingini tashkil etish [9].

4. 2016-yildan hozirgi kungacha media shakllarining yangi bosqichi. Qonunchilikni liberallashtirish, onlayn jurnalistikaning rivojlanishi, nodavlat ommaviy axborot vositalarining bosqichma-bosqich o'sishi [10].

TAHLIL

O'zbekistonda mustaqil milliy matbuotning shakllanishi qiyin kechdi. SSSR parchalanib, 1991-yilda mustaqillikka erishgandan so'ng, mamlakat davlatning umumiy nazorati ostida sovet ommaviy axborot vositalarini meros qilib oldi [1]. O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov media sohasini liberallashtirishga harakat qildi, so'z erkinligini kafolatlovchi qonunlar qabul qilindi [2].

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Biroq, amalda, rasmiylar ommaviy axborot vositalarini qattiq nazorat qilib, fikrlarning plyuralizmiga yo'l qo'ymadilar. Mustaqil jurnalistlar va huquq himoyachilari O'zbekistonda matbuotning zulmini bir necha bor tanqid qilishgan [3].

2016-yilda hokimiyat o'zgarganidan so'ng, yangi prezident Mirziyoyev media sohasini demokratlashtirish va liberallashtirish yo'lini e'lon qildi. Ilgari siyosiy sabablarga ko'ra sudlangan ba'zi jurnalistlar ozod qilindi [4]. Biroq, xalqaro inson huquqlari tashkilotlari O'zbekistonda jurnalistlarni ta'qib qilish holatlarini qayd etishda davom etmoqda [5].

Yuqorida keltirilgan qisqacha sharhdan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston milliy matbuoti o'z rivojlanishida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi, jumladan, 1990-yillarning boshlarida mustaqil ommaviy axborot vositalarining xilma-xilligi shakllanishidan tortib, davlat nazoratini kuchaytirish va media bozorini liberallashtirishga qaratilgan keyingi urinishlargacha davrlarni boshdan kechirdi.

Dastlabki bosqichda mustaqil nashrlar jamiyatning demokratik o'zgarishi jarayonlarini yoritishda muhim rol o'ynadi, ammo asta-sekin iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi bir qator cheklovлага duch keldi.

So'nggi yillarda vaziyat biroz yaxshilanganiga qaramay, O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida so'z erkinligi va fikrlarning plyuralizmini ta'minlash muammosi ochiqligicha qolmoqda. Xalqaro inson huquqlari tashkilotlarining hisobotlariga ko'ra, mustaqil jurnalistlar o'z faoliyatida hali ham to'siqlarga duch kelishmoqda [11].

Xususan, ekspertlar ijtimoiy-siyosiy mavzularni yoritishda cheklov va o'z-o'zini senzurani saqlab qolish, hukumat ma'lumotlariga kirish bilan bog'liq muammolar, bloggerlarni jinoiy javobgarlikka tortish va boshqalarni ta'kidlaydilar..

Shunday qilib, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarga qaramay, O'zbekiston milliy matbuoti so'z erkinligi va fikrlarning plyuralizmini ta'minlash borasida tizimli muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammo davlat tomonidan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ham, ommaviy axborot vositalari vakillari tomonidan ham jurnalistikaning professional standartlarini himoya qilish uchun qo'shimcha harakatlarni talab qiladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot davomida olingan natijalar bir tomonidan tematik va janr chegaralarini asta - sekin kengaytirib, boshqa tomonidan so'z erkinligi cheklovlariga duch kelayotgan O'zbekiston milliy matbuotining turli xil rivojlanish dinamikasidan dalolat beradi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Hukumat tomonidan e'lon qilingan mediasferani liberallashtirishga qaramay, xalqaro inson huquqlari tashkilotlari ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda chinakam erkin va mustaqil jurnalistikaning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda [3,5]:

- Nozik mavzularni yoritadigan jurnalistlarni o'zboshimchalik bilan hibsga olish va ta'qib qilish;
- Davlat ommaviy axborot vositalarida senzura;
- Mustaqil nashrlarga jouslik va xakerlik hujumlari;
- Soliq tekshiruvlari va reklamalardan voz kechish orqali iqtisodiy bosim.

Ushbu dalillar shuni ko'rsatadi, O'zbekiston hukumati ommaviy axborot vositalarini real liberallashtirish, siyosiy va mafkuraviy plyuralizmni ta'minlash, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish uchun yanada samarali islohotlar amalga oshirilishi kerak.

Mustaqil ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari alohida e'tibor talab qiladi. O'zbekiston media bozori zaifligicha qolmoqda, nashrlar sifatli jurnalistika ishlab chiqarish uchun mablag'larning surunkali taqchilligini boshdan kechirmoqda. Davlat va xususiy sektor professional, moliyaviy barqaror ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga sarmoya kiritishi kerak [6]. Bu O'zbekiston jamiyatini yanada demokratlashtirishning kaliti bo'ladi.

XULOSA

Shunday qilib, O'zbekistonda chinakam mustaqil va plyuralistik milliy matbuotni shakllantirish jarayoni tugallanmagan bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda ma'lum ijobjiy o'zgarishlarga qaramay, ommaviy axborot vositalarining erkinligini cheklaydigan bir qator tizimli muammolar davom etmoqda. Media tizimidagi keyingi islohotlar O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismidir.

Media bozorini yanada liberallashtirish ko'p jihatdan mamlakat rahbariyatining islohotlarni amalga oshirishdagi siyosiy irodasiga va o'z huquqlarini himoya qilishda jurnalistlar hamjamiatining birlashishiga bog'liq bo'ladi.

REFERENCES

- Иноярова Ф.Т. Законодательство Республики Узбекистан о средствах массовой информации. - Ташкент: ТГЮИ, 2015. - 205 с.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

- Расулов Ф. Медиасфера независимого Узбекистана: основные тенденции развития / Под ред. К. Ахмедова. - Ташкент: Янги аср авлоди, 2019. - 410 с.
- АБДУЛҲАЙ, Г. ТУРКИСТОН МАТБУОТИДА ЯНГИ ДАВЛАТ ХУСУСИДАГИ МУНОЗАРАЛАР (1918-1924 ЙИЛЛАР). INFOLIB: ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала" E-LINE PRESS", (1), 56-60.
- Urazalievna, A. G., & Fotima, X. (2024). TURKISTON QO'RBOZHILAR HARAKATI VA ULARNING FAOLIYATI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 5-10.
- Urazalievna, A. G., & Aziza, P. (2024). FARG'ONA VODIYSIDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 12-15.
- Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ?. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(1).
- Алимов И. А. Интернет-СМИ в современном медиапространстве Узбекистана // Вестник ТГУПБП. - 2018. - №4 (78). - С. 146-152.
- Назаров Р. Эволюция узбекской модели национальной прессы: историко-политологический подход // Вестник общественного мнения. Данные. Анализ. Дискуссии. - 2020. - № 3-4. - С. 49-62.
- Сабиров, О. И., Акбарова, Н. А., & Сапаев, У. К. (2022). К теории параметрического усиления коротких лазерных импульсов в нелинейных фотонных кристаллах. «Узбекский физический журнал», 24(1), 8-9.
- Алимов Б. Зарождение независимой прессы в Узбекистане // Независимая газета. -2001. - 17 августа.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ОСОБЕННОСТИ ВЫПОЛНЕНИЯ РЕКОНСТРУКТИВНЫХ ВМЕШАТЕЛЬСТВ У БОЛЬНЫХ СИНДРОМОМ ДИАБЕТИЧЕСКОЙ СТОПЫ

Рузматов П.Ю., Матмуротов К.Ж., Бабаджанов А.Р., Каримов Р.Х.,
Рузметов Б.А.

Ташкентская медицинская академия, Республика Узбекистан, г. Ташкент;
Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии.

Резюме. В данном исследовании проанализированы результаты хирургического лечения 53 больных, которые получали стационарное лечение в отделении гнойной хирургии многопрофильной клиники Ташкентской медицинской академии и в отделении гнойной хирургии Хорезмском областном многопрофильном центре в 2021-2022 гг., которым реконструктивно-пластикие операции на стопе выполнялись усовершенствованной техникой (в зависимости от локализации раневого дефекта и пораженной части стопы). Выполнение реконструктивнопластических операций стопы с использованием

Ключевые слова: сахарный диабет, реконструктивно-пластикие операции, гнойнокротическая рана, гангрена.

ДИАБЕТИК ПАНЖА СИНДРОМИ БИЛАН ОГРИГАН БЕМОРЛАРДА РЕКОНСТРУКТИВ АМАЛИЁТЛАРНИ БАЖАРИШДА ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Резюме. Ушбу тадқиқотда 2021-2022 йилларда Тошкент тиббиёт академияси кўп тармоқли клиникасининг йирингли жарроҳлик бўлими ва Хоразм вилоят кўп тармоқли тиббиёт маркази йирингли жарроҳлик бўлимида стационар шароитда даволанган 53 нафар беморнинг жарроҳлик даволаш натижалари таҳлил қилинди, беморлар оёқларида реконструктив-пластик операциялар такомиллашибирилган техника ёрдамида амалга оширилди (заарлаган оёқда яранинг жойлашувига қараб). Оёқни заарланган қисмини ҳисобга олган ҳолда дифференциал ёндашган ҳолда реконструктив-пластик амалиётларини бажариш операциядан кейинги асоратларини келиб чиқишини камайтириб оёқни таянч ҳаракат фаолиятини сақлаб қолади.

Калит сўзлар: қандли диабет, реконструктив-пластик операция, йиринглинекротик-яра, гангрена.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

FEATURES OF PERFORMING RECONSTRUCTIVE OPERATIONS IN PATIENTS WITH DIABETIC FOOT SYNDROME.

Abstract. This study analyzes the results of surgical treatment of 53 patients who received inpatient treatment in the department of purulent surgery of the multidisciplinary clinic of the Tashkent Medical Academy in 2021-2022, who underwent reconstructive plastic surgery on the foot with improved technique (depending on the localization of the wound defect and the affected part of the foot). Performing reconstructive plastic surgery of the foot using a differentiated approach, taking into account the affected part, will allow maintaining an adequate supporting foot with a minimum frequency of postoperative complications.

Keywords: diabetes mellitus, reconstructive plastic surgery, purulent necrotic wound, gangrene.

Актуальность. Сахарный диабет (СД) – является самым распространенным эндокринным заболеванием в мире, которым страдают 4-5 % населения планеты. Одним из самых тяжелых осложнений является поражения сосудов и нервов нижних конечностей. При этом поражение артерий нижних конечностей – существенный фактор риска возникновения синдрома диабетической стопы (СДС), который может привести к критической ишемии и последующим присоединением гнойно – некротических осложнений и потери конечности у большинства больных. Среди гнойно-воспалительных осложнений на фоне СД синдром диабетической стопы занимает лидирующую позицию.[1,11]

Проведённый анализ литературных данных показал, что вопросы совершенствования тактических аспектов хирургического лечения СДС далеки от своего решения. На сегодняшний день отсутствуют исследования, подробно отражающие алгоритм предоперационной подготовки и послеоперационного мониторинга у этой тяжелой категории больных, а также у пациентов с наличием неблагоприятных факторов прогноза. Высокие показатели повторных операций и частота послеоперационных осложнений связаны с неадекватностью выбора техники оперативного вмешательства в формировании адекватной стопы. Решающее значение при этом имеет адекватная оценка периферического артериального русла с сохранением целостности питательной артерии определенной зоны стопы, играющая важную роль в питании тканей стопы, и выбор вида оперативного способа в зависимости от пораженной части для

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

формирования опор способной стопы. В связи с этим целью данного исследования явилось улучшение результатов лечения раневых дефектов при синдроме диабетической стопы за счет дифференцированного подхода операций на стопе.

Материал и методы исследования. В современной хирургии, несмотря на детальную разработку методики реконструктивно-пластикаических операций стопы на фоне СДС, риск развития послеоперационных осложнений в раннем периоде после вмешательства остается высоким, что заставляет искать новые способы техники выполнения этого оперативного вмешательства. Данное обстоятельство послужило побудительным мотивом для проведения специального научного исследования по созданию эффективной методики выполнения с профилактикой неблагоприятного течения послеоперационного периода у пациентов с гнойно-некротическим поражением стопы, перенесших реконструктивно-пластикаические операции. Реабилитационный период у больных после выполнения реконструктивно-пластикаических операций представляет собой коррекцию функции нарушений метаболизма, но является важным условием возвращения человека к социальной жизни. Способ выполнения реконструктивнопластикаических операций определяется индивидуально, с учетом объема здоровых тканей, таким образом, чтобы максимально сохранить функцию стопы, создать максимальные условия для стабилизации биомеханики стопы, пригодную для ортопедического протезирования, предотвратить развитие послеоперационных трофических язв и других осложнений. В зависимости от того, как и когда будет реализован каждый из перечисленных этапов, в хирургической практике выделяют виды и техники выполнения реконструктивно-пластикаических операций. Для оперирующего хирурга важны решения сложных клинических ситуаций:

Таблица 1.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Характер поражения периферических артерий нижних конечностей в зависимости от формы СДС, абс. (%)

показания к реконструктивно-пластическим операциям и особенности ведения послеоперационной раны в зависимости от локализации ее на стопе. Своевременное решение таких проблем с усовершенствованием нового дифференцированного способа оперативного вмешательства в зависимости от локализации раневого дефекта на стопе может привести к улучшению качества жизни пациентов данной категории. В данном исследовании проанализированы результаты хирургического лечения 53 больных, которые получали стационарное лечение в отделении гнойной хирургии многопрофильной клиники Ташкентской медицинской академии и в отделении гнойной хирургии Хорезмском областном многопрофильном центре в 2021- 2022 гг., которым реконструктивно-пластические операции на стопе выполнялись усовершенствованной техникой (в зависимости от локализации раневого дефекта

| Пораженный артериальный сегмент | Форма СДС | | Итого |
|--------------------------------------|------------------|-----------------|-----------|
| | нейроишемическая | нейропатическая | |
| Бедренно-подколенный | 1 (7,1) | 4 (66,6) | 5 (25,0) |
| Подколено-тибио-перонеальный | 3 (21,4) | 1 (16,7) | 4 (20,0) |
| Артериоголени | 8 (57,1) | - | 8 (40,0) |
| Бедренно-подколенный и артериоголени | 2 (14,2) | 1 (16,7) | 3 (15,0) |
| Всего | 14 (100) | 6 (15,4) | 20 (37,7) |

и пораженной части стопы).

Таблица 2.

| Операция | Форма СДС | | Итого |
|--------------------------------|------------------|-----------------|-----------|
| | нейроишемическая | нейропатическая | |
| Ампутация пальца | 2 (14,3) | 3 (7,7) | 5 (9,4) |
| Вскрытие флегмоны, некрэктомия | 11 (78,6) | 34 (87,2) | 45 (85,0) |

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

| | | | |
|--------------------------|-----------|-----------|----------|
| Ампутация стопы по Шарпу | 1 (7,1) | 2 (5,1) | 3 (5,6) |
| Всего | 14 (26,4) | 39 (73,6) | 53 (100) |

Характер первично-выполненных оперативных вмешательств пациентам в зависимости от формы СДС, абс. (%)

Все пациенты перед госпитализацией прошли тщательное обследование для адекватного выбора хирургической тактики лечения, в том числе была получена полноценная информация о состоянии периферического артериального русла. Для этого были использованы неинвазивные методы исследования, такие как доплерографическое исследование и мультиспиральная компьютерная ангиография артерий нижних конечностей. При этом у 20 (37,7%) больных выявлены поражения периферических артерий различной степени. Детальное изучение показало, что при нейроишемической форме артериальное поражение нижних конечностей имелось у всех 14 пациентов, при нейропатической – лишь у 6 (15,4%) из 39 больных (табл. 2). При обнаружении у пациента явного сегментарного окклюзионно-стенотического процесса артерий нижних конечностей в первую очередь ставили задачу эндоваскулярной реваскуляризации. Для этого использовали баллонную ангиопластику, которая выполнена у 6 (42,8%) из 14 больных. У пациентов с раневыми дефектами или гнойно-некротическими процессами на стопе в зависимости от локализации и характера поражения выполнялись различные хирургические вмешательства. Ведущее место среди них занимали вскрытие флегмоны и некрэктомии, осуществленные у 45 (85%) из 53 пациентов. Кроме того, произведены ампутации пальцев и ампутации стопы по Шарпу. По частоте выполнения и полученным данным мы не наблюдали статистических различий.

Аутодермопластика (расщепленная пересадка кожи) была произведена у 19 пациентов, резекция или удаление пораженной кости + миопластика – у 27, кожно-суральная пластика – у 7. При выполнении оперативного вмешательства учитывали изменения биомеханики или ее коррекцию, состояние местных тканей и изменения структуры костной ткани стопы (рис. 1.). Анализ полученных данных показал, что более половины операций (66,0%) было проведено на средней части стопы. Реже выполнялись реконструктивные операции в пятонной области (задняя часть) – у 13,2%. По поводу раневого дефекта или гнойно-некротического поражения дистальной части с поражением плюсневых костей

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Наряду с - послелог қатар (наряду с похвалами – мақтандышлар менен қатар).

Начиная с – послелог баслап (начиная с 18 мая – 18-майдан баслап).

Невзирая на - послелог қарамастан (невзирая на трудности – қызынышылықтарга қарамастан).

Несмотря на - послелог қарамастан (несмотря на знойную погоду – ҳауа райының ыссызына қарамастан).

Под влиянием - творительно-соединительный падеж (под влиянием солнца – қуяшты деп).

Под именем - послелог атлы, аты (под именем Чехонте – Чехонте аты астында).

По поводу - послелог тууралы (по поводу «Отцов и детей» - «Аталар ҳәм балалар» тууралы).

По сравнению с – слово салыстырганда (по сравнению с ним - ол менен салыстырганда).

Судя по - послелоги қараганда, қарап (судя по всему – соган қараганда).

При дословном переводе конструкции с предлогами на каракалпакский язык, выполняющей функции предлога, возможны семантические ошибки, поскольку некоторые из них должны переводиться как фразеологизмы, целиком; и наличие соответствующих справочных материалов дает при переводе возможность заменить данную конструкцию семантически равноценной, из числа предлогов, свойственных данному языку. Существуют перспективы прикладного использования полученных в ходе работы результатов и сопоставительного изучения языков. Так, с помощью могут быть уточнены методики изучения сопоставительной грамматики в вузе: расширено понятие

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

выражаемых при помощи служебных слов отношений, изменение отношения к служебным словам как к незначащим единицам. Таким образом, нам представляется возможной дальнейшая реализация выбранных принципов исследования применительно к системе предлогов русского и каракалпакского языков.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Аничков И.Е. Труды по языкознанию. СПб.: Наука, 1997 г.
2. Баскаков Н.А. Двуязычие и проблема взаимопроникновения различных уровней при взаимодействии языков. В кн. «Проблемы двуязычия и многоговоречия». М., 1972.
3. Бекмуратова, У. А., Сайдов А. Б. (2024). ФОРМИРОВАНИЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПОСРЕДСТВОМ СТРАНОВЕДЧЕСКИХ ТЕКСТОВ НА УРОКАХ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38 (2), 155-161.
4. Виноградов В.В. Русский язык. М., - Л., 1947 г.
5. Джаксыбаев А. Сопоставительная грамматика русского и каракалпакского языков (Словообразование. Морфология). Н., 1989 г.
6. Калечиц Е.П. Взаимодействие слов в системе частей речи (межкатематические связи). Свердловск: Изд-во ун-та, 1990 г.
7. Крысин Л.П. Лексическое заимствование в русском языке последних десятилетий // Вопросы языкознания, 2002 г. № 6.
8. Сайдов, А. Б. (2024). СТРУКТУРНО-СИНТАКСИЧЕСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ МИКРОТЕКСТА В РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38 (2), 147-154.
9. Сайдов, А. Б. (2024). ФРАГМЕНТЫ РУССКОЙ И КАРАКАЛПАКСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ МИРА ВЫРАЖЕННЫЕ В КОНЦЕПТАХ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38 (2), 162-169.
10. Сайдов, А. Б. (2024). НЕПРОИЗВОДНЫЕ ПРЕДЛОГИ И СПОСОБЫ ИХ ПЕРЕДАЧИ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 50-60.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

11. S. Israilova, & N. Alavutdinova (2023). INTERCULTURAL COLOR INTERPRETATION. *Science and innovation*, 2 (C12), 111-115. doi: 10.5281/zenodo.10392062
12. Столярова Е.А. Современный русский язык и культура речи. Конспект лекций. М.: Приор, 2004 г.
13. Atadjanova, M. A. (2016). Animistic mythology and its functional nature in the current Uzbek prose. *Молодой ученик*, (1), 290-294.
14. Атаходжаева, Г. А., Турсунбаев, А. К., & Собиров, Х. Г. (2017). Состояние центральной и внутрисердечной гемодинамики при остром коронарном синдроме. *Молодой ученик*, (4), 239-245.
15. Alavutdinova, N., & Ergasheva, L. (2024). COMMUNICATIVE CHARACTERISTICS OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE. *Science and innovation*, 3(B1), 29-34.
16. Современный русский язык: Фонетика. Лексикология. Словообразование. Морфология. Синтаксис. 4-е изд., стер. / Л.А. Новиков, Л.Г. Зубкова, В.В. Иванов и др.; Под общ. ред. Л.А. Новикова. - СПб.: Лань, 2003 г.
17. Умаров А.У. Сопоставительная грамматика русского и каракалпакского языков. Н., 1992.
18. Урумбаев Н.А. Краткий курс сопоставительной грамматики русского и каракалпакского языков. Н., 1992.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA MILLIY INNOVATSION TIZIM O'RNI VA UNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Ergasheva Durdona, Ikramova Mehribon

Tashkent University of Applied Sciences, Gavhar Str. 1, Tashkent 100149,
Uzbekistan

(Durdona1481, ikramovamehribonu) @gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion tizimining muhim ahamiyat kasb etishi, innovatsion jarayonlarning shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari, innovatsion tizim sohalari va turlari haqida atroficha yoritilgan.

Asosiy tushuncha va iboralar: innovatsiya, innovatsiya siyasati, innovatsiya turlari, investitsion faoliyat, infratuzilma, fan-texnika, texnoparklar, innavatsion muhit.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston iqtisodiyotida katta strategik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ishsizlikni kamaytirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish, mehnat unumdarligini oshirish va inson kapitalidan oqilona foydalanish eng dolzarb masalalardir. Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish sohasi va uning asosida innovatsion ishlasmalar va texnologiyalar maqsadlarga erishishda muhim omil bo'ladi. Innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish globallashuv sharoitida va ichki va tashqi bozorda doimiy ravishda o'sib borayotgan raqobat sharoitida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishining muhim yo'naliшlaridan biri bo'lib, ushbu o'tish nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirish, balki undan ham ustun turgan muammolarni hal qilish zarurlign ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "innovatsion dasturni shakllantirish, innovatsiyalar va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini tayyorlash va mulkdorlar sinfining rivojlanishini

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun O'zbekistonni chuqur texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish dasturi zarur"²⁵.

Shu bilan birga, O'zbekistonning o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan innovatsion siyosati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil fevral oyida qabul qilingan va 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi dasturiy Farmonida o'z aksini topdi. Iqtisodiyotning innovatsion tarkibiy qismini rivojlantirish sohasidagi ushbu hujjat ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishni, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratishni, ixtisoslashtirilgan ilmiy laboratoriyalarni, yuqori texnologiyalar markazlarini, olyi o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarida texnoparklarni yaratishni nazarda tutadi²⁶.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning innovatsion rivojlantirish tizimiga o'tish jarayoni amalga oshirilmoqda ekan, demakki, bunday rivojlantirish tizimi milliy iqtisodiyotimizga ijobiy ta'sir qilishi, rivojlantirishi, innovatsion g'oyalar, infratuzilmalar, innovatsion klimat yaratishi, ilmiy tadqiqot ishlarida va fan-texnologiyaga asoslangan sohalarda ham o'z o'rniда qo'llanilishi kerak.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatning bosqichma-bosqich rivojlanishi va uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi rivojlangan milliy innovatsion tizimning mavjudligi asosida ta'minlanadi. Milliy innovatsion tizim tarkibiy elementlarini shakllantirish va o'zaro aloqadorligini ta'minlash davlat innovatsiya siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Barcha mamlakatlar shu jumladan, O'zbekiston uchun ham eng dolzarb iqtisodiy nazariyalaridan biri hisoblangan innovatsion iqtisodiy nazariya hozirda o'zining shakllanish bosqichida bo'lib, zamonaviy innovatsion nazariyaning mazmunini bir tizimga keltirish dolzarb muammolardan biri bo'lib turmoqda.

Albatta, milliy innovatsion tizimni yaratishni boshlashdan oldin, innovatsiya manbalarini aniqlash kerak. Shunga asoslanib, har bir mamlakat o'zining innovatsion

²⁵Ш.М.Мирзиёев. Послание Президента Республики Узбекистан ОлийМажлису. 22 декабря 2017 года. Источник: <http://aza.uz/ru/politics>;

²⁶Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» № УП-4947 от 7 февраля 2017 года

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

strategiyasini shakllantiradi. Jahan nazariyasi va amaliyotida innovatsiyalar manbalarini quyidagi ikkita asosiy turga bo'lish mumkin:

1. Mavjud texnologiyalar va bilimlarni chet eldan olib kirish, ularni mahalliy sharoitlarga va milliy iqtisodiyotning xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanishga moslashtirish.

2. Nafaqat milliy tizim uchun, balki global darajada yangi bilim va texnologiyalarni yaratish.

Bu ikkita vazifa innovotsion tizimga o'tish uchun sharoit yaratib beradi.

O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari, uzoq muddatli istiqbolda milliy innovatsiya tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Innovatsion rivojlanish iqtisodiyotning ustuvor sohalarini samarali modernizatsiyalash, ilmiy-texnika sohasi faolligi va tizimlilagini oshirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatining ustuvorligi ta'minlanadi.

Hozirgi vaqtida jahon iqtisodiyotida rivojlangan va rivojlanib kelayotgan mamlakatlar ilmiy-innovatsiyalar yo'lidan borayotgan bir davrda O'zbekiston ham jahon ilmiy-texnikaviy rivojlanish darajasiga ko'tarilish uchun iqtisodiyotni modernizatsiyalashning innovatsion yo'liga qisqa muddatlarda o'tib olishga intilmoqda. Buning uchun milliy innovatsion tizimni shakllantirish doirasida fan-texnika kompleksini bozor sharoitlariga moslashtirib, ilm-fan, texnologiya va texnikani rivojlantirishning aniq yo'nalishlarini belgilab olishni, fundamental fanlarni, eng muhim amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarni rivojlantirishni, shuningdek, intellektual mulkni huquqiy himoya qilishni va undan samarali foydalanishni o'z oldiga maqsad qilib olgan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Innovatsion rivojlanish vazirligi yagona innovatsion va innovatsion infratuzilma bo'yicha vakolatli organ sifatida tashkil etilishi, iqtisodiy rivojlanishning milliy modelini ishlab chiqishda kuchli turtki bo'ldi²⁷.

²⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 noyabrdagi PQ-3416-sonli "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarori.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

MITlar shakllanayotgan boshlang'ich davrda umumiy innovatsion strategiyani rivojlantirishda davlat alohida o'rin tutadi. Keyinchalik esa ko'pgina sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlardagi kabi bu sohada biznes yetakchilik qilib boradi.

Davlatning roli - fundamental bilimlarni (universitetlarda) va yuqori texnologiyalar majmuini ishlab chiqarishda ko'maklashish hamda infratuzilma va innovatsion faoliyat yuritish uchun sog'lom, institutsional muhit yaratishdadir. Ushbu umumiy model doirasida MITning milliy xususiyatlari shakllanadi. Tadbirkorlik muhiti MITlarining faol faoliyat ko'rsatishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion jarayonlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, yirik biznes ko'proq innovatsion faollikni namoyon etmoqda²⁸.

Darhaqiqat MITlarni shakllantirishda eng muhim o'rin davlatga tegishlidir. Chunki davlat MITlarni faoliyat ko'rsatish tartib qoidalarini belgilab beradi, ularni kerakli resurslar bilan ta'minlaydi hamda moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. MITlarning faoliyat ko'rsatishida innovatsion faoliyatni axborot- texnologiyalar bilan ta'minlash, har qanday sohadaelektron muhit yaratish, ilmiy texnik axborot tizimi, internet tarmoqlaridan keng foydalanishmuhim ahamiyatga ega.O'zining MITini yaratayotgan harbir mamlakat shu bilan birga O'zbekiston uchun ham bir qancha hal etilishi kerak bo'lgan asosiy muammolar va ular orqali kelib chiqadigan vazifalar mavjud.

Shulardan eng birinchi va eng zaruri moliyaviy sarmoyadir. Bu jihat iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini yangilash maqsadida kerakli moliyaviy resurslarni yig'ish va yirik innovatsion loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda sarmoya yirik investitsiya kiritish orqali amalga oshirilsa, ham mablag', ham texnologiyaga erishiladi.

Shuni ham inobatga olishimiz kerakki innovatsion faoliyatni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi milliy, mintaqaviy va tarmoq innovatsion jarayonlarini qamrab olgan innovatsion axborot ta'minot tizimi yaratilishidir.

Mamlakatda innovatsion faoliyatga, ayniqsa, texnologiyalarni tijoratlashtirish va transfer qilishga xizmat qiladigan yagona axborot tizimi hozirgacha tashkil etilmaganligi ham MIT yaratish yo'lidagi vazifalardan hisoblanadi. Texnologiyalarni

²⁸Акрамов А.У., Джайдакбаев М. Т. Миллий инновацион тизимлар ва илмий-технологик ривожланишнинг жаҳон тенденцияси. Iqtisodiyot va ta'lif jurnali 2017/ 52bet

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

tijoratlashtirish va ko'chirish jarayonining axborot ta'minoti innovatsiya faoliyatini jadallashtirishda muhim rol o'yndaydi. Axborot innovatsiion muhit sub'ektlarining texnologiyani idrok etish qobiliyatini oshirishga ko'maklashadi, bu muhitning uzlusiz ishlashini ta'minlaydi, ITTKI orqali fundamental tadqiqotlardan tijorat texnologiyalariga o'tishdainnovatsiya jarayonidagi mavjud uzilishlarga barham beradi, innovatsion jarayon qatnashchilarini birlashtirishga ko'maklashadi.²⁹

MIT to'g'risida ko'plab izlanishlar olib borgan hamyurt olimimiz O.Sattorqulov "Biz shuni yaxshi bilishimiz kerakki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan, mahsulotimizni tashqi bozorga chiqarish va sotish, valyuta tushumini ta'minlash, yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va ish o'rinalarini yaratish, pirovardida maqsadlarga erishish uchun eksport dasturini yaratish haqida gapirish mumkin emas. Birinchidan, jahon bozorida yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lgan va kelgusida iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan va ishlab chiqarilayotgan tarmoqlarning jadal rivojlanishi va maqsadli qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash zarur."³⁰ degan fikrlarni bildirganlar

Milliy innovatsion tizim kontseptsiyasini ishlab chiqish va undan foydalanish mamlakat iqtisodiyotida innovatsion jarayon evolyutsiyasiga tizimli yondashuvni qo'llash imkonini beradi. Ehtimol, MITni yaratishning asosiy afzalliklaridan biri bu "yangi" iqtisodiyot uchun bilim va innovatsiyalarning hal qiluvchi ahamiyatini tan olish, yangi bilimlarni yaratish, tarqatish va ishlatish jarayoniga barcha yangi elementlarni jalb qilish, uning ishtirokchilarini kengaytirish, shuningdek milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga jalb qilish. uning yo'naliishlari. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni sxematik ravishda to'rt ustunga asoslangan tizim sifatida ko'rsatish mumkin: innovatsion tizim, axborot jamiyati, uzlusiz ta'lim va davlat innovatsion siyosati. Shubhasiz, milliy innovatsion tizimni yaratishni boshlashdan oldin, innovatsiya manbalarini aniqlash kerak.

²⁹ Ёзиев.Г.Л. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг мамлакат иктисодий ривожидаги салоҳиятини оширишнинг асосий йуналишлари: Phd. Diss.-T.,2019.-132

³⁰ Сатторкулов, О. Т. Развитие национальной инновационной системы и её особенности / О. Т. Сатторкулов, Б. Б. Тошбоев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 11 (115). — С. 959-962. — URL: <https://moluch.ru/archive>

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Ichki bozorda ilg'or texnologiyalar va yangiliklarga to'lov qobiliyatining ancha pastligi, ilm-fanning amaliyotdan ancha uzoqlashib qolgani tufayli(chunki hozirgi paytda ko'pchilik ilmiy ishlar innovatsiyalar yaratish uchun emas, balki yuqori mansablarga erishish maqsadida amalga oshirilayotgani, malakaviy imtihonlar ho'ja ko'rsinga topshirilayotgani, bir qancha ilmiy ishlar esa boshqalar tomonidan yozib berilayotgani hech kimga sir emas) iqtisodiyot real sektorining ilmiy tehnik faoliyat natijalariga talabi pastligi va respublikada innovatsion mahsuotlar to'laqonli bozorining mavjud emasligini ham ko'rsatib o'tishimiz kerak³¹.


Haqiqatdan ham ko'pgina ta'lif tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari iqtisodiyot rivojlanishi uchun kerakli ilmiy ishlar olib bormayapti, olib borilayotgan taqdirda ham amaliyotga tadbiq qilinmayapti. Anchagina amaliylashtirsa bo'ladigan innovatsion tadqiqotlar va loyihamar, ilmiy ishlar qog'ozda qolib ketmoqda. Oliy o'quv yurtlari va tashkilotlar o'rtaida aloqalar yo'qligi yoki sustligi sababli deb qarasak bo'ladi. Natijada rivojlanishning innovatsion tizimga o'tishi qiyinlashmoqda.

2002 yildan boshlab respublikamizda ilmiy muassasalarini moliyalashtirish uchun byudjet mablag'lari ilmiy jamoaning grant shartnomasi asosida yoki muayyan tadqiqot topshirig'i uchun tanlov natijasida tuzilgan tegishli byudjet tuzilishi bilan ajratiladigan tartib joriy etildi. 2004 va 2014 yillarda davlat ilmiy-texnik dasturlari sohalarida davlat investitsiyalarini taqsimlash tuzilmasining qiyosiy tahlili ularning asosiy ulushi amaliy tadqiqotlar ulushiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi: ular 2004 yildagi umumiy moliyaviy qo'llab-quvvatlashning 68 foizini, 2014 yilda 58 foizni tashkil etdi.

Yana bir jihatga ahamiyat berishimiz kerak, mamlakatmizda ilmiy tadqiqot ishlarining hamda ta'lif harajatlari YaIMga nisbatan % ko'rsatgichlari boshqa rivojlanayotgan, innovatsion tizimga o'tayotgan davlatlarga nisbatan juda past. (3.1.1-rasm),(3.1.2-rasm).

³¹Ayupov R.X., Boltaboyeva G.R. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari.T:TMI, 2013, 142 bet

O'zbekiston - ITI xarajatlari, YaIMga nisbatan % da




Manba: O'zbekiston statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

(3.1.1-rasm). O'zbekiston - Ilmiy tadqiqot ishlari xarajatlari, YaIMGga nisbatan % da.

Bu tahlilda ilmiy tadqiqot ishlariga ajratilgan harajatlarni yildan yilga kamayib borayotganini ko'rishimiz mumkin. 2002-yil bilan 2018-yillar solishtirganda bu harajatlar YaIMGga nisbatan 2 barobar tushgan. Shu yillar mobaynida ITI harajatlari 0.2% dan tushib brogan va buning natijasida Ilmiy tadqiqot ishlari susaygan. Innovatsion faoliyatni olib borishda ilmiy taqiqot ishlariga ham e'tiborni ham mablag'ni kuchaytirish lozim.

O'zbekistonda ta'lim harajatlari.YaIMGga nisbatan %da



Manba: O'zbekiston statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

(3.1.2- rasm) O'zbekistonda ta'lim xarajatlari - YaIMGga nisbatan % da

O'zbekiston ta'lim uchun ajratgan harajatlarni tahlil qilganda 2011-yda 7.63%, 2015-yil 7.29%, 2017-ilda esa 6.35% gacha pastlaganini sezish mumkin. Milliy

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

innovatsion tizimni yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy xodimlar bilan ta'minlash ham innovatsion taraqqiyot uchun mamlakatni oldiga qo'ygan vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Muammo shundaki malakali kadrlar yetishmasligi, bor kadrlarning ham chetga chiqib ketishi mamlakat rivojiga, uning ilmiy, innovatsion faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlangan ishlab chiqarish bazasining yetarli emasligi hamda chet el kompaniyalari uchun respublikamizning investitsion jozibadorligi bilan bir qatorda katta miqyosdagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi ham mamlakatimiz uchun bajarilishi kerak bo'lgan vazifalardan hisoblanadi.

Ammo bu muammolar mamlakatda milliy iqtipdiyot rivojlanishi uchun vazifalar bajarilmayapti degani emas.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda innovatsion faoliyat va aniq belgilangan innovatsion tizimni yaratishga ko'proq e'tibor berilmoqda. Shunday qilib, davlat ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi va millat farovonligini oshirish nafaqat o'zining tabiiy, balki intellektual resurslarini amalga oshirish bilan ham bog'liqligini ta'kidlamoqda³².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son 2019 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion rivojlantirish strategiyasi" farmonida ham bir qancha kamchiiklar keltirib o'tilgan. O'tkazilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini ko'rsatdi.

Jumladan,

- Aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinganlik darajasi past;
- Oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalarini va dasturlarini, talabalarni qabul qilish kvotasi miqdorini belgilashda, moliyaviy mablag'larni taqsimlashda mustaqil emas;
- Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar o'rtaсидаги о'заро hamkorlik lozim darajada emas, ilmiy-tadqiqot muassasalar va laboratoriylar faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmagan;
- Ilmiy faoliyat natijalarni tijoratlashtirish darajasi past; innovatsion menejment sohasida texnologiyalar transferini faol ilgari surish va amalga oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislar mavjud emas;

³²Сатторкулов, О. Т. Развитие национальной инновационной системы и её особенности / О. Т. Сатторкулов, Б. Б. Тошбоев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 11 (115). — С. 959-962. — URL: <https://moluch.ru/archive>

- Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga ajratilayotgan budget mablag'lari yetarli emas;
- Ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyalashtirish samarali va shaffof emas, budgetdan tashqari va xususiy jamg'armalar mablag'larini jalg etishni rag'batlantirish mexanizmlari mavjud emas, qarzni moliyalashtirishning ichki manbalari yetarli darajada rivojlanmagan;
- Intellektual faoliyat natijalarini himoya qilish lozim darajada emas, ushbu sohada, ayniqsa davlat organlari va tashkilotlarida malakali mutaxassislar mavjud emas;
- Qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalari, ikkilamchi resurslarni energetik utilizatsiya qilish sohalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi past;
- Mamlakatda, ayniqsa davlat kompaniyalarida korporativ munosabatlar va korporativ boshqaruv prinsiplari rivojlanmagan, bunda xorijdagi eng namunali amaliyot inobatga olinmayapti.

Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti hajmida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorining ulushi kam. Qayd etilgan kamchiliklar mamlakatimizning jadal innovatsion rivojlanishiga, investitsiyalarni jalg etishga, iqtisodiyotning o'sishiga hamda davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarini rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda³³.

Bundan ko'rinish turibdiki mamlakatizmizda kamchilik va muammolarga e'tibor bilan qaralmoqda va yechim topish yuzasidan bir qancha ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston uchun uning iqtisodiyoti rivojlanishining ob'ektiv tendensiyalarini hisobga olganda, xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarni jalg qilgan holda o'zining ilmiy-texnik salohiyatidan foydalanishga asoslangan modelni shakillantirish, rivojlantirish va qo'llash maqsadga muvofiqdir. Samarali innovatsion sektorni shakllantirish va rivojlantirish o'zimizning kashfiyotlarimizni (agar ular boshqa mamlakatlardagilar bilan raqobatlasha olsa) va chet el «nou-xau» larini o'z ichiga olgan fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini jalg qilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Mamlakatimiz innovatsion tizimini rivojlantirish shart-sharoitlari va muammolarini tahlil qilish natijalari innovation tizimning asosan davlat tomonidan moliyalashtirilishi, tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirishi, investitsion muhitni yaxshilash, innovatsion infratuzilma yaratish, ilmiy tadqiqot tajriba konstrukturlik ishlariga e'tibor qaratish kabi jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

³³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son Farmoniga ILOVA

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Shunday qilib, Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat xarajatlarining ko'payishi, ta'limni rivojlantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikka asoslangan siyosat bilan birgalikda infratuzilmani rivojlantirish, ITI va ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan institutlarni rivojlantirish; innovatsion tashabbusni rag'batlantirish uchun sharoitlarni yaratish; biznes va yangi bilimlar va texnologiyalarni yaratuvchilar o'rtaсидаги о'заро bog'liqlik zanjirini yaratish; Information axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini doimiy takomillashtirish; ta'lim tizimini, ayniqsa oliy o'quv yurtlarini yaratish; strategik muhim texnologiyalarni saqlash va rivojlantirish; mamlakatda qulay innovatsion muhitni yaratish bunday natijalarga erishishda yordam berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ш.М.Мирзиёев. Послание Президента Республики Узбекистан ОлийМажлису. 22 декабря 2017 года. Источник: <http://uza.uz/ru/politics>;
2. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» № УП-4947 от 7 февраля 2017 года
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 noyabrdagi PQ-3416сонли “O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” gi qarori.
4. Акрамов А.У., Джайдакбаев М. Т. Миллий инновацион тизимлар ва илмий-технологик ривожланишнинг жаҳон тенденцияси. Iqtisodiyot va ta'lim jurnali 2017/ 52bet
5. Ёзиев.Г.Л. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг мамлакат иктисадий ривожидаги салоҳиятини оширишнинг асосий йуналишлари: Phd. Diss.-T.,2019.-132
6. Сатторкулов, О. Т. Развитие национальной инновационной системы и её особенности / О. Т. Сатторкулов, Б. Б. Тошбоев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 11 (115). — С. 959-962. — URL: <https://moluch.ru/archive>
7. Ayupov R.X., Boltaboyeva G.R. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari.T:TMI, 2013, 142 bet
8. Сатторкулов, О. Т. Развитие национальной инновационной системы и её особенности / О. Т. Сатторкулов, Б. Б. Тошбоев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 11 (115). — С. 959-962. — URL: <https://moluch.ru/archive>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son Farmoniga1-ILOVA

TASHKIOTLARNING INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Badalboyev Faxriddin Solijonovich
lim942345@gmail.com

Maqsad: ushbu maqola- inson kapitali faoliyatining barcha jihatlarini iloji boricha keng qamrab oladigan integratsiyalashgan baholash tizimi bilan inson kapitalidan foydalanishni ichki nazorat qilish tizimini baholashni takomillashtirishga bag'ishlangan . Muhokama: korxonaning inson kapitali umumiy ishlab chiqarish potentsialining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, mehnat unumдорligi asosida moliyaviy natijalarni shakllantirishga ijtimoiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash inson kapitalidan foydalanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki ular uning tuzilishini o'zgartiradi va ularning rivojlanishi uchun asosdir. Qabul qilishdan oldin integratsiyalashgan baholash tizimidan foydalangan holda inson kapitalidan foydalanishni nazorat qilish majburiy protsedura sifatida taklif etiladi. Har bir mezon bo'yicha maksimal ball berish korxona rahbariyatiga xodimlarning natijaga qo'shgan hissasini batafsilroq baholash va bonus jarayoniga oqilona yondashish imkonini beradi, bu esa yuqori natijalarga erishishga imkon beradi. Ma'lumki, xodimlarni rag'batlantirishning premium va ijtimoiy tarkibiy qismlari ma'lum bir "ijobiy ta'sir" davriga ega, bu esa qo'llab - quvvatlanishi kerak va shu bilan mehnatning ishlab chiqarish hajmining o'sishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi. Natijalar: biz individual mukofotdan boshqa turdag'i rag'batlantirishning ustuvor afzalligi sifatida foydalanishni tavsiya etamiz, chunki bu xodim uchun o'z ishining natijalarini mustaqil ravishda tahlil qilish va baholashuchun imkoniyat yaratadi. Ushbu sabab-oqibat munosabatlarini saqlab qolish uchun minimal vaqt oralig'i zarur shartdir, chunki bu ishlab chiqarish jarayonida ishchilar o'rtaida sog'lom raqobatga erishishga yordam beradi. Biz xodimlarni mukofotlash uchun bir qator mezonlardan foydalanishni taklif qilamiz. Tavsiya etilgan mezonlar biz tomonidan ikki turga bo'linadi: individual-umumiy va jamoaviy. Bu, shubhasiz, mukofotningadolatlilagini, uning ochiqligi va asoslilagini oshiradi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, tashkilotning inson kapitalidan samarali

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

foydalanish ko'rsatkichlari, ish vaqtidan foydalanish, ish vaqtidan foydalanishni nazorat qilish, xodimlarni mukofotlash.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda ishlab chiqarish jarayonida inson kapitali asosiy rol o'yinaydi. Shu bilan birga, inson kapitalidan foydalanishni tahlil qilish va nazorat qilishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda, chunki bu ko'rsatkichlar o'z - o'zini shakllantiradigan va moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy ko'rsatkichlardir. Kadrlar bo'limining vakolatli ishi unga qo'yilgan vazifalarni bajara oladigan barqaror mehnat jamoasini shakllantirishga imkon beradi va bu shart korxonaning rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Ushbu tizimda samaradorlik, mehnatga layoqatlilik va javobgarlik ishchilarining muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Inson kapitalidan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash bilan uzviy bog'liqdir, chunki bu ishchilarining mehnat unumdarligini oshirishga imkon beradi, shuningdek ularni doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashtirish zarurligini keltirib chiqaradi. Ushbu jarayonda inson kapitalidan va ayniqsa ish vaqtidan foydalanishni kompleks iqtisodiy tahlil qilish va nazorat qilish muhim rol o'yinaydi. Mehnat unumdarligining ichki zaxiralarni aniqlash va rivojlantirish asosida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanish jarayonida inson kapitali korxona faoliyatining asosiy moliyaviy xususiyatlariga (bozor qiymati, biznes faoliyati, moliyaviy kapital, kreditga layoqatlilik) katta ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun bizning fikrimizcha, korxona rahbariyatining muhim vazifasi inson kapitalini nazorat qilish va birgalikda pleksik tahlil qilish qoidalarini ishlab chiqishdir.

Har qanday biznesning samaradorligiga bozor ulushidan oshib ketish uchun etarli bozor ulushini egallamasdan erishish mumkin emas va bu, o'z navbatida, bozorga taklif etilayotgan mahsulotlar va umuman korxonaning yuqori darajadagi raqobatdoshligini, barcha biznes jarayonlarini tashkil etishning maqsadga muvofiqligini talab qiladi. innovatsion samaradorlik va eng muhimi, u uchun mavjud bo'lgan inson salohiyatidan to'liq foydalanish. Protrusionning inson salohiyatini

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

tashuvchilar-ular ishchilarni jalg qiladilar va bu potentsial ulardan qaytarib olinmaydi va ular bilan mehnat shartnomasi yokima'lum bir ish hajmini bajarish uchun fuqarolik shartnomasi tuzish orqali ijaraga olinishi mumkin. Inson salohiyatidan to'liq iqtisodiy foydalanish faqat xodimlarni boshqarishning puxta o'ylangan tizimi sharoitida mumkin, bu esa o'z navbatida kadrlar strategiyasidan va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun etarli miqdordagi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashni boshqarishdan ijobiy korporativ madaniyatni shakllantirish, mehnat darajasini oshirish va mehnatni rag'batlantirishgacha bo'lgan bir qator tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan xodimlar bilan ishslashning yakuniy maqsadi mehnat unumdarligini oshirish, shuningdek ishchilarning biznes maqsadlariga erishish uchun vakolatlari va motivlarini yo'naltirishdir.

Inson salohiyatining etishmasligi biznes faoliyatiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Bunday tanqislik talab qilinadigan ish hajmini bajarish uchun ishchilar etishmasligi bilan ham, mavjud xodimlarning shakllanishi yoki kompetentsiyalarining etarli darajada emasligi bilan ifodalanadigan sifat jihatidan ham namoyon bo'lishi mumkin. Bunday muammoni ta'lim va ish tajribasi uchun maxsus talablarga ega bo'lgan qo'shimcha xodimlarni yollash yoki allaqachon band bo'lgan xodimlarni o'qitishdan oldin yoki qayta tayyorlash orqali hal qilish mumkin. Inson salohiyati yetishmasa, mehnat intizomi va motivatsiyasining etarli emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ish haqi jamiyatning aksariyat a'zolari uchun ularning farovonligi uchun asos bo'lgan va hozirgi kunda ham mavjud, ya'ni bu xodimlarning mehnat unumdarligini oshirish va butun ishlab chiqarish natijasi uchun kuchli rag'batdir. Iqtisodiyotning zamonaviy inqiroz sharoitlari moslashuvchan motivatsiya tizimiga asoslangan xodimlarga, ularning ish bilan ta'minlanishiga va ulardan oqilona foydalanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Korxonaning mehnat resurslarini ichki nazorat qilishning aniq tashkil etilgan va barkamol va uyg'un ishlaydigan tizimi ish haqini to'g'ri hisoblash va xodimlarning moddiy manfaatdorlik printsipiga rioya qilish uchun zarur shartdir. Mehnatga haq to'lash tizimi mehnat miqdori va sifati, ish haqifondi mablag'lari va ijtimoiy to'lovlardan foydalanish ustidan tezkor nazoratni ta'minlashi kerak.

Zamonaviy sharoitda mehnat qonunchiligi ishchilar va ish beruvchilarning, shuningdek davlatning intereslarini maqbul birlashtirish va muvofiqlashtirishga erishish uchun huquqiy shart - sharoitlarni yaratadi.

Ish haqi xarajatlar moddasi sifatida to'g'ridan - to'g'ri mehnat xarajatlari bilan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

bog'liq, shuning uchun u faoliyat turlariga qarab foydani kamaytiradi. Mehnat munosabatlari tizimini takomillashtirish, xodimlarning mehnat faoliyati ustidan ichki nazoratni tashkil etish va ularning motivatsiyasi ularning malakasini oshirish, funktsional kadrlar tuzilmalarining innovatsion shakllanishi bilan bevosita bog'liqdир.

Ishonchli huquqiy asos kadrlar texnologiyalari maqomiga qonuniylik beradi va kadrlar siyosati natijalarini qo'llash nuqtai nazaridan kadrlar bo'yicha mutaxassislarining harakatlarining tartibga solinishi, mavjudligi va ishonchliligin ta'minlaydi. Kadrlar texnologiyalaridan foydalanish huquqiga ega bo'lgan xodimlar, shubhasiz, yuqori axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan professional tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak.

Xodimlarning ish haqini nazorat qilishning u yoki bu tizimidan foydalanish samaradorligini amaldagi ishlagan soatlari asosida aniqlash va oshirish , tegishli vazifalarни bajarish sifatini baholash, zamonaviy sharoitlar bilan bog'liq ravishda muntazam ravishda sertifikatlash va malaka standartlarini qayta ko'rib chiqish mumkin.

Istiqlolli va malakali rahbar kadrlar menejerlari bilan birgalikda xodimlarning malakasini oshirishni boshlashi kerak, chunki bu joriy ishlab chiqarish vazifalarining bajarilishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardosh darajasiga erishishni kafolatlaydi. Ish haqini tashkil etish va korxona xodimlarini boshqarishni baholash tizimi korxona va individual xodimning maqsadlarini maksimal darajada yaqinlashtirish asosida korxona maqsadlariga nisbatan javobgarligi bilan birgalikda qabul qilish xodimlarining ish qobiliyati, malakasi va amaliy ko'nikmalari, tajribasi va mahoratidan samarali foydalanishga qaratilgan.

Mehnat resurslaridan foydalanishni ichki nazorat qilish tizimini baholashni takomillashtirish maqsadida biz barcha jihatlarni iloji boricha keng qamrab oladigan integral baholash tizimidan foydalanishni taklif qilamiz korxonaning inson kapitalining ishlashi va ishlatilishi quyidagilarni o'z ichiga b'oladi:

- xodimlarni rag'batlantirish tizimining rivojlanishini baholash, bu xodimlarga martaba zinapoyasida o'sishga imkon beradi, tashkilotga shaxsiy hissasi va xodimning kasbiy mahorati bilan birgalikda ish haqini oshiradi;

- xodim uchun malaka oshirish va o'qitish uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning yurish chastotasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va ushbu qarorni o'z vaqtida nazorat qilish;

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

-ishlab chiqarish dasturi va lavozim tavsiflari asosida xodimlarning mehnat hissasi sifatini baholash;

-kadrlar bo'limi va kasaba uyushmasi orqali korxona xodimlarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash;

-jamoada uyg'un jamoa va unda do'stona muhit yaratish orqali (qo'shma korporativ tadbirlar, qo'shma dam olish, korporativ madaniyatni rivojlantirish va turli xil ommaviy va bayramona tadbirlar orqali) jamoada mos psixologik va hissiy yig'ilish yaratish.

Xodimlarni boshqarish va ish haqini ichki nazorat qilishning samarali tizimini yaratishda ishlarning funktsional ro'yxatini shakllantirishquyidagilarni o'z ichiga oladi:

-korxona rahbariyatiga turli xil strategiyalarni ishlab chiqishda, nizoli vaziyatlarning oldini olishda yordam berish;

-xodimlarning malakasini oshirish, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, bilim, tajriba va tajribadan samarali foydalanish uchun sharoit yaratish KOB;

-mehnat intizomini mustahkamlash yo'nalishlarini ishlab chiqish;

-mehnat xarajatlarini boshqarish (ijtimoiy xarakterdagи ish haqi va to'lovlar);

-ish haqini baholash variantlarini ishlab chiqish va uni rag'batlantirish;

-xodimlarni shakllantirishning samarali usullarini ishlab chiqish, xodimlarga bo'lgan ehtiyojni bashorat qilish;

-xodimlarning psixologik muvofiqligini hisobga olgan holda mehnat jamoasini yollash;

-kadrlar zaxirasini yaratish va maxsus o'quv dasturlari bo'yicha xodimlar bilan tegishli ishlarni olib borish;

-samarali boshqaruv apparatini yaratish korxonaning menejerlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

-kadrlar bilan ta'minlash bilan bog'liq hujjatlar (kartalar, anketalar, tavsiflar, sertifikatlar, sertifikatlashtirish materiallari) bilan ish yuritish va maxsus ishlarni yuritish;

-attestatsiya tadbirlarini o'tkazish;

-mehnat shartnomalarini tuzish, tariflarni o'tkazish, xodimlarni rasmiy ravishda ilgari surishda yordam berish.

Natijalarни muhokama qilish

Inson kapitalini ichki nazorat qilish tizimining samaradorligi xodimlarni

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

boshqarish samaradorligini baholash, mehnat intizomini mustahkamlash, qulay mehnat sharoitlarini yaratish xarajatlari darajasini optimallashtirish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning progressiv tizimlarini ishlab chiqish bilan bog'liq iqtisodiyot bilan belgilanadi.

Biz inson kapitalidan foydalanish tizimini ichki nazorat qilish tizimini integral baholash ko'rsatkichlari ro'yxatini ishlab chiqdik (jadval.1.). Ushbu jadvalni maksimal ballga muvofiq to'ldirish ishlab chiqarish uchastkalari rahbarlari, smena boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi.

1-jadval Ichki nazorat tizimini integral baholash ko'rsatkichlari inson kapitalidan foydalanish

| Ko'rsatkichlar | maksimal ball |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| 1. Xodimlarni rag'batlantirish tizimini rivojlantirish | 5 |
| 2. Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish uchun imkoniyatflarning mavjudligi | 5 |
| 3. Xodimlarning mehnat hissasini baholash (lavozimlar bo'yicha) | 5 |
| 4. Kadrlar bo'limi va kasaba uyushmasi orqali xodimlarning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash | 5 |
| 5. Qulay psixologik va hissiy muhitni yaratish | 5 |
| 6. Mehnat intizomini mustahkamlash | 5 |
| 7. Ish haqini va uning rag'batlantiruvchi qismini takomillashtirish | 5 |
| 8. Korxona ehtiyojlari va xodimlarning tuyofiqligini hisobga olgan holda xodimlarni joylashtirish | 5/5 |
| 9. Ish yuritishni optimallashtirish | 5 |
| 10. Attestatsiya tadbirlarini o'tkazish | 5 |
| jami: | 50 |

Jadvalda keltirilgan individual parametr bo'yicha ballarning o'zgarishini tahlil qilish inson kapitalidan foydalanishni ichki nazorat qilish tizimining yomonlashishi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi va uni takomillashtirish bo'yicha keyingi ishlarning yo'nalishini ko'rsatadi.

Mehnat xarajatlarini zamonaviy tahlil qilish, agar katta miqdordagi ma'lumotlar dasturlaridan foydalangan holda yagona axborot tizimi sifatida qayta ishlangan bo'lsa, amaliy ahamiyatga ega bo'ladi: "1C buxgalteriya", "1C Enterprise", "bank-mijoz" va boshqalar. Shu bilan birga, tijorat sirlari va iqtisodiy xavfsizlikka rioya qilish bo'yicha

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

chora-tadbirlar yo'lga qo'yildi. Shunday qilib, it texnologiyalaridan foydalanish quyidagilarga imkon beradi: ish haqi xarajatlarini boshqarish nazorat-tahlil tizimining ma'lumotlarini fiskal tizimda va banklarda ishlataladigan dasturiy mahsulotlarga eksport qilish, ularning asosiy funktsiyalari bilan bir qatorda har xil hisobotlarni to'ldirish funktsiyalarini bajarish: moliyaviy, statistik va soliq.

Xulosa

Qishloq xo 'jaligi korxonalari xodimlarini rag' batlantirishning samarali mehnatini oshirishga qaratilgan tizimlari tahlilini modernizatsiya qilishning takomillashtirilgan va ishlab chiqilgan mexanizmlari uning sifatini ham oshirishga imkon beradi.

MANBALAR RO'YXATI

1. Jurkina T. A. mehnat resurslaridan foydalanishni nazorat qilishni axborot bilan ta'minlash / T. A. Jurkina, T. V. Sabetova//agrosanoat majmuasini ilmiy va texnologik rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari. Milliy ilmiy- amaliy konferentsiya materiallari, 2019, 152-157 betlar.
2. Ravenova A.N.Rossiya iqtisodiyoti doirasida ish haftasining davomiyligi masalasi/ A. N. Ravenova, N. M. Shevtsova // innovatsion iqtisodiyot: rivojlanish istiqbollari va mukammallik, 2020, 1 (43), 59-65 betlar.
3. A. N. ravveva raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalining tarmoq shakllari / A. N. Ravveva, N. A. Gerasimova, A. M. Kulik, N. M. Shevtsova // Voroneja davlatagrar universiteti Byulleteni, 2019, jild.4 (63), 194-202 betlar.
4. Ravvova A. N. korxona xodimlarining motivatsiyasini oshirish bo'yicha chora - tadbirlarning iqtisodiy samarasini ishlab chiqarishni tashkil etish nazariyasi va amaliyoti. Aqlii korxonalarini tashkil etish va boshqarish samaradorligi: muammolarva echimlar. Xalqaro materiallar- mahalliy ilmiy va amaliy konferentsiya. Sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish nazariyasi va amaliyoti ". Voroneja davlat texnik a universiteti, 2017, 131-135 betlar.
5. Sabetova T. V. inson salohiyati sifati va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'zaro ta'siri/ moliyaviy gazeta, 2018, no. 2 (41), 70-81 betlar.
6. Sabetova T. V. mehnat bozorida shaxsiy raqobat qobiliyati: tarkibiy elementlarning tarkibi va tasnifi элементов // Voronej davlat inje nernye Technologies gazetasi, 2016, no. 3 (69), 274-282-betlar.

GIYOHVAND MODDALAR VA ULARNING YOSHLARGA TA'SIRI

Tashpulatova Ma'rifat Eshmurodovna

Jarqo'rg'on tumanidagi 47-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Shamayeva Muxabbat Baratovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assistenti

Annotatsiya: Barchamizga malumki, giyohvand moddalarni qabul qila boshlagan insonning, giyohvand modda iste'moli uning doimiy odatiga aylanadi. Bu illatga o'rgangan inson mehnatga yaroqsiz bo'lib qoladi. Natijada u jinoyatga qo'l urishga majbur bo'ladi. Ya'ni navbatdagi giyohvandlik vositasini qabul qilish maqsadida o'g'irlikni o'z uyi – oilasidan boshlaydi. Giyohvandlik va giyohvandlikning yosh avlod tarbiyasiga, insoniyat kelajagiga katta zarar yetkazishi butun jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Shuning uchun ham bu falokatga qarshi kurash hozirgi kunda yer yuzidagi global muammolardan biriga aylandi. Asr vabosiga qarshi kurashish barchamizning ishimiz. O'zini shu yurt farzandi deb bilgan har bir fuqaro bu harakatdan chetga chiqmasligi kerak. Bu jarayon umummilliy kurashga aylanishi kerak. Shundagina minglab yoshlarning kelajagini, oilalarimiz tinchligini asrab avaylaymiz.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, yoshtar, eyforiya, abstinent, zaharli modda, tolerantlik, heroin.

Giyohvand modda-opiy mutaxassislarni aytishlaricha, Hindistondan Sharqiy, Janubiy Osiyoga kirib kelgan. Keyinchalik 50-60 yillarda Yevropada, Osiyo mamlakatlariga tarqalgan. 80-yillarga kelib yer sayyorasida giyohvandlik ancha kuchaygan. O'rta Osiyo, Qozog'iston, Kavkaz, Janubiy Ukraina, Belorusiya va Uzoq Sharqda yovvoyi ko'knor va kanop o'simliklari ko'p o'sgan. Shu sababli bu joylarda gashish va sun'iyopiy (heroin) pereparatlarini iste'mol qilish rivojlangan. Keyingi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarida giyohvand moddalarni iste'mol qilish ko'paygan. Afg'oniston narkotik moddalarni yetishtirish bo'yicha dunyoda oldingi o'rinda turadi. Narkotik moddani birinchi marta totib ko'rgandayoq odam o'zning sog'lom hayotiga nuqta qo'yishi mumkin, - deyishadi mutaxassislar.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Davlatimiz sog‘lom turmush tarzini hosil qilish uchun yoshlarni ehtiyoj qilishga e’tibor berib turli xil jaholatparastliklardan saqlash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1987 yil 7-dekabrdagi qaroriga asosan BMT bosh Assambelyasi tomonidan har yili “26 iyun Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni” deb e’lon qilingan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Biz narkotik moddalar tarqatilishining halokatli oqibatlarini sergaklik bilan baholagan holda, bu illatga qarshi kurashda sa’y-harakatlarimizni birlashtirishimiz zarur. O‘zbekiston barcha manfaatdor mamlakatlar va tashkilotlar bilan bu borada hamkorlik qilishga tayyor”, - degan edilar. 1993 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish va jinoyatchilikni oldini olish Boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi Toshkent shahrida ochilgan u ayni kunlarda ham faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi 1995 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961 yildagi “Narkotik moddalar to‘g‘risidagi” Konvensiyasiga, 1971 yildagi “Psixotrop vositalar to‘g‘risidagi” va 1988 yildagi “Narkotik moddalar va psixotrop vositalarning g‘ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risidagi” Konvensiyalariga a‘zo bo‘lib kirgan. 1996 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha Milliy axborot – tahlil Markazi tashkil etildi va u hozir faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 1999 yilda esa “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan. Giyohvandlikka qarshi kurashish bo‘yicha bir necha me’yoriy hujjatlar qabul qilinganiga qaramasdan bu illat nima uchun borgan sari ko‘payib bormoqda.

Giyohvandlik narkomaniya, bangilik —narkotik moddalarga o‘rganib qolish, ruju qilish, aniqrog‘i tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori moddalari)ni vaqtincha yoki surunkasiga iste’mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati.

Giyohvandlik organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o‘zgarishiga sabab bo‘ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Giyohvandlikda o‘zini to‘xtatib bo‘lmaydigan darajada giyohvand moddalarni iste’mol qilish mayli paydo bo‘ladi, giyohvand moddaning miqdoriga nisbatan ehtiyoj, ruhiy va jismoniy bog‘liqlik ortib boradi. Giyohvandlik asta-sekin boshlanib, surunkali davom etadi. Giyohvand moddalar dastlab xushnudlik, dimog‘chog‘lik (qarang Eyforiya), xotirjamlik hissini uyg‘otib, kayf qildiradi, keyin bora-bora bu kasallikka aylanadi. Ayrim hollarda vrach buyurgan va bemorning ruhi hamda kayfiyatini oshirish xususiyatiga ega bo‘lgan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

3. Sotnik, S., Matarneh, R., & Lyashenko, V. (2017). System model tooling for injection molding. International Journal of Mechanical Engineering and Technology, 8(9), 378-390.
4. Nevliudov, I., & et al.. (2020). Method of Algorithms for Cyber-Physical Production Systems Functioning Synthesis. International Journal of Emerging Trends in Engineering Research, 8(10), 7465-7473.
5. Maksymova, S., Matarneh, R., Lyashenko, V. V., & Belova, N. V. (2017). Voice Control for an Industrial Robot as a Combination of Various Robotic Assembly Process Models. Journal of Computer and Communications, 5, 1-15.
6. Sotnik, S., Mustafa, S. K., Ahmad, M. A., Lyashenko, V., & Zeleniy, O. (2020). Some features of route planning as the basis in a mobile robot. International Journal of Emerging Trends in Engineering Research, 8(5), 2074-2079.
7. Babker, A. M., Abd Elgadir, A. A., Tvoroshenko, I., & Lyashenko, V. (2019). Information technologies of the processing of the spaces of the states of a complex biophysical object in the intellectual medical system health. International Journal of Advanced Trends in Computer Science and Engineering, 8(6), 3221-3227.
8. Nevliudov, I., Yevsieiev, V., Lyashenko, V., & Ahmad, M. A. (2021). GUI Elements and Windows Form Formalization Parameters and Events Method to Automate the Process of Additive Cyber-Design CPPS Development. Advances in Dynamical Systems and Applications, 16(2), 441-455.
9. Mustafa, S. K., Yevsieiev, V., Nevliudov, I., & Lyashenko, V. (2022). HMI Development Automation with GUI Elements for Object-Oriented Programming Languages Implementation. SSRG International Journal of Engineering Trends and Technology, 70(1), 139-145.
10. Sotnik, S., & Lyashenko, V. (2022). Prospects for Introduction of Robotics in Service. Prospects, 6(5), 4-9.
11. Ahmad, M. A., Sinelnikova, T., Lyashenko, V., & Mustafa, S. K. (2020). Features of the construction and control of the navigation system of a mobile robot. International Journal of Emerging Trends in Engineering Research, 8(4), 1445-1449.
12. Abu-Jassar, A., & et al. (2024). The Optical Flow Method and Graham's Algorithm Implementation Features for Searching for the Object Contour in the Mobile Robot's Workspace. Journal of Universal Science Research, 2(3), 64-75.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

13. Al-Sharo Y., & et al. (2023). A Robo-hand prototype design gripping device within the framework of sustainable development. Indian Journal of Engineering, 20, e37ije1673.
14. Yevsieiev, V., & et al. (2024). Object Recognition and Tracking Method in the Mobile Robot's Workspace in Real Time. Technical Science Research In Uzbekistan, 2(2), 115-124.
15. Basiuk, V., & et al. (2023). Mobile Robot Position Determining Using Odometry Method. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 227-234.
16. Abu-Jassar, A., & et al. (2023). Obstacle Avoidance Sensors: A Brief Overview. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(5), 4-10.
17. Yevsieiev, V., & et al. (2024). Active Contours Method Implementation for Objects Selection in the Mobile Robot's Workspace. Journal of Universal Science Research, 2(2), 135-145.
18. Igor, N., & et al. (2023). Using Mecanum Wheels for Radio Shuttle. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 182-187.
19. Akopov, M., & et al. (2023). Choosing a Camera for 3D Mapping. Journal of Universal Science Research, 1(11), 28-38.
20. Stetsenko, K., & et al. (2023). Exploring BEAM Robotics for Adaptive and Energy-Efficient Solutions. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(4), 193-199.
21. Yevsieiev, V., & et al. (2024). Using Contouring Algorithms to Select Objects in the Robots' Workspace. Technical Science Research In Uzbekistan, 2(2), 32-42.
22. Nevliudov, I., & et al. (2023). Mobile Robot Navigation System Based on Ultrasonic Sensors. In 2023 IEEE XXVIII International Seminar/Workshop on Direct and Inverse Problems of Electromagnetic and Acoustic Wave Theory (DIPED), IEEE, 1, 247-251.
23. Kuzomin, O., Ahmad, M. A., Kots, H., Lyashenko, V., & Tkachenko, M. (2016). Preventing of technogenic risks in the functioning of an industrial enterprise. International Journal of Civil Engineering and Technology, 7(3), 262-270.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

24. Al-Sharo, Y. M., Abu-Jassar, A. T., Sotnik, S., & Lyashenko, V. (2023). Generalized Procedure for Determining the Collision-Free Trajectory for a Robotic Arm. *Tikrit Journal of Engineering Sciences*, 30(2), 142-151.
25. Lyashenko, V., Laariedh, F., Ayaz, A. M., & Sotnik, S. (2021). Recognition of Voice Commands Based on Neural Network. *TEM Journal: Technology, Education, Management, Informatics*, 10(2), 583-591.
26. Attar, H., & et al.. (2022). Zoomorphic Mobile Robot Development for Vertical Movement Based on the Geometrical Family Caterpillar. *Computational Intelligence and Neuroscience*, 2022, Article ID 3046116.
27. Sotnik, S., & et al.. (2022). Agricultural Robotic Platforms. *International Journal of Academic Engineering Research*, 6(4), 14-21.
28. Lyashenko, V., & et al.. (2021). Modern Walking Robots: A Brief Overview. *International Journal of Recent Technology and Applied Science*, 3(2), 32-39.
29. Sotnik, S., & et al.. (2022). Overview of Innovative Walking Robots. *International Journal of Academic Engineering Research*, 6(4), 3-7.
30. Lyubchenko, V., & et al.. (2016). Digital image processing techniques for detection and diagnosis of fish diseases. *International Journal of Advanced Research in Computer Science and Software Engineering*, 6(7), 79-83.
31. Vasiurenko, O., Lyashenko, V., Baranova, V., & Deineko, Z. (2020). Spatial-Temporal Analysis the Dynamics of Changes on the Foreign Exchange Market: an Empirical Estimates from Ukraine. *Journal of Asian Multicultural Research for Economy and Management Study*, 1(2), 1-6.
32. Lyashenko, V., Matarneh, R., & Kobylin, O. (2016). Contrast modification as a tool to study the structure of blood components. *Journal of Environmental Science, Computer Science and Engineering & Technology*, 5(3), 150-160.
33. Lyashenko, V. V., Matarneh, R., Kobylin, O., & Putyatin, Y. P. (2016). Contour Detection and Allocation for Cytological Images Using Wavelet Analysis Methodology. *International Journal*, 4(1), 85-94.
34. Babker, A., & Lyashenko, V. (2018). Identification of megaloblastic anemia cells through the use of image processing techniques. *Int J Clin Biomed Res*, 4, 1-5.
35. Babker, A., Sotnik, S., & Lyashenko, V. (2018). Polymeric Materials in Medicine. *Sch. J. Appl. Med Sci*, 6, 148-153.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

- 36.** Kuzomin, O., Lyashenko, V., Dudka, O., Radchenko, V., & Vasylenko, O. (2020). Using of ontologies for building databases and knowledge bases for consequences management of emergency. International Journal of Advanced Trends in Computer Science and Engineering, 9(4), 5040-5045.
- 37.** Khan, A., Ahmad, M., Joshi, S., & Lyashenko, V. (2016). Synthesis of Alumina Fibre by Annealing Method using Coir Fibre. American Chemical Science Journal, 15(2), 1-7.
- 38.** Elasri, A., & et al. (2021). Multi-robot Visual Navigation Structure Based on Lukas-Kanade Algorithm. In International Conference on Artificial Intelligence and its Applications, Cham: Springer International Publishing 534-547.
- 39.** Zhao, Y., & et al. (2021). Deep lucas-kanade homography for multimodal image alignment. In Proceedings of the IEEE/CVF conference on computer vision and pattern recognition 15950-15959).
- 40.** Elasri, A., & et al. (2023). Mobile Robot Visual Navigation Systems using Optical Flow. In 2023 2nd International Conference on Electronics, Energy and Measurement (IC2EM), IEEE, 1, pp. 1-6.
- 41.** Xue, Z. (2023). Analysis of simultaneous localization and mapping technology for mobile robot based on binocular vision. In 2023 IEEE 2nd International Conference on Electrical Engineering, Big Data and Algorithms (EEBDA), IEEE, 1735-1739.
- 42.** Wu, L., & et al. (2022). Multi-robot collaborative SLAM Based on optimized ORB. In 2022 China Automation Congress (CAC), IEEE, 3578-3583.
- 43.** Bahnam, S., & et al. (2021). Stereo visual inertial odometry for robots with limited computational resources. In 2021 IEEE/RSJ International Conference on Intelligent Robots and Systems (IROS), IEEE, 9154-9159.
- 44.** Leonida, K. L., & et al. (2022). A Motion-Based Tracking System Using the Lucas-Kanade Optical Flow Method. In 2022 14th International Conference on Computer and Automation Engineering (ICCAE), IEEE, 86-90.
- 45.** Abdelaziz, S. I. K., & et al. (2020). Low-cost indoor vision-based navigation for mobile robots. In Proceedings of the 33rd International Technical Meeting of the Satellite Division of The Institute of Navigation (ION GNSS+ 2020), 2560-2568.
- 46.** Blachut, K., & Kryjak, T. (2022). Real-time efficient fpga implementation of the multi-scale lucas-kanade and horn-schunck optical flow algorithms for a 4k video stream. Sensors, 22(13), 5017.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH -BUGUNGI KUNDA DOLZARB MASALADIR

Eshkaraev Ulugbek Choriyevich

DTPI dotsenti,

Alimova Dilfuza Yaxshibayevna

DTPI o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Maqolada so'nggi yillar davomida O'zbekistonda yoshlarda fikrlash qobiliyatini, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilayotganligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan kitobxonlik ko'nikmalarining keyingi darajasi kitobxonlik malakasi ekanligi va tegishli yosh davr o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari yetakchi o'rinn egallashi kerakligi haqida fikr yuritilgan.

Har qanday jamiyatda shaxslarning fikrlash malakasiga egaliklari, qolaversa, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda kreativ, innovatsion flkrlash qobiliyatini o'zlashtira olishlari badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlami o'qishga nisbatan ijobiy munosabatga egaliklariga bog'liq. Shu sababli so'nggi yillar davomida O'zbekistonda yoshlarda fikrlash qobiliyatini, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berishga harakat qilinmoqda.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida insoniyat uchta mo"jizaviy ne'mat ya'ni— moddiy va ma'naviy ashyo- nutq, yozuv va kitobga ega bo'lgan.

Og'zaki bayon etilgan fikrlarni avloddan avlodga uzatishda ularda ifoda etilgan asl maqsad, g'oya, qarashlar asrdan asrga o'tishda o'zining asl ma'nosи va mazmunini saqlab qola olmaydi. Ba'zan shaklan, ko'p holatlarda mazmunan o'zgaradi. Yozma bayon etilib, boshqalarga uzatilgan har qanday fikr, g'oya, qarash o'zining asl "qiyofasi"ni, shaklini, shu bilan birga hajmini o'zgartirmay keladi.

Markaziy Osiyoda kutubxonalar o'tmishdayoq juda rivojlangan bo'lib, ular asosan xon saroylari va madrasalar tasarrufida bo'lib kelgan. Mamlakat hukmdorlari kutubxonalarning ravnaqi, ularni boyitish, xattotlar bilan ta'minlash sohasida doimiy g'amxo'rlik qilib kelganlar.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Kitobni ulug'lash, bolalar o'rtasida ilm-ma'rifat asoslarini targ'ib qilish maqsadida kutubxona tashkil etishda jadidchilik harakatining vakillari ham ibrat ko'rsatgan. Masalan, ma'rifatparvarlardan biri Ishoqxon Ibrat o'z uyida "Kutubxonai Ishoqiya" deb nomlangan kutubxona tashkil qilgan. Ushbu kutubxona fondidan o'zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida yaratilgan adabiyotlar o'rinni o'lgan. Isoqxon Ibratning kutubxonasi nafaqat u o'qitgan o'quvchilarga, shuningdek, qishloq aholisiga ham xizmat qiigan. Kutubxonadagi kitoblar ularning xarakteri, yo'nalishiga ko'ra bir necha bo'limga ajratilgan.

Ming afsuski, har qanday yaxshi kitob ham o'quvchi ya'ni iste'molchiga yetib bormas ekan, ko'zlagan ulug'ver maqsadlarimizga to'liq erisha olmaymiz. Shu sababli noshirlar o'z ishini zamonaviy bozor talablariga moslangan holda o'quvchilarga yanada yaqinroq bo'lishga intilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan kitobxoniik ko'nikmalari (kitobni mavjud talablarga muvofiq ota-onalar, o'qituvchi, kutubxonachi va volontyorlar yordamida o'qishni o'rganish)ning keyingi darajasi kitobxonlik malakasi (kitobni mavjud talablarga muvofiq ota-onalar, o'qituvchi, kumbxonachi va volontyorlar yordamiziz, mustaqil o'qishni o'rganish)ning shakllanishi bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshining yuqori bosqichlaridayoq asar qahramonlarining tuyg'ulari, o'y-fikrlari, ichki kechinmalari, hayotiy intilishlarini his qilish, syujetning rivojlanishini kuzatib borish, asarda bayon etilgan voqeя, hodisalarni bir-biri bilan o'zaro taqqoslash kabi sifatlar rivojlanadi. Boshlang'ich sinflarda esa ushbu ko'nikmalarning malakalarga aylanishini ta'minlash maqsadga muvofikdir.


So'nggi yillarda nashriyotlar tomonidan ham milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini chop etish tashabbusi ilgari surilmoqda. "Yangi asr avlod" nashriyoti mazkur tashabbusning yetakchisi sifatida "Kamolot kutubxonasi" rukni ostida milliy va jahon adabiyotining 100 dan ortiq nodir namunalarini nashrdan chiqardi.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tizimidagi nashriyot-matbaa ijodiy uylari esa "O'zbekiston pochtasi" bilan hamkorlikda "Pochta orqali kitob" aktsiyasini yo'lga qo'ydi. Aktsiya doirasida Toshkent, Nukus shahri hamda viloyatlar markazlaridagi ko'chalar, hiyobonlar, bozorlar, metro, avtobus bekatlari, mакtab, litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa aholi gavjum joylarga kamida 2 tadan kitob targ'ibotiga bag'ishlangan zamonaviy dizayndagi ijtimoiy reklama

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

bannerlari joylashtirildi. Bannerlarda "Matbuot va axborot agentligi tavsiya etadi" ruknida "Bolangizga kitob sovg'a qiling!", 'Farzandingizga kitob o'qib bering!', 'Nabirangiz bilan birga kitob o'qing!' da'vati ostida oilaviy kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan matnlar yozilgan.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini sbakllantirish murakkab pedagogik jarayon. Uning samarali tashkil etilishi boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ushbu jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi. Binobarin, tegishli yosh davr o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari yetakchi o'rinn egallaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining pedagogik-psixologik asoslari, tashkiliy-metodik talablaridan yetarli darajada xabardor bo'l salargina kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin.



1-Rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish jarayoni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. У.Ч.Эшкораев. «Укувчи-талаба креатив фаолиятини ривожлантиришда инновацион таълим технологиялардан фойдаланиш». Илмий-услубий маколалар туплами. Тошкент. 2019 й.1-китоб. 23-26 бетлар.

2. Eshkaraev U.Ch. Analysis of the situation in the lesson process. Emergent: Journal of educational discoveries and lifelong learning (EJEDL) 2022. Dec. 284-286 peg.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

3. Eshkaraev U. Ch, Bobolov N.T. Methods of intensive development of creative activity of primary school students. Asian journal of research in social sciences and humanities. Vol. 11, Issue 10, Oktober 2021.
4. Eshkaraev U. Ch. Practical activity of the student in performance of laboratory works in physics. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 11, Issue 5, May 2022.
5. Eshkaraev U. Ch. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi. "Talqin va tadqiqotlar" Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. №4. 30 may. 2022 y.
6. Alimova D. Ya. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi o'rganadigan va ishlab chiqadigan masalalar. Boshlang'ich ta'lif tizimida tabiiy fanlarni o'qitishdagi kreativ tendensiyalar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Denov. 2023 yil.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

SURXONDARYO VOHASI MILLIY KIYIMLARINING SHAKILLANISH TARIXI

Nurullaeva Ruxshona

Termiz davlat universiteti 2-kurs milliy libos, kashtachilik va to'qimachilik yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimdan to hozirgacha bo'lgan an'anaviy, betakror liboslarini ko'rsatish, Surxon hududida saqlanib kelinayotgan milliy liboslarining etnoxususiyatlari aks ettirish va ularning davomiyligini anglatishdan iborat bo'lgan ma'lumotlar haqida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Milliy libos, rang, ip, gazlama, to'qimachilik, kiyim-kechaklar, mato, o'tmish, kiyim.

Liboslar nafaqat insonlarning tabiiy va estetik ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga ularda har bir millatning urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotiyligi, quvonchli yohud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi. Kiyim jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismidir. Bir tomondan, u inson mehnati mahsuli sifatida ma'lum bir moddiy qiymatga ega bo'lib, ma'lum bir ehtiyojlarni qondirsa, ikkinchi tomondan u amaliy-bezak san'ati namunasi hamdir.

O'zbek xalqining o'tmishdagi kiyim-kechaklari bilan bog'liq ma'lumotlarni arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qadimiy katta devoriy suratlar, turli buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o'rta asrlardagi kitob miniatyuralari beradi. O'rta asrlarga oid miniatyuralar o'zbek kiyimlarining o'ziga xos uslubi, ya'ni tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini ko'rsatuvchi noyob namunalardir. Xalqning kiyim-kechaklaridagi o'zgarishlar, asosan, XX asr boshlarida sezilarli ravishda namoyon bo'ladi va undagi transformasiya, asosan, shaharlarda ochiq ko'zga tashlanadi. XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoga Rusiyadan ip gazlama va boshqa matolarning keltirilishi sababli XIX asr oxiri va XX asr boshida mahalliy aholi orasida asosan fabrikada tayyorlangan ip gazlamalar: chit, bo'z, xom surpdan tikilgan kiyim-kechaklarni kiyish rasm bo'lgan. Boy-badavlat kishilar esa kimxob,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ipak, atlas, duxoba, rang-barang movutlarni sotib ola boshlaganlar. Shunga qaramay, kosiblar dastgoxidan chiqqan mahalliy gazlama: mato, bo‘z, nimshoyi kabi gazmollar (adras, beqasam, podshoi, kimxob, xonatlas, katakshoyi kabilar)ning turli xillariga ehtiyoj katta bo‘lgan.

Bugungi kun zamonaviy o‘zbek liboslari shaklan katta o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, an’anaviy bichim yangi ko‘rinishlarda yashashda davom etmoqda. Ayniqsa mustaqillik yillarida milliy xunarmandchilikka bo‘lgan e’tiborning kuchayishi milliy mato to‘quvchiligining gurkirab rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Natijada milliy matolardan turli bichim va shaklda tikilgan liboslар kundalik va bashang liboslар qatoridan o‘rin olib, an’ana va qadriyatlar asrlar osha yashab qolishini yana bir bor tasdiqladi. Hozirgi kunda kiyinish madaniyati-ma’naviyatimizni aks ettiruvchi omillardan biri hisoblanib, yoshlarning, ayniqsa, qizlarning kiyinish madaniyati ko‘pchilik e’tiborida. Shunday ekan, ularning qalbida milliy urf-odat, an’analarga mehr uyg‘otish, qizlarni “zamonaviy” deb atalmish ochiq-sochiq kiyinrishdan asrash, ya’ni kiyinish odobiga roya qilishga o‘rgatish, ularning estetik didini o‘sirish dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko’rsatdiki, milliy libosni, hatto eng an’anaviy ko‘rinishida ham, o‘zgarmagan deb hisoblash mumkin emas: u ma’lum bir evolyutsiyani, ba’zan esa shakllarning o‘zgarishini ko’rsatadi. O’rta yoshli odamlar ko’pincha 20-asrning 40-yillarida ishlab chiqilgan va tarqalgan milliy kiyim variantini kiyishadi. Keksalar, ayniqsa, chekka qishloq ayollari har kim kiyib yurgan milliy liboslarini saqlab qolishadi. Farqlar faqat materialning rangi va sifati bilan chegaralangan.

O‘zbek xalqining kiyim-kechaklari yangi xususiyatlarni o‘ziga singdirib, milliy an’analarni asrab-avaylashda yanada boyib boraveradi. O‘zbeklarning zamonaviy liboslari takrorlanadi. Shahar va qisman qishloq yoshlari, ayniqsa, ziyorilar orasidan, bugungi kunda Yevropa kiyimlarini kiyishadi, ammo ular ko’pincha milliy kiyimlarning ayrim elementlarini o‘z ichiga oladi.

An’anaviy o‘zbek libosi asosan, ustki ko‘ylak, ishton va chopondan, boshga do‘ppi, oyoqqa mahsi-kalish yoki etikdan iborat bo‘lgan. Erkak-ayol va bolalar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslар oddiy usulda, ba’zan qaychisiz va ulgusiz, yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani 2 ga buklab yelka tomoniga ko‘ndalangga 2 yeng bilan bir parcha

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

to‘rt burchak xishtak (qo‘ltig‘iga solingan)ni tikib qo‘yilavergan[1]. Erkaklarning an'anaviy yaktak ko‘ylagi uzunligi tizzagacha, ayollar va qizlarniki to‘pig‘igacha bo‘lgan. Farg‘ona vodiysida yaktak xildagi erkaklar ko‘ylagini qiyiq joyi vertikaliga (yirmochi) belgacha etsa, yana bir turining yirmochisi gorizontal holda bir egnidan ikkinchisiga qiyib cho‘zilgan. Har ikki turda ham uzunasiga yoqa o‘rnatilgan.

O‘zbek milliy liboslari juda yorqin, chiroyli, qulay bo‘lib, xalqning boy madaniy an'analari va turmush tarzining bir qismidir. Shaharlarda milliy libosdagi odamlarni topish kamdan-kam uchraydi, bugungi kunda u an'anaviy bayram tadbirlarida kiyiladi, ammo qishloqda u hali ham kundalik va dam olish kunlari liboslarining bir qismi bo‘lib xizmat qiladi. An'anaviy o‘zbek ayollar libosi xon-atlasdan tikilgan ko‘ylakning tunikaga o‘xshash oddiy qirqimlaridan, shuningdek, guldorlardan iborat. Bayramona kiyimlarda atlas mato va boy oltin kashta ishlatiladi. Ayollar bosh kiyimi bir vaqtning o‘zida uchta elementni o‘z ichiga oladi: do‘ppi, sharf va salla. Oltin yoki kumushdan yasalgan zargarlik buyumlari har doim barcha yoshdagি o‘zbek ayollarli libosiga ajralmas qo‘sishma bo‘lib kelgan.

Kashtado‘zlik naqshlari tasodifan tanlanmagan. U har doim sehrli yoki amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan. Chizmadan ijtimoiy mavqeni tushunish mumkin edi, ba‘zida unga boshqa ma’nolar ham kiritilgan. Masalan, ortiqcha oro bermay takrorlanadigan geometrik naqsh o‘ziga xos tumordir. To‘q ko‘k, qora rangdagi matolardan tikilgan liboslar O‘zbekistonning hech bir hududida kiyilmagan. So‘g’d naqshlari zardushtiylik ta’sirini saqlab qolgan. Ushbu mintaqadagi ranglar jamiyatdagi mavqega qarab tanlangan. Misol uchun, ayolning libosida ko‘k va binafsha ranglarning keng tarqalganligi erining yuqori mavqeい haqida gapiradi va yashil rangli naqshlar ko‘pincha dehqonlar va hunarmandlar tomonidan ishlatilgan.

Oyoq kiyimi mahsi (ichig‘i — orqasi yo‘q, tagligi yumshoq, to‘pig‘i yo‘q chiroyli etik) va dag‘al charmdan yoki rezinadan tikilgan etiklardan iborat bo‘lgan. Bu bugungi kungacha obro‘ga ega bo‘lgan juda qulay va issiq poyabzal edi.

An'anaviy o‘zbek kiyimidagi asosiy detallardan biri bu bosh kiyimdir. Markaziy Osiyoning ko‘pgina mamlakatlarida, jumladan, O‘zbekistonda milliy bosh kiyimi do‘ppi hisoblanadi. Do‘ppi nomi turkiy "tube" dan kelib chiqqan bo‘lib, "yuqori, tepa" deb tarjima qilinadi. Uni erkaklar, ayollar va bolalar kiyishadi. Faqat yoshi katta ayollar do‘ppi kiymaydi.

Endi yirik shaharlarda do'ppi kiygan odamni ko'rish kamdan-kam uchraydi va ko'pincha bu oilaviy va diniy bayramlar uchun kiyimning muhim detalidir. An'anaviy do'ppi tetraedral konussimon shaklga ega bo'lib, u qora rangda, 4 ta "qalampir" va 16 ta miniatyura kamar shaklida oq naqshli kashta tikilgan. Kundalik do'ppi "kalampir" eng oddiy va eng keng tarqalganlardan biridir, ammo uning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. O'zbekistonning har bir viloyatida o'ziga xos do'ppi bo'yи va naqshlari bor.

Eng boy xilma-xilligi bilan O'zbekistonda do'ppi tikish bo'yicha oltita asosiy mактаб mavjud: Farg'on'a, Toshkent, Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand, Buxoro va Xorazm-Qoraqalpoq[2]. Maxsus, tantanali tadbirlar uchun nafis do'ppilar mavjud - ular yorqin va rang-barang kashta va naqshlarga, tilla kashtalarga boy.

O'zbekistonning turli mintaqalaridagi liboslar bir-biridan farq qiladi. Shu ma'noda o'zbek liboslarini quyidagi mintaqalarga bo'linadi: Toshkent-Farg'on'a, Buxoro-Samarqand, Qashqadaryo-Surxondaryo. Shuningdek, hududlar bo'yicha ham o'ziga xoslikni tashkil qiladi.

O'zbekiston hududida turli madaniyatlar uyg'unlashgan hududlar ham mavjud. Mazkur madaniyatlarning o'zaro uyg'unligi liboslarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu Surxon vohasi liboslarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Surxondaryo vohasi O'zbekistonning janubida joylashgan. Ular iqlimining issiqligi bilan ajralib turadi. Tabiiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan xolda o'lka aholisining milliy kiyimlari ham tabiat sharoitlariga mos bo'lishi lozim. Kiyimlarning yorkin ochiq buyoklari, erkin bichimi va noyob, turli-tuman kashtalari kishilarning yuqori dididan dalolat beradi. Surxondaryo voxasida asrlar osha turli etnik guruhlar yashab kelmoqda, u yerda o'ziga xos tarixiy-madaniy etnografik voha vujudga kelgan bo'lib, an'anaviy madaniyatning yuragi hisoblanadi. 2001 yilda Boysun YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan xalq madaniyatining durdonasi deb tan olinganligi tasodifiy emas[3]. Ushbu mintaqqa uchun an'anaviy, o'ziga xos kiyimlar aholining xujalik yuritishi, estetik qarashlari asosidagi hayot tarzi va iqtisodiy omillarning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan xolda tayyorlangan. Kiyimlarda ajdoddalarning ko'p asrlik an'anaviy va badiiy yaratuvchanlik goyalari yakkol ifodalangan. Ularda boshqa elementlarga nisbatan xalqning milliy xarakteri, etnik tarixi ildizlariga borib taqaladigan an'analari, ijtimoiy munosabatlari va mafkuraning ayrim elementlari

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ko‘proq ifodalangan. U kishilarning moddiy farovonligi, ularning didlari, xujaligining ayrim o‘ziga xosliklari va oilaviy turmushining ba’zi tomonlarini aks ettiradi.

Surxondaryoda ayollarning "kiygich", "bosh" deb ataladigan bosh kiyimlari fakat ayni Surxondaryogagina xos bo‘lib, O‘zbekistonning boshqa joylarida uchramaydi. "Bosh" juda o‘ziga xos bosh kiyimi bo‘lib, u bir nechta vazifani bajargan:

1. Ayollar boshini issiq, sovuq va shamoldan asragan;
2. Unda ayollar turmushda tez-tez zarur bo‘lib turadigan mayda buyumlarni (ip, igna, to‘g‘nag‘ich va taroq) saqlaganlar.

Surxondaryoning ayollari qizil, olcha ranglarni juda yaxshi ko‘rganlar. Kiyim uchun yo‘l-yo‘l, sidirg‘a va yirik gulli abrli gazlamalarni tanlaganlar. Surxondaryoning ana’naviy xotin-qizlar libosi rangining yorqinligi bilan ajralib turadi. Xotin-qizlar libosiga quyidagilar kiradi: ichki va tashqi ko‘ylak, cholvor, ustki kiyim, bosh kiyim va taqinchoqlar.

Kundalik va bayram kiyimlari uchun ayollar, mahalliy, qo‘l-bola ip-gazlama va yarim shoyi matolardan yo‘l-yo‘l olacha, bo‘z, janda va hokazodan foydalanganlar. Boysunda olachaning “norpo‘sti”, “qirmizi”, “mozori” va “amiri” nomdagi turli xil navlarini ishlab chiqarganlar.

Kiyimlarga kashtalar nafaqat go‘zallik va estetik did berish uchun tikilgan, shuningdek ular diniy asoslarga ham ega bo‘lgan. Xususan bunday bezaklar ayollar, bolalar va kelinchaklarni yomon ko‘zdan asraydi, deb hisoblangan. Ayollarning kiyimlarini zargarlik bezaklarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Surxondaryoda zargarlik buyumlari xuddi kiyimlar kabi ushbu mintakaning etnik turmush tarziga xos bo‘lgan, alohida ajralib turadigan xususiyatlarga ega. Kumushdan ishlangan peshona bezaklari "sinsila" (silsila) deb atalgan. Ayollarning ziraklari turli-tuman bo‘lgan. Burunga taqiladiganlari "letuva" va "natti" deb atalgan. Surxondaryo ayollari zargarlik buyumlarini juda sevganlar va ko‘plab taqib yurganlar.

Surxondaryo aholisi milliy kiyimlarining noyob namunalari aholining ijtimoiy ahvoldidan kelib chiqqan holda taqdim etilgan: erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari; yosh ayollar, o‘rtal yoshdagi erkaklar va ayollar, keksalar kiyimlari.

Surxondaryo yana qadimiy yerosti saroylari va moddiy-madaniyat yodgorliklariga boy bo‘lib, ushbu o‘lkaning qadimiy madaniyati bundan dalolat berib turadi. Surxondaryo hududida arxeolog olimlar tomonidan topilgan Dalvarzintepa, Ayrитом, Sopollitepa, Fayoztepa, Bolaliktepa kabi qadimiy tarix, madaniyat va san’at

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

obidalaridan topilayotgan nodir ashylardagi tasvirlar bu joydagi liboslar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ayollar ko'ylagining yoqasi vertikal kesilgan bo'lib, ko'p joylarda butun bo'yiga gulli jiyak (tasma) tikilgan. Shahrisabz, Qarshi va Surxondaryo jiyak ip bilan but shaklida to'qilgan. Ko'pchilik joylarda yoshi katta ayollar oddiy jun, chilvir yoki qoramtil yo'l-yo'l mato parchasini jiyak qilib ishlatgan. Asrimiz boshlarida bunday ayol ko'ylaklari kam saqlangan.

Zamonaviy kiyimlarda milliy an'analar bilan Yevropa uslubi qo'shilib ketgan. Milliy matolardan zamonaviy ruhdagi turli bichimlardagi ko'ylak va kastyumlar xotin-qizlar o'rtasida urf bo'lgan. Milliy kiyimlar hayot tarzimiz va iqlim sharoitga moslangan bois, qishloq, xo'jaligida mashg'ul kishilar hozirgacha oq yaktakni ish kiyimi sifatida kiyadilar.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yevropacha kamzul (kamzo'l) paydo bo'lib, uni erkaklar ham, ayollar ham kiyagan. Erkaklarni kamzuli tik yoqali, uzunligi tizzagacha yetadigan, asosan qora matodan tikilgan, ayollarning kamzuli rang-barang duxobadan yoki beqasamdan beli tor qilib tikilgan[4]. Ko'ylak ustida yengsiz nimcha, ya'ni jiletka kiyish urf bo'lgan. Ingliz libosi tipidagi jaket ham yevropacha libos, palto va makintosh kabi ziylolar orasida tez tarqala boshlagan.

Kiyimlarda insonning ijtimoiy mavqeい, u yashagan joy va zamon, hayotidagi quvonchli yohud qayg'uli voqealar ham namoyon bo'ladi. Bu masala tarixini o'rganish ko'plab yo'qolib ketgan va ketayotgan bebahoh yodgorliklarimizning xilma-xillagini qayta tiklash va xalqimizning nodir merosini dunyoga tanitishga xizmat qiladi. Asosiy maqsad esa, qadimdan to hozirgacha bo'lgan an'anaviy, betakror liboslarini ko'rsatish, hududlarda (qishloq, shahar, tumanlar) saqlanib kelinayotgan farqlarni aks ettirish va ularning davomiyligini anglatishdan iboratdir.

Surxon milliy liboslarini o'rganish Surxon vohasi xalqining etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa hududlar va xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tadqiq etish bilan chambarchas bog'liqidir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezondir. Liboslarda urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotidagi quvonchli yoxud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Bizgacha yetib kelgan liboslar XIX asr oxiri — XX asr boshlariga taalluqli bo‘lib, qadimgi davrlarga oidlari saqlanmagan, chunki libos va matolar moddiy yodgorliklar ichida doimiy iste’molda bo‘lgan va oxirigacha foydalanilgan XX asr boshlarida ayollarga urf bulgan yangi bichivdagи ko‘krakburma ko‘ylak ham takomillashib borib, hozirgi kunda ayollarimizning sevimli an’anaviy kiyimiga aylangan[5]. Bu ko‘ylakning yuqori qismi - koketkasi gavdaga yopishib turgan, ko‘krakdan pastki qismi - esa, keng olingan va serburma qilib koketkaga tikilgan. Etakning gavdada keng turishi, bir tomondan tu pri bichivdagи ko‘ylaklar kabi o‘tirib-turgan va yurganda qulay bo‘lsa, ikkinchidan yozning issiq kunlarida salkin bo‘lgan.

Milliy libosimizda xalqimizning ming asrlik o‘tmishi, qadimiylar urf-odat va an’analari, didi, estetik qarashlari shuningdek o‘ziga xos xususiyatlari mujassam. Milliy liboslarimizda yoshlarga xos ibo va hayo aks etgan. Ayniqsa, ayollarimizning milliy liboslari masalasida biz xech ikkilamasdan o‘z milliylik xususiyatlarimizni targ‘ib etishimiz mumkin. Xozirgi paytda ko‘krakburma ko‘ylaklarni nafakat o‘zbek ayollari, balki o‘lkamizda yashayotgan boshqa millat ayollari ham yoqtirib kiyishadi.

Vaqt o‘tishi bilan, milliy liboslar keskin o‘zgarganligini, ammo eng zamonaviy variantlardan biri Sharkning eng qadimiylarini va tarixiy aloqani muvaffaqiyatlidir. Saqlab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzaeva Shaxrinsa, Asqarova Munojat Husanova O‘ZBEK MILLIY ETNO-LIBOSLARI TARIXIGA BIR NAZAR // Oriental Art and Culture. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-milliy-etno-liboslari-tarixiga-bir-nazar> (дата обращения: 23.02.2024).
2. D.Rahmatullayeva. Kostyum va moda tarixi: – Toshkent:«Niso-Poligraf», 2017
3. D.Rahmatullayeva, ILXodjayeva, F.Ataxanova . Libos tarixi / darslik.. -T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2015-yil. — 336 bet.
4. N. Sodiqova. “O‘zbeklarning milliy liboslari (XIX-XX asrlar)” Toshkent. Sharq – 2003 y
5. Binafsha Nodir. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Janubiy Surxon vohasi aholisi milliy liboslari // Moziydan sado. – Toshkent, 2003. – № 3-4. – B. 71. (Purple Rare. National costumes of the population of the Southern Surkhandarya oasis in the late XIX – early XX centuries // Echoes from Mazi. - Tashkent, 2003. - № 3-4.. – R. 71.)

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

PEDAGOGNING DARS JARAYONIDA MUAMMOLI VAZIYATLARGA PSIXOLOGIK YONDASHUVI

Dilnoza Usmonova

329-maktab

Annotatsiya: Ushbu maqola pedagogning dars jarayonida muammoli vaziyatlarga psixologik yondashuv mavzusida bo‘lib, unda maktab faoliyatida bo‘ladigan nizolar, vaziyatlarga to‘g‘ri yondashuv olib borish kerakligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Muammo, nizoli vaziyat, jamoa, faoliyat, psixologik yondashuv.

Аннотации: Данная статья посвящена теме психологического подхода педагога к проблемным ситуациям в ходе урока.

Ключевые слова: Проблема, конфликтная ситуация, команда, деятельность, психологический подход.

Annotation: This article is on the topic of the pedagogue’s psychological approach to problematic situations in the course of the lesson.

Keywords: Problem, conflict situation, team, activity, psychological approach.

O‘qituvchi o‘quvchilarga nisbatan muayyan holatda tursagina (bu holat ularning yoshiga qarab turlicha bo‘ladi) pedagogik ta’sir ko‘rsatishni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi. Mazkur holat o‘quvchilar bilan muomala sohasida o‘qituvchining asosiy yo‘l-yo‘rig‘idan iborat bo‘lib, u o‘quvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga monand bo‘ladi. Tarbiyaning mavjud tajribasini tahlil qilib, tajriba sinov ishi o‘quvchilarning yoshiga muvofiq ravishda o‘qituvchi holati (tutgan yo‘li) ning o‘zgarish mezonini aniqlashga imkon beradi. Bu o‘quvchilar jamoasiga nisbatan tashqi holatdan ma’lum darajada ichki holatga o‘tish, o‘quvchilarga bevosita ta’sir ko‘rsatishning kamayishi va bevosita ta’sirning ortishi jamoani boshqarish organlariga berish, har bir bola shaxsining ichki olamiga ko‘p ta’sir etishga o‘tishdir.

Turli yoshdagi o‘quvchilarning muomalasiga ta’sir ko‘rsatish sub’ekti bo‘lgan o‘qituvchi tutgan yo‘l va mahoratining umumlashtirilgan tavsifini quyidagicha tasavvur qilishi mumkin: quyi sinflarda o‘qituvchi tashkilotchi bo‘lib maydonga chiqadi. **V.Dalning** lug‘atiga qaraganda - tuzuvchi-ta’sis etuvchi (tashkil etish-yo‘lga

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

qo‘yish, qat’iy asoslash degan so‘zdan) ma’noni bildiradi. Pedagogning kichik yoshdagi o‘quvchilar hayotiga – ta’sir ko‘rsatishining asosiy mazmuni uni tashkil etish zarurati bilan belgilanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar jamoalarida talabchan va quvnoq tarbiyachi bo‘la oladigan, bolalarning faol ijodkorlik bilan to‘la hayotini tashkil etib, ular orasida o‘zaro xayrihoxlik, g‘amxo‘rlik vaziyatini, zavqli vaziyatni vujudsa keltira oladigan tarbiyachilar katta obro‘-e’tibor qozonadilar. Bolalar katta yoshdagi bunday kishilarni o‘z do‘satlari deb qabul qilshiga moyildirlar. Bunday munosabat eng yaxshi munosabatdir, chunki u katta yoshdagi kishiga tashkiliy vazifalarnin hal etilishini osonlashtiradi, tarbiya vazifalarini mohirlik bilan samarali hal etishga yordam beradi.

O‘smirlar o‘qiydigan sinflarda o‘qituvchining holati rahbar degan so‘z bilan ifodalanishi mumkin. **V.Dal** bu so‘zni quyidagicha, ya’ni ko‘rsatuvchi, murabbiy, ishboshi, boshlovchi deb ta’riflaydi. Pedagoglarning o‘smirlarga ta’sir ko‘rsatishining asosiy mazmuni ularning faoliyatiga rahbarlik qilish zarurati bilan belgilanadi, bu faoliyat o‘z-o‘zini tashkil qilishning ko‘proq ulushiii o‘ziga qamrab oladi, bu esa o‘qituvchining ta’lim tarbiya jarayoning rahbari sifatida, o‘quvchilarga quyidagi talablar mazmuinini ochib beradi. O‘smirlar pedagogik talablarni ongli va sidqidildan bajarishlari uchun talab mavzuiga nisbatan o‘qituvchi va o‘quvchining bir xil yo‘l tutishi zarurdir, u bilish nuqtai nazaridan qiziqarli bo‘lishi yoki amaliy jihatdan foydali bo‘lishi zarur, yoxud hissiyotlarni yengillashtirish va hokazolar uchun kerak, boshqacha so‘zlar bilan aytganda, jamoa faoliyat jarayonini qulaylashtirish zarurdir, aks holda talab samarasiz bo‘lib qoladi. Katta yoshdagi o‘smirlarga nisbatan o‘qituvchi homiy yoki tarbiyachi holatida turadi bu so‘zlar **V.Dal** lug‘atida “homiylik qiluvchi, g‘amxo‘r, serharakat” sifatida ta’riflanadi. Bunday holat shuni taqozo qiladiki o‘qituvchi faoliyatining shunday sohalarida, ya’ni bevosita aralashuv kam samara beradigan sohalarda, o‘quvchilarning o‘zaro harakatlariga alohida e’tibor berish lozim, bu esa pedagogdan katta yoshdagi o‘smirlarga o‘ziga xos homiylik qilishni talab etadi, bu avvalo ularning bu sohadagi ahvoli yaxshi bo‘lishi haqida bevosita g‘amxo‘rlikni o‘z ichiga oladi. Yuqori sinflarda o‘qituvchining holati konsultant, ya’ni muayyan sohada maslahatlar beruvchi mutaxassis so‘zi bilan ifodalanishi mumkin. O‘qituvchi yuqori sinf o‘quvchilari bilan muomala qilganda o‘tmish g‘oyaviy merosining muhim ahamiyatini tasdiqlab berish lozim. Bunday holda u keng muammolar bo‘yicha

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

maslahatchi bo'lib keladi va yuqori sinf o'quvchilariga samarali ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi.

Haqiqiy pedagog faqat bilimga emas, so'zalshish madaniyatiga ham ega bo'lishi kerak. Maktabda, umuman o'qish jarayonida 2 ta asosiy shaxs – o'qituvchi va o'quvchi bo'ladi. Bu ikkala shaxsning dars dars jarayonida, sinfdan tashqari ish olib borish jarayonida ularning bir-biri bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'quvchi shaxsi shakllanishida ta'limimiyy-tarbiyaviy jarayon effektiv ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi psixologik xususiyatini, qobiliyatini hisobga olgan holda unga murojaat qilishi kerak. Jaras jarayonida pedagog o'quvchi **shaxsini pastga urmaslikka** harakat qilishi, faqat buyruq, jerkish orqali tarbiyalamasligi kerak. O'quvchi o'zini va o'qituvchi huquqlarini mustaqil anglay bilishi kerak. Masalan, 8 yillik maktabning direktori shunday deydi: "Men bir o'zim o'quvchilar bilan kurashib kelaman, aslida esa, hamma kurashishi kerak". Bu maktabning direktori o'qishni, intizomni yaxshilashga intilyapti. Lekin buning uchun to'g'ri yo'lni tanlamaydi, ya'ni – o'quvchilarga qarshi kurash olib borishi, ularni o'z hohishiga mut'e qilish, shaxsni yerga urish. Shular natijasida quyidagi choralar ko'rildi: majlislarda sharmanda qilish, va'da berdirish, ota-onalarni chaqirish va hokazo. Natijada, bir-biriga o'quvchi va o'qituvchi bir-biriga qarama-qarshi bo'lib qoladi. Aslida esa o'quvchi bilan o'qituvchining maqsadi, yo'nalishi bir joyga qaratilgan bo'lib, ular hamkorlikda ish olib borishlari shart. Pedagog faqat bilim berib qolmay, balki boshqalarning va o'zining hayoti uchun ma'suliyatni his qiladigan shaxsni, fuqaroni tarbyailashi kerak. Bunga esa kurash orqali emas, gumanistik munosabatlar orqali erishiladi. Shunday munosabatlar orqali o'quvchi o'z taqdirini ona yurtining xo'jayini ekanligini his etishi, har tomonlama rivojlanishiga erishishimiz kerak.

Pedagog bilan o'quvchining munosabati bo'limida o'qituvchi katta rol o'ynaydi. Chunki u etakchi rolini bajaradi. Munosabat - pedagog faoliyatining eng asosiy professional qurolidir. Pedagogik munosabat esa - bu pedagogning o'quvchi bilan darsda, dasrdan tashqarida bo'lgan professional munosabat. Bu munosabat ijobiy psixologik klimat yaratish uchun qaratilgan. Noto'g'ri pedagogik munosabat o'quvchining ikkilanishia, xotirasi, diqqatining bo'linishiga, mustaqil fikr yurita bilish, xohishni keskin pasaytirib yuboradi. Natijada faqat o'qituvchiga emas, balki uning faniga ham o'quvchi tomonidan negativ qarash paydo bo'ladi. Pedagogik (faoliyat) munosabat, sosial-psixologik prosess singari quyidagi funksiyalari bilan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

xarakterlanadi: shaxsni anglash, informasiya almashish, faoliyatning tashkil etilishi, rollar almashinuvi, hamdardlik va o‘zini ishontirish. Munosabatning informasiyaviy funksiyasi, ma’naviy boyliklarni va materiallar almashinuvini ta’minlaydi, ta’limtarbiya jarayonida ijobjiy motivizasiya uchun sharoit yaratadi. O‘qituvchi uchun bolani tushuna bilish ularning ehtiyojlarini bilish muhim. Dars rejasini tuza turib, faqatgina informasiyani o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirish emas, balki, mustaqil o‘z fikrini bayon etishni ham inobatga olish zarur. O‘quvchini darsga qiziqtirish va rag‘batlantirib turish kerak.

Muammoli ta’limni amaliyotda qo’llash asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. Turli o‘quv fanlari bo‘yicha pedagoglar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- pedagogta’lim oluvchilarda dars mavzusi bilan bog‘liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo‘lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;
- muammoli vaziyatlarni hal etish darajalari:
- pedagog muammoni qo‘yadi va o‘zi yechadi;
- pedagog muammoni qo‘yadi va uning yechimini ta’lim oluvchilar bilan birlgilikda topadi;
- ta’lim oluvchilarning o‘zlari muammoni qo‘yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo‘llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai-nazardan o‘rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish; faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog‘liq xulosalar chiqarish;
- ta’lim oluvchilarning o‘zlari aniq savollar qo‘yishi va boshqalar.

Muammoli ta’limning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ta’lim oluvchining fikrlash doirasi va qobiliyatlarini o‘stirish, ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

- muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko‘nikmalarni ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko‘nikmalar an’anaviy o‘qitishdagidan ko‘ra ancha mustahkam bo‘lishi;
- nostandard muammolarni ko‘ra oluvchi, qo‘ya oluvchi va yecha oluvchi ta’lim oluvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;
- kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o‘zining xususiyatlariga egaligi.

“MUAMMOLI VAZIYAT” USULI

“Muammoli vaziyat” usuli - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usuldir.

“Muammoli vaziyat” usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” usuli qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” usulining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birligida muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Shu bilan birga, umumta’lim maktablarida o‘quvchi-o‘qituvchi, o‘quvchi-o‘quvchi, farzand-ota-onalar, o‘qituvchi ota-onalar o‘rtasida shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan nizoli va muammoli vaziyatlarni yechimini topish maqsadida “Ishonch quti”si tashkil qilish tavsiya etiladi. “Ishonch quti”ni tashkil etishning maqsadi amaliyotchi psixolog tomonidan o‘quvchilarga tushuntiriladi. Savollar va muammolar anonim tarzda beriladi. “Ishonch quti”siga tushgan savollar va muammoli vaziyatlarga amaliyotchi psixolog, quti yonida tashkil etilgan “Psixolog maslahati” burchagida tavsiyalar sifatida javob beradi. Savollarga aniq javob olinmasa, berilgan javobga aniqlik kiritish maqsadida amaliyotchi psixolog bilan muloqot o‘rnatilib borilishi mumkin. “Ishonch quti”ga tushgan savollar psixolog tomonidan qat’iy sir saqlanishi shart. Aks holda turli nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

FOYDALANILGAN ASOSIY ADABIYOTLAR HAMDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI RO‘YXATI

1. Yeldasheva G. Ta’lim texnologiyasi elementlaridan foydalanish. -T.: Lesson press, 2020
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - T.: Nihol, 2013
3. Xudoyqulov X.J. Pedagogik texnologiya ta’lim samaradorligining asosidir. – T.: Navro‘z, 2012 y.
4. www.psychology-online.net/docs/practicum1.html

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

**КЎЧИРУВЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МАҲАЛЛИЙ
ХАЛҚЛАРИНИНГ СИЁСИЙ, ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ.
(XIXасрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида)**

Турсунова Гавхар

Самарканд Давлат Тиббиёт университети ўқитувчиси

Туркистондаги мустамлакачилик тажрибаси ҳақида шуни таъкидлаш лозимки, Россия империяси сиёсий доираларининг асосий мақсади Туркистон ўлкасини босиб олишнишининг дастлаби даврларидан бошлаб империяда мавжуд қонунларни, бошқарув тизимини ўлкани бошқаришда қўллай бошлади. Туркистон ўлкаси босиб олинганидан бошлаб маъмурий бошқарув тизимида вилоятлар, уездлар, участка, посёлка ва қишлоқлар тарзидаги бошқарув тизими яратилди. Биринчи ўринда ер-сув масалалари тартибга олина бошлади. Барча ерлар давлат мулки деб эълон қилинди. Вақф мулклари аста секинлик билан қисқарип бориши натижасида маҳаллий аҳолининг диний эҳтиёжарига жуда катта салбий таъсир кўрсатилди.

Туркистон маъмурияти бутун мустамлака даврида узоқни кўзловчи ниятларда вақф мулкини, айниқса, вақф ерини мусодара этиш, қисқартириш чораларини кўрди. Вақф мулкини ташкил этувчи ердан, савдо дўконларидан, боғлардан, тегирмонлардан ва ҳоказолардан олинадиган даромад ҳисобидан мадрасалар, мактаблар, катта бўлмаган қишлоқларда эса масжидлар ҳам таъминланарди. Зеро, юзаки қараганда, мустамлакачи маъмуриятнинг Россиядан кўчириб келтирилганлар манфаатлари йўлида амалга оширилгандек бўлиб кўринган бу чоралар, аслида ислом таъсирини камайтириш, мусулмон муассасалари ролини заифлаштириш сиёсатининг таркибий ва энг асосий қисми бўлиб қолди. Вақф мулкининг тортиб олиниши, унинг миқдори зўрлик билан камайтириб борилиши маҳаллий деҳқонлар орасида ерсизлар ва ишсизлар сонини ошиб боришига олиб келди, натижада, улар кўпинча батраклар сафига кўшилиб кетарди.

Генерал-губернатор К.П. фон-Кауфман давридан бошлаб, 1873 йилдаёқ исломга ёндашув ҳамда туб миллатлар халқ оммаси орасида мафкуравий иш олиб боришига, Туркистонда мавжуд анъанавий таълим тизимини мустамлакачилик

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

мақсадларига мувофиқ тарзда ислоҳ қилишга ёндашувларининг ишлаб чиқилиши муносабати билан империя ҳарбий вазири Милютинга ёзилган мактубида «маънавий ва ижтимоий ҳаётида туб тафовутлар мавжудлиги туфайли» кўчманчи аҳолини ўтроқ аҳолидан ажратиш зарурлиги асослаб берилди ва кўчманчиларнинг руслар билан яқинлашувга мойиллигини таъкидлаб: «Биз ҳозирнинг ўзидаёқ, номаълум келажакка қолдирмай, улар орасида рус фуқаролигини ёйиш тўғрисида ташвиш тортишимиз ва бу билан, бир томондан, кўчманчиларни маданий халқлар оиласига олиб кириш борасида зиммамизда турган инсонпарварлик бурчимизни бажаришимиз ва иккинчи томондан, уларни ўзимизга яқинлаштириб, кўчманчилар орасида ёйила бошлаган мусулмонлик таъсиридан ажратиб олишимиз лозим», - деб ўқтирилди.

Туркистон генерал-губернаторлиги ва Даشت генерал-губернаторлиги мусулмон аҳолисининг анъанавий ўқув юртлари тизимини қисқартириш ва ўзгартириш бўйича Россия империяси ва мустамлакачи маъмурият сиёсатига эса «Россияда истиқомат қилувчи бегоналар таълими бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги империя қонунида (1870-йил март) таърифлаб берилган: «Ватанимиз ҳудудида истиқомат қилувчи барча бегоналарга таълим беришдан кўзланган пиравард мақсад, сўзсиз, уларни руслаштириш ва рус халқи билан қўшиб юборишдан иборат бўлиши лозим», - деган тезис асос бўлган.

Россия империясининг ҳукмрон доиралари, мафкурачилари ислом динига, мусулмонларга қарши экспансияни мусулмон халқларни сиёсий ва ғоявий пароканда қилиш учун зарур, деб хисобладилар, чунки бусиз ҳокимиятнинг мустамлакачи тузумини ҳамда Туркистонга кўчирилаётган рус аҳолининг иқтисодий, сиёсий мавқеининг ҳукмронлигини таъминлаб бўлмасди.

Россия империяси томонидан келтириб жойлаштирилган рус аҳолиси маҳаллий туб халқларга доимий тазиик ўтказиб туришнинг муҳим омили сифатида қарадарди. Дастраси йилларда Россия ҳукмрон доиралари мустамлакачи маъмуриятининг Туркистон бошқаруви учун маҳсус мўлжалланган ёндашув ва фаолият услублари бўлмаганлигини, фикримизча, куйидагича изоҳлаш мумкин: империя ҳукумати Фарбий Европа давлатлари, энг аввало Буюк Британия ва Франция билан муносабатлар янада мураккаблашиб кетишидан хавфсираб, XIX асрнинг 60-йиллари бошида қозоқ хонликларига кириб боришдан ташқари, Кўқон хонлиги ҳудудининг катта қисмини истило

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

етиш билан вақтингча кифояланиш ниятида эди. Устига устак, маълумки, 1865-йил августда Туркистон вилояти тузилганидан кейин империя ҳукумати шу вилоят ўрнига Россия протекторати остида бўлиши лозим бўлган Тошкент хонлигини тузишни мўлжаллаган эди. Оренбург генерал-губернатори Крижановский 1866-йил баҳорда шу мақсадда Тошкентга келганди. Бироқ бу факат дипломатик найранг эди, чунки Туркистоннинг ички маъмурий-худудий тузилишининг ўзи келажакда соф ҳарбий вазифаларни амалга оширишга мослаштирилган эди. Россия империяси туб халқларнинг қуролли қаршилик қўрсатишидан чўчиб, 1874 йилда Шимол (Сибир), Шимолий Кавказ, Туркистон мусулмон аҳолиси вакилларини ҳарбий хизматга жалб этишни расмий равищда тақиқлади.

Бироқ, К.П. фон-Кауфманга бу чора, шунингдек, мустамлака режимини мустаҳкамлаш бўйича кўрилган бошқа чоралар ҳам етарли эмасдек туюлди, шу боис, у ҳарбий вазирга ёзган маъруzmanомада: “Агар биз ўлкани бундан буён ҳам шу тарзда бошқарадиган бўлсақ, унинг аҳолиси (туб аҳоли назарда тутилмоқда—Г.Т.) бизни ҳукмдорлар деб ҳисобламай, ихтиёрида ҳар эҳтимолга қарши жиддий ҳарбий куч бўлган полиция агентлари деб адолатли равищда ўйлайди”, - деб таъкидлаганди. Гарчи империя ҳукмрон доиралари томонидан Кауфманнинг барча ислоҳотчилик таклифлари ҳисобга олинмаган бўлса-да, 1886-йилда қабул қилинган «Туркистон ўлкасини бошқариш тўғрисида Низом»га мувофиқ илгари либерал деб овоза қилинган ҳарбий-халқ бошқаруви маъмурий-полиция бошқарувига алмаштирилди.

Лекин ўлка, вилоят, уезд бошликлари, турли идоралар амалдорлари, анъанавий равищда асосан, Россия ҳарбийларидан тайинланар эди. Шу билан бирга Россиянинг ҳукмрон доираларида, Туркистондаги империяча истилочилик, мустамлакачилик сиёсатини қўллаб-қувватлаб чиққан рус зиёлилари мухитида қўп миллатли туб аҳолининг маданий, маънавий бойлиги ҳамда анъаналарининг мафкуравий таъсирини заифлаштириш усуллари, шунингдек, исломни инкор этиш ва руҳонийларнинг машҳур вакилларини мустамлака ҳокимлари тарафига оғдириш ёки православ руҳонийларининг миссионерлик фаолиятини ташкил қилиш билан баробар мусулмонлик салоҳиятига қарши ошкора таъсир қўрсатиш тўғрисидаги баҳс-мунозаралар тинмай давом этарди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

1. Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв): Автореф. дисс. докт. истор. наук. – Тошкент, 1994.
2. Кауфман А.А. Переселение: Мечты и действительность. – М., 1906.
3. Фоффоров Ш.С. Тарих ва тақдир; Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари).Т., “Фан”-2006.
4. Южаков Ю.Д. Итоги двадцатисемилетнего управления нашим Туркестанским краем.– Спб.,1891
5. Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. (Социально-экономические аспект).-Т.:Фан.1983
6. G.Tursunova. The policy of the Russian empire in Turkistan in relation to the religion of islam. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS)ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 5, May., 2022

Anjuman qatnashchisi talabnomasi:

- 1. Familiya, ism, sharifi – *Eshonqulov Haqnazar Suvonqul o‘g‘li***
- 2. Ilmiy darajasi va unvoni - *talaba***
- 3. Ish joyi, lavozimi – *O‘zbekiston Milliy Universiteti, talaba***
- 4. Maqolaning nomi – *DESTRUKTIV G‘OYA TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNGA DOIR NAZARIYALAR***
- 5. Qaysi sho‘baga tegishli - 4**
- 6. Telefon raqami - Tel.(94) 919 87 78**

DESTRUKTIV G‘OYA TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNGA DOIR NAZARIYALAR

Eshonqulov Haqnazar Suvonqul o‘g‘li,
O‘zbekiston Milliy Universiteti, 4 – kurs talabasi.
Tel.(94) 919 87 78

Insoniyat tarixining har bir davridagi kishilik jamiyatida ijtimoiy destruktiv holatlar o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lgan. Davrlar o‘tishi bilan progress, taraqqiyot, pozitivlik, bunyodkorlik naqadar jadallahsa, regress, tanazzul, negativlik, vayronkorlik ham shu qadar ildiz ota bordi. Bugungi kunda vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolar va negativ holatlar o‘zining o‘ta murakkab tabiatni, oqibatlari ko‘lami bilan jiddiy tashvish tug‘dirmoqda. Shu munosabat bilan destruktiv holatlarning shakllanishi qonuniyatlarini aniqlash, buning uchun esa mazkur jarayonlarning mohiyati va sabablariga doir mulohazalarni umumlashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Ushbu mavzu yuzasidan destruktiv g‘oyalarning kibermakonda tarqalashi va uning salbiy jihatlarini olib berishdan oldin “destruktiv” tushunchasi va uning holat sifatidagi falsafiy-siyosiy mazmuniga e’tibor qaratishni lozim topdik. Sababi, “destruktiv” tushunchasi dastlab diniy qarashlar va manbalar asosida shakllangan va rivojlangan degan konsepsiyasini ilgari suramiz.

Ma’lumki, tabiat, jamiyat va inson borlig‘idagi destruktiv holatlar to‘g‘risidagi ilk g‘oyalarni diniy manbalarda uchratish mumkin. Masalan, zardushtiylikda olam taraqqiyoti, umuman olganda, ezgulik va yaxshilikka bo‘lgan intilish sifatida tasavvur qilinadi: qachondir ezgulik xudosi Axuramazdaning mutlaq hukmronligi ta’milanishi,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ezgulik va adolat qaror topishi aniq. Lekin ezgulikning ilk shakllari (osoyishta hayot, buniyodkorlik, obodonchilik va h.k.) vujudga kelgani zahoti unga qarama-qarshi o'laroq yovuzlik shakllari (qurg'oqchilik, qurbanliklar, urushlar, kasalliklar va h.k.) ham paydo bo'ladi[1].

Zardushtiylikda barcha destruktiv holatlarning muallifi mavjud – bu ruhlantiruvchi kuch Ahriman obrazi bilan bog'lanadi. Ahriman barcha yovuz kuchlarning manbai, ilhomchisi hisoblanadi: u goho odamlarni yovuzlik bandisi-ga aylantiradi (Zahhokni taxtga o'tqizgani kabi), goho ularni to'g'ri yo'ldan chalg'itadi (Jamshidni yo'ldan urgani kabi)[2].

Xristianlik dinida destruktiv holatlar mustaqil substansiya sifatida emas, turli jarayonlarning buzilishi tarzida tasavvur qilinadi. Xudo materiyani yaratdi, uni turli shakllarga soldi, turfa xususiyatlar bilan to'ldirdi. Uning barcha yaratuvchanlik harakatlari ezgulik bilan yo'g'rilgan, binobarin, uning tomonidan buniyod etilgan borliqning o'zi ham ezgulikdir.

Biroq ushbu ezgulikni yemiruvchi, vayron qiluvchi holatlar, jarayonlar mavjud. Aynan ana shu holat va jarayonlar yovuzlik sifatida talqin qilinmog'i darkor. Yovuzlik ibtidodan yaratilgan mustaqil voqelik emas, u Xudo tomonidan buniyod etilgan narsalarning buzilishi, vayron qilinishidir. Masalan, Xudo odamni o'z qiyofasiga ko'ra erkin mavjudot qilib yaratdi, uni ezgu ishlarga oshno qildi. Lekin odam bolasi gunohga botib, Xudodan yuz o'girdi, yovuzlik sari yuz tutdi. Shu ondan boshlab, xristian dini talqiniga ko'ra, uning barcha qilmishlari destruktiv xarakter kasb qilmoqda[3].

Islomda yovuzlik ko'proq insonning salbiy hatti-harakatlari bilan bog'lab talqin qilinadi. Islom dini aqidalariga ko'ra, inson hayotining maqsadi Allohgina ishonish, Uni bilish, Unga mehr qo'yish va ibodat qilish orqali ma'naviy yuksaklikka erishish bilan bog'liq. Odam bolasini ana shu yo'lda muqim saqllovchi har qanday manba ezgulik, yo'ldan ozdiruvchi har qanday holat esa yovuzlikdir. Yovuzlik mohiyatini bilish birmuncha murakkab, unga yolg'iz Allohgina qodir. Shu bois Qur'oni Karimning "Baqara" surasida: "*Balkim, sizlar yoqtirmagan narsa (aslida) o'zlaringiz uchun yaxshi, yoqtirgan narsangiz esa (aslida) sizlar uchun yomon bo'lib chiqar. Allah bilur, sizlar esa bilmaysizlar*", -deb ta'kidlanadi. Ko'rinadiki, islom talqinida, insonni Allohnini tanishgga eltuvchi noxushlik (masalan, kasallik – agar inson uni sabr bilan yengsa) ezgulikka, yaxshilik bo'lib ko'ringan holat (masalan, boylik – agar u insonni gunohga yetaklasa) yovuzlikka xizmat qiladi[4].

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

“Destruktivlik” tushunchasi ayniqsa, insonning destruktivlik faoliyatini yetarli darajada o‘rganilmaganligi, bu borada atamalarning bir ma’noli talqini mavjud emasligi unga aniqlik kiritish zaruratini yuzga keltirmoqda.

Destruktiv g‘oya – ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga sabab bo‘ladigan, nazariyalar, qarashlar, me’yorlar, qadriyatlar va ularni jamiyatda tarqatish usullaridan iborat salbiy destruktiv voqelikdir. Destruktiv g‘oya destruktivlik darajasiga qarab aniqlanadi. Hamma destruktiv g‘oyalar ham mutlaq va umumiy mezonlarga tayanmaydi. Destruktiv g‘oya deganda, keng ma’noda, shunday g‘oyalar tushuniladi, ular mavjud ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga xizmat qiladi. Mutlaq destruktiv g‘oyalar esa har qanday ijtimoiy aloqalar va institutlarning buzilishiga xizmat qiladigan, umuman jamiyatning rivojlanishi, hatto, yashashiga imkon qoldirmaydigan g‘oyalardir. “Ular insonparvarlik tamoyiliga zid bo‘lgan, jamiyatni tarafkashlarga ajratib, bo‘lib tashlaydigan, bir millatni boshqasidan ustun qo‘yadigan, oliv irq da’vosida boshqa xalqlarni qirg‘in qilishga chaqiradigan destruktiv g‘oyalardir. Diniy aqidaparastlik va jangari irqchilik (rasizm), buyuk davlatchilik shovinizmi va ashaddiy (agressiv) millatchilik, fashizm va bolshevizm mafkuralari ana shunday vayronkor g‘oyalar tizimini tashkil etadi”[5].

Destruktiv g‘oya avtoritar shaxslar va minoritar ijtimoiy guruhlarning g‘ayriinsoniy ifodalangan manfaatlariga asoslanadi va ushbu manfaatlarni butun jamiyat uchun qo‘llab bo‘lmaydigan usullarda amalga oshirishni nazariy jihatdan asoslaydi. Destruktiv g‘oyalarning asosiy tamoyillarni, qarashlarni, aqidalarni, ramzlar va tushunchalarni olishi mumkin bo‘lgan eng asosiy manbalarni ya’ni, asosiy dunyoqarash oqimlarini ajratish, destruktivlikning ta’siri va tajovuz yo‘nalishining xarakterini aniqlash, destruktiv harakat obyekti va manfaatlarini amalga oshirishning asosiy doirasini aniqlash bu boradagi tadqiqotlardagi ko‘plab chigalliklarni oydinlashtiradi.

Destruktiv g‘oyalarning ham subyekt sifatida, ham obyekt sifatida asosini marginal guruhlar tashkil qiladi. Ayni paytda bugungi dunyoda turli vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan buyuk davlatchilik shovinizmi, tajovuzkor millatchilik, neofashizm terrorchilik, ekstremizm kabi siyosiy oqimlar faoliyati bunga misol bo‘ladi. Pirovardida bunday g‘ayriinsoniy, destruktiv g‘oyalar xalqlar boshiga so‘ngsiz kulfatlar keltirib, insoniyatning tinchligi va osoyishtaligini buzmoqda.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, destruktiv g‘oyalarni turli vaziyatlar, xususiyatlariga qarab ularning turlarini va tasnifini keltirish mumkin. Masalan, asosiy ta’limotlariga qarab, obyekti, subyekti, yo‘nalishlari, sabablari, oqibatlari, zamon va makon hamda boshqa jihatlari nazarda tutiladi. Bizning fikrimizga ko‘ra destruktiv g‘oyalarni umumiy ko‘rinishi, manbalariga ko‘ra diniy va dunyoviy hamda aralash shakldagi ko‘rinishga ajratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Mahmudov T. “Avesto” haqida.- T.:Sharq, 2000.
2. Firdavsiy A. Shohnoma.- T.:A.Navoiy nomli O‘zb. Milliy kutubxona.nashr., 2012.
3. Августин А. О свободе воли. Книга 2.// Антология средневековой мысли. В двух томах. Том 1.- СПб.: РХГИ, 2001.- С. 19-112.
4. Qur’oni Karim. Baqara surasi. 216-oyat.// Qur’oni Karimning mashhur suralari fazilati./ Nashrga tayèrllovchilar A.Ahmad, I.Nurulloh.- T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashr., 2021.- B.119
5. Nazarov Q. G‘oyalalar falsafasi. –Toshkent: Akademiya, 2011. – 296-301 b.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Luiza Mey Alkotning “Kichik Xonimlar” romanida oilaviy munosabatlar tasviri.

Yangiboyeva Dildora Istamovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi, O`zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqola taniqli Amerika yozuvchisi Luiza Mey Alkotning “Kichik Xonimlar” romanida tasvirlangan oilaviy munosabatlarni chuqur tahlil qilishga hamda ularni to`la o`rganishga bag`ishlanadi. Bu roman o`zining tarbiyaviy ahamiyati hamda tasvirlangan mavzularining xilma-xilligi bilan shuhrat qozongan bo`lib, butun dunyo bo`ylab hozirgi kunga qadar o`quvchilar qalbidan joy egallab kelmoqda. Asar hayotiy voqealardan olingan bo`lib, u o`quvchilarga real voqealar orqali oiladagi muammolar hamda ularni hal etish, insonlararo munosabatlar haqida batafsil ma`lumot beradi.

Kalit so`zlar: oila, munosabatlar, bir-birini tushunish, qo`llab-quvvatlash, g`amxo`rlik qilish, opa-singillar, Jo, Bes, Meg, Emi.

Abstract: This article is dedicated to the in-depth analysis of the family relationships described in the novel “Little Women” by the famous American writer Louisa May Alcott and to their full study. This novel has become famous for its educational value and the diversity of the depicted topics, and it is still in the hearts of readers all over the world. The work is taken from real life events, and it provides students with detailed information about family problems and their solutions, interpersonal relationships through real events.

Keywords: family, relationships, mutual understanding, support, care, sisters, Jo, Bess, Meg, Amy.

Аннотация: Данная статья посвящена углубленному анализу семейных отношений, описанных в романе известной американской писательницы Луизы Мэй Олкотт «Маленькие леди», и их полному изучению. Этот роман прославился своей просветительской ценностью и разнообразием изображенных тем и до сих пор находится в сердцах читателей во всем мире. Работа взята из реальных событий жизни и предоставляет учащимся подробную информацию о семейных проблемах и их решениях, межличностных отношениях через реальные события.

Ключевые слова: семья, отношения, взаимопонимание, поддержка, забота, сестры, Джо, Бесс, Мэг, Эми.

Kirish: Luiza Mey Alkot taniqli Amerika yozuvchisi bo`lib, uning asarlari orasida har qanday turdagи ishlarni topish mumkin. Masalan, u nafaqat romanshunos adib, balki qisqa hikoya yozuvchisi hamda shoira ham hisoblanadi. U yozgan asarlari orasida “Kichik xonimlar” romani uni dunyoga tanitgan eng mashhur asari hisoblanadi.[1] Mashhur yozuvchi 19-asr mobaynida o`z romanlarida turli xil qahramonlarni yaratdi. Uning asarlari o`quvchilarga kuchli ayol qahramonlarni tanishtirdi. Natijada, uning yozuv uslubi Amerika adabiyotiga juda katta ta`sir ko`rsatdi.[2] Joan Gudvin ta`kidlab o`tganidek, “Luiza Mey Alkot o`z muvaffaqiyatining qurbanini edi. U ijodi mobaynida jiddiy asarlar yozishga uringan bo`lsa-da, ko`proq bolalar kitoblarini yozishda davom etadi, chunki bu asarlar uning oilasini moddiy tomondan qo`llab-quvvatlashga asos bo`lib xizmat qilgan.”

Adabiy taqriz: Luiza Mey Alkot adabiy merosi juda ham katta bo`lib, uning ko`plab jahonga mashhur asarlari bor. Masalan, ulardan biri bu “Siren gullari ostida” (“Under the Lilacs”) nomli bolalar romani bo`lib, bu asar birinchi marta 1878-yilda nashr etilgan.[3] Bu asar qattiqko`l oilasidan qochib ketib, yaqin atrofdagi Lilak vodiysida sarguzasht izlashga qaror qilgan ikki yosh qiz Beb va Betti haqida hikoya qiladi. Bu vodiyya qizlar turli xil rang-barang qahramonlarni va hayvonlarni, jumladan, sirk artisti, qochoq bola va yaramas itni uchratishadi. Romanda do`stlik, oila mavzulari, bolalikdagi xayolotlar va o`yining ahamiyati o`rganiladi.

Luiza Mey Alkotning navbatdagi mashhur asarlaridan biri, uning 1866-yilda yozilgan “Uzoq halokatl sevgi ta`qibi” (“A Long Fatal Love Chase”) romani bo`lib, u A.M.Barnard taxallusi bilan nashr etilgan.[4] Bu romanda muallif o`quvchilarga Rosamond Vivian nomli yosh ayolning Filip Tempest ismli badavlat odamni sevib qolishi haqida hikoya qiladi. Biroq, ko`p o`tmay, u Filipning aslida ko`ringanidek emasligini sezib qoladi va u bilan notinch va haqoratli munosabatlar tuzog`iga tushib qoladi. Romanda sevgi, xiyonat, nazorat va erkinlik uchun kurash mavzulari yoritib berilgan. Bu asar psixologik triller bo`lib, u o`quvchilarga Rosamondning erkinlikka erishish sayohati haqida ma`lumot beradi.

Luiza Mey Alkot asosan, asarlarida kuchli ayol qahramonlarini gavdalantirishga e`tibor qaratadi. Masalan, uning romani “Kichik Xonimlar” asarida, March

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

xonadonidagi to`rt opa-singillarni tasvirlash orqali ularning oiladagi munosabatlarini ko`rsatib berishga urinadi. Bu roman Amerikada Fuqarolik urushi bo`layotgan davrlarni qamrab olib, taxminan bir asr davomida o`quvchilar qalbidan joy olib kelmoqda.

“Kichik xonimlar” romanining norasmiy ravishda ikkinchi kitobi hisoblangan “Kichik Janoblar” nomli bolalar romani ham oradan ko`p o`tmay mashhurlikka erishdi. Bu asar birinchi marotaba 1871-yilda aka-uka Robertlar tomonidan chop etilgan.[5] Bu asar turmush qurgan va o`sha paytda Plumfielddag`i o`g`il bolalar mакtabni yuritayotgan Jo March qahramoni hayotiga bag`ishlanadi. Roman mакtab o`quvchilarining hayoti va sarguzashtlariga, xususan, yaramas Net, tinib-tinchimas Den va yaxshi xulqli, lekin uyatchan Tommiga bag`ishlanadi. Kitob davomida Jo va uning turmush o`rtog`i, professor Bhaer, o`g`il bolalarga yaxshi qadriyatlar va axlojni singdirishga intilishadi, shu bilan birga o`zlarining shaxsiy muammolari bilan shug'ullanishadi. “Kichik janoblar” oila, ta`lim, do`stlik va o`smirlik mavzularini o`rganadi.

Tadqiqot metodologiyasi: “Kichik Xonimlar” romani Luiza Mey Alkotning adabiy merosida o`ziga xos ahamiyatga ega. Bu asar juda keng mavzularni o`z ichiga qamrab oladi, shu jumladan, fidoyilik, mehr-muhabbat, onaning farzand tarbiyasidagi roli, ota-onaga hurmat, turmush o`rtoq bilan qanday muomalada bo`lish, do`stlik, opa-singillar orasidagi o`zaro munosabatlar, qiz farzandlar tarbiysi, oilaviy munosabatlar va boshqalar. Bu tadqiqotning mavzusi oilaviy munosabatlar bo`lgani sababli, tadqiqot asarni yaqindan o`qib chiqish hamda uni chuqur tahlil qilish orqali olib borildi. Ma`lumotlarni to`plash jarayoni romanni o`qish, ma`lumotlarni yozib olish va kerakli qismlarni belgilashni o`z ichiga oldi. Tanlab olingan asar parchalari romandagi o`zaro oilaviy munosabatlarni olib berishga yaqindan yordam berdi.

Xo`sh, asarda oilaviy munosabatlar qay darajada yo`lga qo`yilgan? Oila so`zining lug`aviy ma`nosi nima? Inson hayotida oilaning o`rnii qanday va oila a`zolari bir-biri bilan qay tarzda munosabat olib borishlari kerak? Ushbu savollarga javob topish uchun biz ba`zi manbalarni o`rganishga harakat qildik.

Oksford lug`atida “oila” so`zi ota-onalar va farzandlarni o`z ichiga olgan guruhni anglatar ekan. Ular odatda hissiy yordam beradi, bir-birlariga g`amxo`rlik qiladi va tarbiyalaydi va ko`pincha birga yashaydi. Oila tarkibiga ota-onalar, aka-uka, bobo va buvilar, xolalar, amakilar, amakivachchalar va boshqa qarindoshlar kirishi mumkin.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Oila a`zolari ko`pincha inson hayotidagi eng kuchli va eng muhim munosabatlardan biri hisoblangan rishtalarni birlashtiradi.

Ushbu romanda ham oila a`zolari bir-biriga qo`ldan kelgancha yordam beradi, og`ir kunlarida bir-biriga dalda bo`lib, ularni ruhan qo`llab-quvvatlaydi. Bu oilaviy rishtalar asosan, March xonadoni a`zolari- to`rt opa-singil hamda onalari March xonim o`rtasida kichadi. Masalan, Meg, oilada eng katta farzand bo`lib, u doim qolgan singillariga nisbat onasidek qadrondon va doim onasi uyda bo`lmaqanda, ona rolini bajaradigan qahramondir. Jo esa, erkakshoda va asosan erkinlikka intiladigan ikkinchi farzand bo`lib, barcha singillariga, ayniqsa, mehribon va oqko`ngil uchinchi singil Besga qayg`uradigan qahramon. Emi, eng yosh singil, ammo asosan xudbin va erkatoy qahramon bo`lsa-da, doim o`z oilasi uchun qayg`uradigan va o`z-o`zini rivojlantirishga intiladigan qahramondir. Ularning onasi, March xonim ham oilada o`z darslari va hikmatli so`zlari bilan opa-singillarga hayot yo`llarida uchraydigan har qanday qiyinchiliklarni sabr-matonat bilan yengishlariga yordam beradi va yelkadosh bo`lib, ularga yo`l-yo`riq va axloqiy ko`rsatmalar berib keladi.

Tahlil va natijalar: Har qanday keltirilgan fikr-mulohazalar asardan olingan parchalarning mohiyati ochib berilsagina, ishonchli bo`ladi, albatta. Misol uchun, muallifning quyidagi so`zlari March xonimning qizlari bilan munosabatlarini yaqqol ko`rsata oladi:

“I don’t think I have any words in which to tell the meeting of the mother and daughters. Such hours are beautiful to live, but very hard to describe, so I will leave it to the imagination of my readers, merely saying that the house was full of genuine happiness...”

“Ona va farzandlarning uchrashuvini tasvirlash uchun munosib so`zlarim bor deb o`ylamayman. Bunday soatlarda yashash chiroyli, ammo tasvirlash juda qiyin, shuning uchun bu ishni o`quvchilarim xayolotiga qoldiraman, faqatgina shuni aytishim mumkinki, uy haqiqiy quvonchga to`la edi...” Bu so`zlardan shu ma`lumki, opa-singillar onalarini juda ham yaxshi ko`rib, hurmat qilishadi va har uchrashuvlarini quvonch va baxt to`la onlar sifatida baholashadi va haqiqatan ham juda ham sevinishadi. Nafaqat onalari, balki otalarini ham juda yaxshi ko`rgan bu qizaloqlarning ular bilan munosabatlarini muallif quyidagicha tasvirlaydi:

“The girls gave their hearts into their mother’s keeping, their souls into their father’s, and to both parents, who lived and labored so faithfully for them, they gave a

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

love that grew with their growth and bound them tenderly together by the sweetest tie which blesses life and outlives death.”

“Qizlar qalblarini onalariga, jonlarini otalariga, va farzandlari uchun yashab, ular uchun mehnat qilgan ikkala ota-onalari uchun ham bag`ishladilar, ular o`zлari ulg`ayib borganlari sari oshib boradigan mehr-muhabbat bilan bog`landilar...”

Dunyoda eng go`zal baxt, albatta, ota-ona mehr-muhabbatiga sazovor bo`lishdir. Va, yuqoridagi parchada ham “kichik xonimlar”ning qanchalik ota-onalariga mehr qo`yanliklari yaqqol namoyon bo`ladi.

Opa-singillar bilan onalari o`rtasida juda mustahkam bog` mavjud bo`lib, ular doimo birgalikda bo`lishga, muammolarini hamjihatlikda hal qilishga harakat qilishadi, hech qachon onalaridan sir saqlashmaydi, qanday muammolari bo`lsa, albatta, birinchi navbatda onalariga murojaat qilishadi. Ular o`rtasidagi aloqa shu qadar nafis va mustahkamki, ularning munosabatlari zamonaviy ona va farzandlarga o`rnak bo`lsa arziydi. Hattoki, onalari va qizlar o`rtasida doimiy odatlar mavjud bo`lib, bu odatlar hech qachon kanda qilinmasligini quyidagi parchadan tushunish mumkin:

“They always looked back before turning the corner, for their mother was always at the window to nod and smile, and wave her hand to them. Somehow it seemed as if they couldn’t have got through the day without that, for whatever their mood might be, the last glimpse of that motherly face was sure to affect them like sunshine.”

“Ular har doim burchakka burilishdan oldin ortlariga qarardilar, chunki onalari doimo deraza oldida bosh irg`ab, jilmayib, qo`lini silkitib turardi. Negadir ular o`zlarini bu udumsiz kunni o`tkaza olishmaydigandek his qilishardi, chunki ularning kayfiyati qanday bo`lishidan qat`i nazar, onalarining oxirgi marta nazar solishi ularga quyosh nuridek ta`sir qilishi aniq edi.”

Bu parchada opa-singil Meg, Jo, Emi hamda Beslarning bolalikda maktabga yo`l olishlari tasvirlangan. Ular har kuni maktabga ketayotganlarida, onalari ortlaridan doimo tikilib, yo`l tugab, ular ko`rinmay qolgunga qadar kuzatib turardi. Bu parcha ham ularning qanchalik bir-birlariga yaqin ekanliklarini ko`rsatadi.

March opa-singillar Meg, Jo, Bes va Emi o`z otalari, janob Marchga nisbatan chuqur va cheksiz muhabbatga ega. Ularning onasi, March xonim har doim qizlariga otalarining jasur va mehribonligini ta`kidlab keladi. Janob March o`zining sog`ligidan kechib Fuqarolik Urushida xizmat qilganligi bois, romanning anchagina qismida mavjud bo`lmaydi, shunga qaramay, uning o`gitlari va nasihatlari har doim qizlariga

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

hamroh bo`lib keladi. Opa-singillarning har biri otasi bilan o`zgacha munosabatga, aloqaga ega. Masalan, Meg otasining kuchliligi va fidoyiliginu hurmat qilsa, Jo otasining yozuvchilik va adabiyotga bo`lgan sevgisini o`zida takrorlaydi. Bes otasining sokin hamda mehrli hamsuhbati bo`lib kelgan bo`lsa, Emi o`zining kreativ hamda san`atkorona qalbi, san`atga bo`lgan sevgisi bilan otasiga o`xshab ketadi. Ular kezi kelganda, otalari uchun eng qiymatli narsalaridan ham voz kechishdan chekinmasliklari Joning fidokorligidan anglashiladi. Jo, otasining og`ir ahvolda ekanligi haqida xabar kelganda, o`zining eng qiymatli narsasi, sochidan voz kechadi. Sochini kesish evaziga, 25 dollar pulni otasining xarajatlariga sarflanishi uchun onasiga taqdim etadi.

Bundan tashqari, opa-singillarning o`zaro munosabatlari ham ta`kidlab o`tilishi kerak. Roman davomida ular doimo mushkul vaziyatlarda bir-birlarini qo`llab-quvvatlaydilar, muvaffaqiyatlarini birga nishonlaydilar va bирgalikda o`sib-ulg`ayib, bir-birlariga hayotda o`z o`rinlarini topishga ko`maklashadilar. Bu asarda tasvirlangan opa-singil aloqalari birga bo`lish, hamjihatlikda qiyin vaziyatlardan chiqish, bir-birini qo`llashning ahamiyatini ochib beradi. “Opa-singillarning bir-biriga yaqin bo`lish darajasi qancha yuqori bo`lsa, ularda shuncha ko`p o`ziga ishonch tuyg`usi mavjud bo`ladi hamda ular ota-onalari hamda tengdoshlari bilan ijobiy aloqa o`rnata olishadi.”[6] Opa-singillarning o`zgacha xarakteri, qiziqishi bo`lishiga qaramay, ular doim bir-birlariga muhtoj bo`lgan paytlarda yordam qo`lini cho`zishgan. Misol uchun, March opa-singillaridan Bes kasal bo`lib yotib qolganda, qolgan opa-singillar uning atrofida kun-u tun parvona bo`lishadi, unga qo`ldan kelgancha dalda berib, tez orada sog`ayib ketishiga ishontirishga harakat qilishadi. Qo`shimcha qilib aytadigan bo`lsak, Besning o`limi yaqinlashgan kezlarda, Jo doimo uning oldida bo`ladi va Bes xohlagan har qanday ishni bajara olishini Besga tushuntiradi.

Xulosa qilib aytganda, March xonadonidagi har bitta qahramon o`ziga xos xislatlarga ega bo`lib, ularning har biri oilaviy munosabatlarda faol ishtirok etadi va ular har qanday holatda ham bir-birlariga bo`lgan sadoqatni, mehr-muhabbatni yo`qotishmaydi. Luiza Mey Alkot “Kichik Xonimlar” romani orqali o`quvchilarga oilaning hamda ular bilan qiladigan muloqotlarimizning ahamiyatini hamda o`ziga xos jihatlarini mahorat bilan yoritib beradi. Romanda tasvirlangan har bir voqeа-hodisa va undan chiqadigan xulosa asar qiymatini yanada oshiradi va uni jahon durdonalaridan biri bo`lib qolishini ta`minlaydi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ILOVALAR:

1. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Louisa_May_Alcott
2. <https://www.womenshistory.org/education-resources/biographies/louisa-may-alcott>
3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Under_the_Lilacs
4. https://en.m.wikipedia.org/wiki/A_Long_Fatal_Love_Chase
5. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Little_Men
6. McHale, S. M., Updegraff, K. A., Whiteman, S. D., & Crouter, A. C. (2012). Siblings` roles in young adults psychological well-being and attitudes toward family. Journal of Family Psychology, 26(5), 732-742.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ
В НЕЛИНГВИСТИЧЕСКОМ ВУЗЕ

TECHNOLOGIES IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE
IN A NON-LINGUISTIC UNIVERSITY

Шавилова Наталья Сергеевна
преподаватель “кафедры
русского языка и литературы” ТерГПИ
E-mail: shavilova_tgpi@mail.ru
Тел.: +99893-610-22-10

*Shavilova Natalya
teacher of the “department Russian language and literature” Termez State
Pedagogical Institute
E-mail: shavilova_tgpi@mail.ru
Tel.: +99893-610-22-10*

Аннотация. Статья посвящена обучению иностранному языку (русскому) в нелингвистическом вузе является овладение обучающимися необходимым и достаточным уровнем компетенций, обеспечивающих успешное решение коммуникативных задач в сфере профессионального общения.

Ключевые слова: технология, профессиональная деятельность, текст, фонетика, грамматика, коммуникация, инновация, ресурс, образование, личность, потенциал.

Annotation. The article is devoted to teaching a foreign language (Russian) in a non-linguistic university - students mastering the necessary and sufficient level of competencies that ensure the successful solution of communicative problems in the field of professional communication.

Key words: technology, professional activity, text, phonetics, grammar, communication, innovation, resource, education, personality, potential.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

В современном мире, в сфере высшего профессионального образования, владение иностранным языком стало особенно важным аспектом в общей и профессиональной культуре специалиста, а также ключевым элементом для успешной коммуникации. Знание иностранного языка стало неотъемлемым компонентом образовательной системы и гарантией успешного будущего в профессиональной сфере.

Изучения иностранного языка (русского) студент неязыкового учебного заведения должен получить определенные знания и навыки. Он должен освоить фонетические и грамматические основы языка, научиться читать специализированную литературу и самостоятельно работать с источниками на иностранном языке. Также важно развить умение общаться на профессиональные темы и участвовать в деловых дискуссиях. Необходимо научиться работать с документами и вести деловую переписку. И, конечно, студент должен обладать определенным словарным запасом - как общим, так и профессиональным.

Цель изучения иностранного языка в неязыковом учебном заведении - помочь студентам достичь определенного уровня знаний и навыков, которые позволяют им успешно общаться в профессиональной среде. Для достижения этой цели необходимо использовать различные методы и технологии обучения.

Современный образовательный процесс в высших учебных заведениях характеризуется возрастающим интересом к технологиям. Это вполне закономерно в контексте современных тенденций в области высшего образования и может способствовать повышению его эффективности и конкурентоспособности. Внимание к технологичности в обучении привлекает возможности для развития интеллектуальных способностей учащихся и решения актуальных образовательных вопросов.

С исторической точки зрения, технологии обучения являются относительно новым понятием в мировой и отечественной педагогической науке и образовательной практике. На данный момент не существует единого общепринятого определения этого понятия. Несмотря на разнообразие и различие теоретических подходов к данной категории, можно выделить определение, предложенное профессором И. Д. Лушниковым: "Технология обучения — это системный, структурированный и управляемый процесс обучения, протекающий в соответствии с поставленными задачами, и создающий

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

определенные условия с высокой вероятностью обеспечения планируемого результата". На основе этого определения можно выделить несколько ключевых характеристик технологии обучения:

Концептуальность: технология обучения основана на определенной концепции или подходе к обучению.

Системность: технология обучения представляет собой систему взаимосвязанных элементов, направленных на достижение определенной цели.

Логическая структурированность: технология обучения имеет четкую структуру и последовательность действий, которые необходимо выполнить для достижения цели.

Результативность (эффективность): технология обучения должна обеспечивать достижение определенных результатов или целей обучения.

Управляемость: технология обучения предполагает возможность управления процессом обучения и контроля за его результатами.

Воспроизводимость: технология обучения может быть использована многоократно, и ее результаты должны быть воспроизводимы при соблюдении всех необходимых условий.

Структура технологии обучения включает следующие элементы: постановку учебных задач, содержание обучения, методы и приемы обучения, условия для проведения учебного процесса, а также оценку результатов обучения. В настоящее время существует множество технологий обучения, которые можно использовать в вузах для обучения иностранным языкам. В соответствии с образовательными стандартами, для реализации компетентностного подхода применяются различные технологии обучения, как общедидактические, так и специальные. К ним относятся: технология развития критического мышления, проблемного обучения, исследовательская деятельность, проектная деятельность, модульное обучение, дифференцированное обучение, интерактивные методы, совместное обучение (co-operative learning), подкастинг и кейс-метод. Каждая из этих технологий обладает своим потенциалом в формировании определенных компетенций.

Выбор конкретной технологии зависит от конкретной задачи или группы задач, которые нужно решить. Поэтому часто необходимо использовать сочетание различных технологий для достижения оптимальных результатов

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

обучения. Особенности дисциплины “Русский язык” определяют, какие технологии будут наиболее полезными и эффективными. Успешное использование технологий обучения зависит от нескольких факторов:

- технологической компетентности преподавателя, то есть его способности анализировать, оценивать и выбирать подходящие технологии для решения учебных задач и эффективно применять их на практике;
- целостного применения выбранной технологии, то есть использования всех ее компонентов;
- мотивации студентов использовать выбранную технологию.

Анализ практики показывает, что трудности в реализации технологического подхода к обучению русскому языку возникают из-за следующих причин:

- 1) Отсутствие подробного и унифицированного описания технологий в литературе, что затрудняет их идентификацию и приводит к сложностям в их практическом применении преподавателями.
- 2) Отождествление технологий с другими педагогическими понятиями, такими как методы обучения.
- 3) Низкая мотивация преподавателей к использованию технологического подхода из-за отсутствия новизны в таком подходе к организации учебного процесса.
- 4) Фрагментарное использование технологий обучения.
- 5) Неправильный выбор технологий, не соответствующий дидактическим задачам.
- 6) Низкий уровень рефлексивной компетентности преподавателей, что затрудняет самоанализ собственной практики обучения с точки зрения технологий.

Технологии обучения являются инновационным инструментом для решения образовательных проблем на качественно новом уровне. Использование технологических подходов в обучении требует нового подхода к профессиональной деятельности преподавателей русского языка и повышения их профессиональной компетентности.

Список литературы:

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

1. Бердиева, Ш. Н. (2022). Нон-фикшн как особый тип документальной литературы. Редакционная коллегия, 108.
2. Бердиева, Ш. (2023). БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВНИНГ ЗАРУРИЯТИ. *Interpretation and researches*, 2(1).
3. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. – М., 2000
4. Имамкулов, Б. Р., & Абдуллаева, М. Р. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В ОБЛАСТИ ДВУЯЗЫЧИЯ ДЛЯ ШКОЛЫ УЗБЕКИСТАНА. *Scientific Impulse*, 1(9), 534-541.
5. Умаров, А. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(11).
6. Умаров, А. А. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ НА УРОКАХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ. *Научный Фокус*, 1(7), 185-189.
7. Шавилова, Н. (2023). Принципы конструирования педагогических технологий для занятий по русскому языку в вузах. *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*, 1(1), 558-562.
8. Berdiyeva, S. (2023). Zamonaviy adabiyotda non-ficshning o ‘ziga hosligi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(1), 59-62.
9. Shavilova, N. S. (2024). Peculiarities of Russian Language Teaching in the National Rural School of Uzbekistan. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 182-185.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ИССЛЕДОВАНИЕ ВКЛАДА АКМЕОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ И ДОСТИЖЕНИЕ ВЫСШЕЙ ТОЧКИ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ В ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ

Козлова Галина Геннадьевна

Ферганский государственный университет

АННОТАЦИЯ: Данная статья рассматривает влияние акмеологии на формирование личностных качеств и достижение высших точек развития в контексте физической активности. Акмеология, как наука, фокусируется на индивидуальных особенностях, потребностях и целях каждой личности, предоставляя персонализированные подходы к тренировкам. Рассмотрены основные принципы акмеологии, включая индивидуализацию, осознание внутреннего потенциала и стремление к высшим точкам развития. Выделены ключевые элементы акмеологии в физической активности, такие как персонализация программ тренировок, учет индивидуальных целей и способностей, а также важность саморефлексии и самоопределения. Заключение подчеркивает, что акмеологический подход создает прочные основы для устойчивого и сбалансированного развития личности в области физической активности, способствуя максимальному раскрытию потенциала каждого индивида.

Ключевые слова: Акмеология, физическая активность, личностное развитие, высшие точки развития, персонализация тренировок, саморефлексия, самоопределение, индивидуализация, мотивация, цели, эмоциональное благополучие, психологическая устойчивость.

Современное общество все более осознает важность физической активности для здоровья и благополучия. Однако важно не только заниматься физической активностью, но и стремиться к высшей точке развития личности в

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

этом процессе. Акмеология, наука, изучающая законы и закономерности саморазвития личности, играет существенную роль в формировании личностных качеств и достижении высших пиков развития в физической активности. Акмеология ставит перед собой задачу выявить и учесть уникальные особенности каждой личности. Вместо одноразовых подходов и универсальных методик акмеологический подход признает, что успешное обучение и развитие личности требует учета индивидуальных потребностей, стилей обучения и целей. Она предполагает, что в каждом человеке заложен внутренний потенциал, который может быть раскрыт и развит. Этот подход вдохновляет личность стремиться к своей высшей точке развития, и акцентирует внимание на поиске и раскрытии собственных сильных сторон и талантов.

Акме - это ключевой термин в акмеологии, обозначающий высшую точку развития личности. Он символизирует момент, когда человек достигает максимального раскрытия своего потенциала и самореализации. Акмеология направлена на помочь личности в поиске, достижении и удержании этой вершины, обеспечивая максимальное удовлетворение от собственного развития. В отличие от традиционных методов обучения, акмеология акцентирует внимание на самостоятельном управлении своим развитием. Личность становится активным участником своего обучения, определяя свои цели, разрабатывая стратегии достижения и регулируя процесс развития. Акмеология учитывает контекст обучения и развития. Она учитывает влияние социокультурных факторов, личного опыта и среды на формирование личности. Такой контекстуальный подход помогает лучше понимать, как внешние факторы взаимодействуют с внутренним потенциалом и как можно эффективно использовать эту динамику для достижения высшей точки развития.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Таким образом акмеология представляет собой инновационный и глубокий подход к обучению и развитию, сфокусированный на индивидуальности, внутреннем потенциале и саморазвитии личности. В контексте физической активности, этот подход может значительно улучшить эффективность тренировок и помочь каждой личности достичь своих высших точек развития в области здоровья и физической формы.

Физическая активность давно известна своим положительным воздействием на физическое здоровье, но современные исследования подчеркивают также ее влияние на психологическое и эмоциональное благополучие. Регулярные тренировки способствуют выработке эндорфинов, улучшают настроение и снижают стресс. Каждая личность уникальна, и реакция на физическую активность может сильно различаться. Акмеология предоставляет индивидуализированный подход, учитывая физические особенности, предпочтения, а также цели каждого человека. Такой персонализированный подход способствует эффективному использованию потенциала каждого индивида в процессе физического развития. Акмеология предлагает инструменты для измерения индивидуальных потенциалов в области физической активности. Определение сильных сторон, уровня мотивации и индивидуальных целей позволяет разработать эффективные программы тренировок, способствуя максимальному раскрытию потенциала каждого человека. Личности развиваются и меняются со временем. Акмеологический подход к физической активности включает в себя постоянную адаптацию к изменениям в физическом и психологическом состоянии личности. Это позволяет эффективно справляться с вызовами и сохранять мотивацию даже в переменчивых условиях. Акмеология предоставляет возможность для

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

психологического сопровождения в процессе физического развития. Это включает в себя работу с мотивацией, преодоление стресса, управление эмоциями и формирование позитивного восприятия тренировок. Психологическая поддержка содействует сохранению интереса и улучшению результатов.

Физическая активность, в сочетании с акмеологическим подходом, становится не только средством поддержания здоровья, но и инструментом для развития личности в ее полноте, принося удовлетворение и радость от достижения высших точек развития.

